

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

Pardayeva I., Xudoyqulova Sh., Eshboyeva F.

O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI

(o‘quv qo‘llanma)

Toshkent – 2023

УЎК: 633.511:631.562 (035)

КБК: 37.231 я 2

П 26:

Pardayeva I., Xudoyqulova Sh., Eshboyeva F.

O‘zbek dialektologiyasi: Pardayeva I., Xudoyqulova Sh., Eshboyeva F.

– Toshkent: Yangi asr avlod, 2023. 136 b.

ISNB:

Mazkur o‘quv qo‘llanma Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil 25-avgustdagi 744-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

*O‘quv qo‘llanma Guliston davlat universiteti Ilmiy kengashining 2023-yil _____dagi -
sonli qarori bilan tasdiqlangan*

Mas’ul muharrir:

I. Ermatov,

filologiya fanlari doktori, dotsent

Taqrizchilar:

S.Normamatov,

filologiya fanlari doktori, professor

F.Sharipov,

filologiya fanlari doktori, dotsent

So‘z boshi

”O‘zbek dialektologiyasi” fani oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri barcha lahjalarni sinchiklab tekshirish, mukammal darajada o‘rganib chiqish va ulardagi ko‘plab unutilgan so‘zlarni to‘plash, ularni adabiy til xazinasiga olib kirishdan iboratdir. O‘zbek dialektlari xilma-xil va juda murakkabdir. Oliy o‘quv yurtini tugatgan ona tili o‘qituvchisi o‘zining ish faoliyatida turli dialekt vakillari bilan uchrashadi. Shuning uchun o‘qituvchi mashg‘ulotlarni o‘zbek tilining adabiy normasida olib borish bilan birga shevalarning asosiy xususiyatlarini yaxshi bilishi, o‘quvchilarga adabiy til va sheva o‘rtasidagi farqni tushuntirishda, ularda uchraydigan dialektal xatolarning oldini olishda qiynalmaydi.

O‘zbek adabiy tilimizning rivoji faqat tamalargagina bog`liq emas. Odatdagi so‘z boyligimiz juda ham muhim hisoblanadi. Tilimizning boyib borishiga xizmat qiladigan muhim manbalardan biri xalq tili – shevalardir. Xalq jonli tilida adabiy tilda uchramaydigan ko‘plab so‘z va iboralar mavjud. O‘zbek tilining o‘ziga xos ba’zi xususiyatlari (ayniqsa, fonetikaga xos xususiyatlari) bu yozma yodgorliklarida o‘z aksini topmagan, chunki arab alifbesida yozilgan yozma yodgorliklarda ayrim so‘z va formalarning talaffuzi farqlanmagan. O‘zbek shevalarining barcha sohalari bo‘yicha o‘rganish esa bu xususiyatlarni aniqlash va ularni qayta tiklash uchun katta yordam beradi. Ayni vaqtida dialektologik kuzatishlar yozuv yodgorliklarida uchraydigan ayrim sheva materiallari va ularning xususiyatlarini to‘g‘ri izlplash imkonini ham beradi.

Sheva materiallari o‘zbek tili tarixi mutaxassislari uchungina emas, balki tarixchilar uchun ham o‘zbek xalqi etnogenezi masalalarini hal qilishda yordam beradi. Chunki xalq shevalari o‘zbek xalqining moddiy va ma’naviy madaniyatini, yodgorliklarda qayd etilmagan ayrim faktlarni bizning davrimizgacha olib kelgan bo‘lishi mumkin.

Demak, sheva materiallari faqat tilshunoslik uchungina emas, balki tarix, etnografiya va boshqa sohalar uchun ham muhimdir.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada o‘zbek tilining ko‘pshevaliligi uning boyligi sifatida qayd etilib, o‘zbek lahjalarining tasnifi tarixiga qisqacha izoh, lingvistik geografiyasiga e’tibor qaratiladi. Dialektologianing xalq va til tarixi bilan uzviy aloqada ekanligi ta’kidlanib, masalalar o‘sha mezondan kelib chiqqan holda yoritilgan.

DIALEKTOLOGIYA FANI, UNING MAQSADI VA VAZIFALARI

1. O‘zbek dialektologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. O‘zbek tilining murakkab dialektal tarkibi haqida.
3. O‘zbek shevalarini o‘rganishdagi metodlar.

“O‘zbek dialektologiyasi” o‘zbek shevalarini, ularning tarqalish chegarasini, qardosh va qardosh bo`lmagan tillarga munosabatini o‘rgatadi. “Dialektologiya” so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, dialekt, sheva va shevalarni bilish degan ma’noni anglatadi.O`zbek tilining sheva , dialekt, lahja guruhlarining xususiyatlarini ilmiy nazariy va ilmiy amaliy manbalar asosida amaliy tekshirish “O‘zbek dialektologiyasi” fanining vazifasidir. Turli hududlarda bo`lgan har xil dialektlarni va shevalarni o`rganish shu xalqning tarixi uchun ham, til tarixi uchun ham juda muhim bo`lgan ishonchli ma`lumotlarni asoslاب, ohib beradi.¹

Shevalar har bir milliy tilning asosi bo‘lib, milliy-ma’naviy qadriyatimizdir. Darhaqiqat, dialekt deganda ona tili tushunilishi haqiqat. Shuning uchun uni asrab-avaylash, qadrlash kerak. O‘zbeklar hozirgi O‘zbekiston Respublikasi, O‘rta Osiyo mamlakatlari, Afg‘oniston, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Avstraliya, Xitoy, Uyg‘uriston va boshqa mamlakatlarda yashaydi. Albatta, ularning tili o‘zbek tili, lekin uning o‘ziga xos bo‘lgan mahalliy xususiyatlari bor. O‘zbek shevalari o‘zbek tilining mahalliy ko‘rinishlari bo‘lib, ularni o‘rganish fan uchun nazariy, bo‘lajak til va adabiyot o‘qituvchisi uchun amaliy ahamiyatga ega. Ushbu fanni o‘rganishdan maqsad o‘quvchilarga eng muhim o‘zbek shevalari – fonetik, leksik, morfologik va qisman sintaktik xususiyatlar haqida to‘liq ma`lumot berishdan iborat. Bu quyidagi vazifalarni keltirib chiqaradi:

- sheva va dialektlarning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlarini har tomonlama tasnif qilish;
- milliy tilning paydo bo‘lishi va taraqqiyotida shevalarning tutgan o‘rni va shu milliy tilga asos bo‘lgan shevalarni aniqlash;
- shevalarning o‘zaro munosabatini, ularning adabiy til va qardosh tillarga bo‘lgan munosabatlarini belgilash;
- o‘xshash xususiyatlarga ko‘ra shevalarning tarqalish chegarasini aniqlash .

¹ T.J.Enazarov va boshqalar. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent. “Universitet”. 2012.

1. Lahja, dialekt va sheva tushunchalari. Turkiy tillar orasida o‘zbek tili ko‘p shevaliligi bilan farqlanadi. O‘zbek shevalari o‘tgan tarixiy davr ichida to‘xtovsiz taraqqiy etdi. Uning taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini tushunish va izohlashda **sheva, dialekt, lahja** degan terminlar qo‘llanadiki, ularning lug‘aviy va terminologik ma’nolarini bilish albatta zarurdir.

Sheva biror til doirasidagi xalq jonli tilining o‘ziga xos leksik, fonetik va grammatic xususiyatlariga ega bo‘lgan eng kichik qismi hisoblanadi. Masalan, Toshloq shevasi, Qarnoq shevasi.

Dialekt – tilshunoslikka doir **adabiyotlarda** ko‘pincha lahja ma’nosida, ba’zan sheva ma’nosida ham qo‘llanadi. Dialekt – xalqaro atama bo‘lib, umumlingvistik “dialekt” ma’nosida ishlatalish lozim. O‘zbek dialektoligiyasi fani uchun sheva va lahja atamalarini qo‘llash etarlidir²

Lahja arabcha so‘zdan olingan bo‘lib **ravish, tarz, yo‘sin kabi** ma’nolarini bildiradi. Lingivistikada tilning bir necha sheva va dialektlarini o‘z ichiga olgan, umumiyl xususiyatlari jihatdan o‘xhash kata bo‘lagi ya’ni shevalar yig‘indisidir.

O‘z tarixiy taraqqiyoti davomida o‘zbek tili uchta lahjaning birligidan tarkib topgan. Ular quyidagilar:

Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjası. Bu dialekt tarixan qadimgi tukiy qabila birlashmasiga mansub, uzoq o‘tmishda Oltoyning g‘arbiy tumanlarida yashagan, turkiy tillar tashkil topishi bilan G‘arbiy Oltordan chiqib ketgan qarluq urug‘larining rivojlanishi asosida tarixan shakllangan. Xonlik (552 yilda). , ular Irtish daryosi sohillarini, Jungriyani, Mo‘g‘ul tog‘larining janubiy yonbag‘ridan Ile daryosining shimoligacha bo‘lgan hududni egallaydi.

O‘zbek tilining qorluq-chigil-uyg‘ur lahjası. Bu lahjaga Toshkent, Namangan, Andijon, Fargona, Samarqand-Buxoro, Qarshi, Termiz, Jizzax, Kattaqurg‘on kabi shahar va shahar tipidagi boshqsa shevalar kiritiladi.

Qarluqlarning ko‘p qismi VI asr o‘rtalarida Sharqiy Turkiston, Farg‘ona va Toxaristonning ayrim viloyatlarini egallagan. Ular X asrda Yettisuvni egallab, katta hududda hukmronlik qilganlar. Shunday qilib, YIII—X asrlarda Ile daryosidan Sirdaryogacha, hozirgi Chimkent shahridan Sharqiy Turkistongacha bo‘lgan o‘lkalarda yashovchi barcha turkiy qabilalar qarluqlar tasarrufida edi. Shu o‘lkadagi barcha qabilalar uchun Qarluqlarning tili umumiyl til bo‘lib qolgan.³

² B. To‘ychboyev, B. Xasanov. O‘zbek dialektologiyasi Toshkent, 2004-yil

³ . S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, 2011-yil

IX-X asrlarda Chigil qabilasi Ile daryosining janubida, Issiqko'l atroflarida yashaganlar⁴.

Asosan shahar va shahar tipidagi shevalarni va dialektlarni mazkur lahja vakillari qamrab oladi. Dialektologiyada bu lahja qisqacha **qarluq** lahjasi deb ham yuritiladi. Turkiy tillarga xos bo'lgan singarmonizmni bu lahjaga kirgan shevalarning aksariyati yo'qotgan. Bundan shimoliy o'zbek shevalarigina mustasnodir.

O'zbek tilining qipchoq lahjasi. Uzoq o'tmishda Qipchoq qabilalari ham Oltoy o'lkasida yashaganlar. VII-VIII asrlarda Turk xoqonligi tarkibida bo'lgan. XIII asr o'rtalarida ular **kimak//imak**(yimak)lar davlati tarkibida qoladilar. XI asrlarda bu davlat parchalanib ketgach, qipchoqlar siyosiy jihatdan faollashadilar.

VII-VIII asrlarda qipchoqlar Irtish daryosi bo'yida yashaganlar, IX-XI asrlarda esa Volga bo'ylariga siljib borgan. Qipchoqlarning avlodlari hozirgi Mongoliya, Oltoy, O'rta Osiyo, Volga bo'yi Respublikalari territoriyalarida istiqomat qiladilar⁵.

O'zbekiston Respublikasining Toshkent viloyati, Sirdaryo, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax viloyatlarida bu lahja vakillari yashaydilar.

O'zbek tilining o'g'uz lahjasi. Qadimda o'g'uzlar Ile daryolari bo'ylarida shakllanib, Sirdaryoning o'rta va quyi oqimi va Orol bo'yi tumanlarida IX-X asrlarda istiqomat qilganlar⁶. Keyinchalik g'arbgaga qarab siljiganlar.

O'zbekiston Respublikasining Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Forish, Olot, Qorako'l tumanlarida, Turkmanistonning Toshhovuz, Qozog'istonning Qarnoq, Iqon, Qorabuloq, Qoramurt, Mankent qishloqlarida bu lahja vakillari istiqomat qiladilar.

Har bir lahjaning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari V.V. Reshetov klassifikatsiyasida beriladi.

Lahja termini o'zbek, turk tillarida iste'molda bor, boshqa aksariyat millatlar dialektologiyasida **dialekt va sheva(говор)** terminlariga ko'proq murojaat qilinadi.⁷

Dialektologiyada ikki xildagi dialekt to'grisida ham fikr yuritiladi, ya'ni **mahalliy dialektlar** va **ijtimoiy dialektlar**. **Mahalliy dialekt** umumhalq (milliy) tilining muayyan

⁴Шаниёзов К. Қарлуклар ва уларнинг тили ҳакида айрим мулоҳазалар// Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари.- Ташкент:ФАН, б.481-490.

⁵ Bu haqda qarang: Шаниязов К. III. К этнической истории узбекского народа. Ташкент:Фан,1974, с.42-51.

⁶ Шаниязов К.ИІІ. Ко'rsatilgan asar, б.47

⁷ . S.Ashirboyev. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent, 2011-yil

territoriyaga oid ko‘rinishi, o‘ziga xos namoyon bo‘lishidir. O‘zbek dialektologiyasi mahalliy sheva, dialekt va lahjalarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi.

Ijtimoiy dialekt esa mahalliy sheva, dialekt va lahjalardan farq qilgan holda muayyan guruhdagi shaxslarning umumxalq tilidagi so‘zlarga o‘z manfaatlaridan kelib chiqib o‘zgacha ma’no kasb etishlari yoki muayyan soha - kasb-hunar leksikasi, terminologiyasidan faqat shu soha kishilarining o‘zlarigina foydalanishlari asosida vujudga keladi. Ular biror sheva yoki dialekt xususiyatiga ega emas. Ijtimoiy dialektda shevaga oid so‘zlar ham ba’zan qatnashishi mumkin.

O‘zbek dialektologiyasi ijtimoiy dialektni o‘rganmaydi, ijtimoiy qatlamlar tili **sotsiolingvistikating** obyektidir.⁸

2. O‘zbek tilining murakkab dialektal tarkibi.

O‘zbek tili o‘zining ko‘p shevaliligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turishi haqida ma’lumotni Prof. E.D.Polivanov o‘zining “O‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek adabiy tili” nomli asarida (1933) XIX asrning birinchi choragidayoq ma’lumot bergen edi. Keyingi tadqiqotlar buni tasdiqlagan. Uning tub sabablari bir necha omillarga bog‘liqdir. O‘zbek tili dialektal kartasining rang-barangligini uning etnogenezisidan qidirish lozimligini prof. V.V.Reshetov uqtirib o‘tgan. Turkiy urug‘ va qabilalar miqdori ancha ko‘p bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma’limotlar tariximizga oid adabiyotlarda uchraydi. Ular ichida o‘zbek tili va uning shevalari shakllanishida qarluq, chigil, uyg‘ur, qipchoq, urug‘lari, qangli, qatag‘on urug‘ va qabilalari birlashmalarining tarixiy taraqqiyoti katta o‘rin tutadi.

Qadimgi urug‘ va qabilalar tilining turli hududlarda alohida-alohida mustaqil yashashlari o‘zbek tili dialektal o‘ziga xosligi muhim ahamiyat kasb etdi. Hududiy mustaqilligi, ijtimoiy hayot tarzi, kasb-kori, etnografik xususiyatlari ularning tilida aks etmay qolmas edi va bu holat tilda umumiyligini saqlab qolgan holda, boshqa hududlarda yashovchi o‘zbeklar tilidan ko‘pgina xususiyatlari bilan farqlanishiga olib kelgan, bu esa shevaning o‘ziga xosligini keltirib chiqargan. Sheva va dialekt xususiyatlarining tobora qat’iylashishiga aholi hududlarining bir-biridan uzoq joylashishi muhim o‘rin tutadi. Shu tariqa bir til ichida turli shevalarning shakllanishiga olib kelgan. Tarixchi olim K. Shoniyofovning ko‘rsatishicha, qarluqlar va ularga qon-qardosh bo‘lgan chigil, xalaj qabilalari Ile daryosi havzasida, Sirdaryoning janubiy oqimlari, Isfijobda va Farg‘ona vohasiga tarqalgan keng hududlarida yashaganlar. Turgesh qabilalari ittifoqi Yettisuvni egallagan. 766-yilda bu hududlar qarluqlar tomonidan ishg‘ol qilingan. IX-X asrlarda o‘g‘uzlar Sirdaryoning

⁸ S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, 2011-yil

quyi va o‘rta havzalarini hamda Orol bo‘ylarini ishg‘ol qilgan. Qipchoq qabilalari esa, asosan, Oltoy o‘lkasida, Irtish bo‘ylarida yashaganlar va keyinchalik ular Sibir, Gurjiston, Volga, Dunay daryolari bo‘ylari hamda Markaziy Osiyoga tarqalganlar.

Sheva va dialektlarning kuchli farqlanib qolganligiga o‘zbek tili boshqa tillardan ajralib mustaqil taraqqiy eta boshlagan davrdan boshlab, unga turkiy va eroniy tillarning kuchli ta’siri ham sabab bo‘lgan. Jumladan, Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalariga qoraqalpoq va qozoq tillarining, Toshhovuz o‘zbek shevalariga (Xorazm shevalariga) turkman tilining, shimoliy o‘zbek shevalariga qozoq tilining, Qirg‘izistondagi o‘zbek shevalariga qirg‘iz tilining, Samarqand, Buxoro, Namangan, Sariosiyo va Tojikistondagi o‘zbek shevalariga tojik tilining ta’siri kuchlidir. Shu tufayli bu shevalar boshqa shevalardan farq qiladi va o‘ziga xoslikni yaratadi.

Xulosa qilib aytilganda, o‘zbek tili yirik uchta lahjani qamrab olgan, lekin har bir lahja orasiga ba’zan qat’iy chegara qo‘yib bo‘lmaydi, ya’ni aksariyat shevalar ayni bir til qonuniyatlariga amal qilishi mumkin, masalan, singarmonizm har uchala lahjada uchraydi, shuningdek, unlilarning birlamchi cho‘ziqliklari qarluq va o‘g‘uz lahjalarida ham qayd qilinadi.

3.O‘zbek dialektologiyasining tilshunoslik va boshqa fanlarga aloqadorligi

O‘zbek shevashunoslige tilshunoslik fanlaridan biri qatorda, avvalo, “**Hozirgi o‘zbek adabiy tili**” fani nazariy asoslariga tayanadi. Shuningdek, “**Qadimgi turkiy til**”, “**O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi**”, “**O‘zbek adabiy tili tarixi**”, ”**Tilshunoslik nazariyasi**” fanlari uchun ham nazariy, ham amaliy man’ba vazifasini bajaradi. To‘g‘ri, tilshunoslikning bu fanlari o‘quv rejalarida keyingi kurslardan joy olgan, demak, bu fanlar bo‘yicha nazariy, amaliy ma’lumotlarni olish o‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha tegishli mavzularni mustaqil tayyorlash jarayonida, ulardan qo‘srimcha ma’lumotlar olish davrimobaynida o‘rganiladi.

“O‘zbek dialektologiyasi” **geografiya** fani bilan uzviy aloqador, ya’ni har bir sheva haqida ma’lumot to‘planganda, shu sheva vakillari joylashgan hududning ko‘lami, aholining miqdori, shu hudud iqlimi va boshqa ma’lumotlar ham to‘planadi, ya’ni geografik muhitni ham yoritiladi. Shuningdek, o‘zbek dialektologiyasi **o‘zbek xalqi tarixi, adabiyoti, etnografiyası, san’ati** fanlarining ma’lumotlariga ham tayanadi va ular uchun boy manba beradi.⁹

O‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi uchun “O‘zbek dialektologiyasi” fani ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan fandir. Bu fan bo‘yicha olingan nazariy bilimlar keyingi kurslarda o‘tiladigan fanlarga nazariy asos bo‘lib xizmat qilsa, ayni paytda, til va adabiyot o‘qituvchilarini

⁹ S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, 2011-yil

o‘zbek shevashunosligi bilimlari bilan qurollantirib, o‘z faoliyatida dialektal xatolar ustida ishlash uchun amaliy ahamiyat ham kasb etadi, ya’ni o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqida uchraydigan dialektal xatolarning manbalarini belgilab, ularni tuzatishga yordam beradi.

4. O‘zbek shevalarini o‘rganish uslublari.

Hozirga qadar O‘zbek shevalari o‘zbek adabiy tiliga qiyosan o‘rganib kelindi va bunda **tavsifiy va qiyosiy** usullardan foydalanilgan. Bu usullarda shevalarning fonetik, leksik va morfologik xususiyatlari keng miqyosda o‘rganildi hamda boy material to‘plandi. O‘zbek shevalarini o‘rganishda XIX asrning oxirlarida paydo bo‘lgan **qiyosiy - tarixiy metod**dan ham foydalanilgan.¹⁰ Bu metodga ko‘ra o‘zbek shevalari materiallari “Devonu lug‘atit turk”, “Qutadg‘u biling”, Alisher Navoiy asarlari tili va boshqa til tarixi manbalari tiliga qiyoslab o‘rganib borilgan, lekin bu metod asosiy metod hisoblangan emas, balki tahlil talab o‘rinlardagina va ayrim til tarixiga oid maqola va asarlarda uchrab turadi. Shuningdek, o‘zbek dialektlari fonematik tizimini sistem usullar orqali o‘rganish ham tajriba qilindi. Jumladan, o‘zbek tilidagi til birliklarini **invariant - variant munosabatida o‘rganish** jarayonida o‘zbek shevalari fonologik tizimi ham sistem jihatdan tahlil qilingan ishlar yuzaga kelmoqda.¹¹

Takrorlash uchun savollar:

1. Sheva, dialect deb nimaga ataladi?
2. O‘zbek shevalarining murakkab tarkibi qaysi omillar bilan bog‘langan?
3. O‘zbek shevalari qaysi metodlar bilan o‘rganilgan?
4. O‘zbek dialektologiyasi fani qaysi fanlar bilan o‘zaro bog‘langan?

Tayanch tushunchalar:

O‘zbek dialektologiyasi [Uzbek dialectology] - o‘zbek shevalarini ilmiy ravishda o‘rganadigan fan.

Sheva [pronunciation, accent, dialect] - o‘zbek tilining kichik hududlardagi aloqa vositasi.

Lahja [dialect] - shakllanishi jihatidan umumiylari ega bo‘lgan dialektlar jami.

¹⁰т S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, 2011-yil

¹¹.Nabiyeva D. A. O‘zbek tilida lisoniy birliklarning invariant - variant munosabati. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati., T. 1998

Qarluq - chigil - uyg‘ur lahjası [Karluk - chigil - uygur dialect] - o‘zbek tilining shu nomlar bilan ataladigan urug‘ - qabila ittifoqi negizida shakllangan sheva va dialektlar to‘dasi.

Qipchoq lahjası [Kipchok dialect] - o‘zbek tilining qipchoq urug‘ va qabilalari negizida shakllangan sheva va dialektlar to‘dasi.

O‘g‘uz lahjası [Uguz dialect] - o‘zbek tilining o‘g‘uz urug‘ va qabilalari negizida shakllangan sheva va dialektlar to‘dasi.

Tavsifiy (sinxron) metod[descriptive method] - shevaning hozirgi holatini yozib olish metodi.

Qiyosiy - tarixiy metod [comparative historical method] - tillarni ham tarixiy taraqqiyot, ham boshqa yondosh tillarga qiyoslab o‘rganish metodi, bu metoddan shevalarni o‘rganishda ham foydalilanadi.¹²

TRANSKRIPSIYA. TRANSKRIPSIYA VA UNING TURLARI

REJA:

1. Transkripsiyaning dialektlarni o‘rganishdagi ahamiyati.
2. Transkripsiya turlari.
3. Transkripsion va diakritik belgilar.

Transkripsiya haqida umumiy ma’lumot. Transkripsiya dialekt va shevalarda uchraydigan tovushlarning turli ko‘rinishlarini yozuvda ifodalash uchun qo‘llanadigan ma’lum belgilar sistemasidir. Til tovushlarini aniq ifodalash uchun xizmat qiladigan yozuv - transkripsiya (lotincha transcriptio - qayta yozish) deb ataladi.¹³

Transkripsiya uchun u yoki bu xalq iste’molidagi (lotin - rus -o‘zbek alfaviti kabi) traditsion alfavitdan o‘rni bilan ma’lum o‘zgarishlar kiritish orqali foydalilanadi. Shuning uchun ham transkripsiyyada belgilar soni o‘ziga asos bo‘lgan alfavitdagi harflar sonidan ko‘p bo‘ladi.

Transkripsiyaning fonetik, fonematik yoki fonologik transkripsiya kabi turlari bor.

Transliteratsiya. Muayyan tilning yozma yodgorliklari yoki muayyan matn (masalan, arab alifbosida yozilgan eski o‘zbek tilining yodgorliklari) nashr etilganda bu yodgorliklarning yozuv

¹² S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, 2011-yil

¹³ .B.To‘ychiev, B.Hasanov. “O‘zbek dialektologiyasi”. Toshkent. 2004-yil

tizimini boshqa til yoki yodgorlik yozuvi orqali ifodalash deyiladi. Demak, transliteratsiya - biror yozuv harflarini boshqa bir yozuv harflari bilan almashtirib ifodalash usulidir.

FONETIK VA FONOLOGIK TRANSKRIPSIYA

Turli sohalarda ma'lum maqsadda qo'llaniladigan transkripsiyalarning aniqlik darajasi bir xil emas. Lingvistik asarlar (qiyosiy va tarixiy grammatikalar, etimologik lug'atlar, turli til matnlaridan namunalar va shu kabilalar)ni nashr etganda transliteratsiyadan foydalanilsa ham, qardosh tillarning fonetikasi qiyos qilinganda, dialektologik ishlarda va dialektologiya fanida fonetik transkripsiyanidan foydalaniladi.¹⁴ Xalq og'zaki ijodiyoti yodgorliklarini nashr etganda mavjud alfavitdan foydalanilsa, bu yodgorliklar shevaviy qimmatini yo'qotadi. Shuning uchun ularning talaffuz xususiyatlarini imkon qadar saqlab qolish uchun fonetik transkripsiyanidan foydalaniladi. Transkripsiya chet tili va ona tili orfografiyasida ham keng qo'llaniladi. Aslida, eng aniq transkripsiya fonetik transkripsiyadir. Bu transkripsiya umumiyligi xususiy fonetika, shuningdek, eksperimental fonetika yutuqlariga asoslanadi. Agar tillardagi nutq tovushlarini fonetik transkripsiya uchun tanlangan alifbo orqali ifodalash mumkin bo'lmasa, boshqa tillar alifbosidan harflar olinadi yoki harflar yoniga, ustiga, ichiga diakritik belgilarni qo'yiladi.

Fonetik transkripsiyaning vazifasi - tilda mavjud bo'lgan hamma tovushlarni yozuvda aks ettirishdir. Faqat fonemalarnigina hisobga olish uchun ishlatiladigan transkripsiya - fonologik transkripsiya deyiladi.¹⁵

Transkripsiyaning tuzilishi. Tilshunoslikda keng qo'llaniladigan lotin alifbosiga asoslangan transkripsiya Xalqaro fonetik alifbo (Mejdunarodiniy foneticheskiy alfavit – TIV) deb ataladi. Rus grafikasi asosidagi transkripsiya turkiy va rus olimlarining asarlarida keng tarqalgan. Lekin o'zbek tili sheva va shevalarini o'rgangan turkolog va o'zbek olimlari o'z ilmiy ishlarida turli transkripsiya belgilardan foydalanganlar. Ba'zilari lotin alifbosidan (E.D. Polivanov asarlarida), ba'zilari rus grafikasi asosidagi transkripsiyalardan foydalanganlar (qarang: A.K. Borovkov, V.V. Reshetov). Dialektlarda uchraydigan har bir tovushni ifodalash uchun transkripsiyada ba'zi belgilarni olish kerak. Ammo shuni aytish kerakki, mavjud transkripsiya sistemalari bu talabga to'liq javob bera olmaydi. Masalan, ng va dj mustaqil fonemalarining ikki harf bilan berilishi kabi.

Transkripcion va diakritik belgilarni

¹⁴. T.Enazarov va b. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent.2012-yil

¹⁵. S.Ashirboyev. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent, 2011-yil

Transkripsiyada Unlilarning turli variantlarini berish uchun 15 ta belgi olingan. Bu belgilar orqali o‘zbek lahja va shevalarida uchraydigan unli fonemalarni ifodalash mumkin. Ba’zi transkripsiya belgilarining ma’nosidagi farqlar Unli tovushlar uchun belgilar quyidagi ma’no farqlari bilan qabul qilingan:

a - orqa qator , umumturkiy, singarmonizmni saqlagan barcha o‘zbek lahja va shevalariga xos unli: ата, вакт, ҳамът, singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda esa turli o‘zgaliklarga ega. Baynalminal so‘zlarda rus tilidagi **a** tovushiga mos keladi.

ə - oldingi qator, lablanmagan a unlisi; o‘zbek lahja va shevalarining ko‘pchiligidagi uchraydi, masalan, Marg‘., And. ə k ə // Tosh. ɔ k e, Qo‘qon. b ə l ə kabi.

ɔ – orqa qator, lablanmagan ochiq unli tovush. U ko‘pincha shahar va shahar atrofidagi shevalarda uchraydi: дўн, нўн, ҷаъ, бўлә, мўшъиң.

e – oldingi qator, lablanmagan, tor unli tovush bo‘lib o‘zbek shevalarining ko‘pchiligiga xos. O‘zining akustik (eshitilish) va artikulatsion xususiyatlariga ko‘ra rus tilidagi undoshdan keyin keladigan e yoki so‘z boshida keladigan ə harfi bilan ifoda etiladigan сено (pichan), эти (bular) so‘zlaridagi kabi tovushga to‘g‘ri keladi. Bu tovush mavjud o‘zbek orfografiyasida so‘z boshida keladigan yolashtagan unli ye (y+e) emas, balki еди (-edъ) so‘zidagi kabi yolashtagan unlidir, shahar va shahar tipidagi shevalarda uchraydi: кел, бедә, терәк, ендъ, ечкъ, тескәръ, керәк.

ɛ – til old qator, lablanmagan, ochiq [e]unlisi. Bu fonema ohangdoshlik xususiyatiga ega bo‘lgan shevalarda qo‘llaniladi: eshik, echki, elək, etək , mergən.

€ – old qator unli , lablanmagan [e] unlisining ochiq varianti. Bu esa [e] va [ə] o‘rtasidagi bir tovush bo‘lib, Xorazmda gel, get, gerək , Namanganda neməsъ, bələq‘, qetig‘ tarzida aytildi.

и - odatdagи turkiy oldingi qator, lablanmagan и unlisi.

Singarmonistik shevalarda fonema sifatida, singarmonizmni yo‘qotgan o-lovchi shevalarda esa turli fonetik sharoitlardagina uchraydi.

ъ - indifferent lablanmagan tovush, u o‘zining kelib chiqishi jihatidan oldingi qator и va orqa qator ы unlilarning konvergensiyasi (birlashishi) natijasida hosil bo‘lgan; и va ы o‘rtasidagi bu indifferent tovush shahar shevalarida va shahar tipidagi qishloq shevalarining ko‘p qismida mustaqil fonema sifatida Toshk., Qo‘qon, And., Marg., va shu kabi shevalarda: къшъ, ъккъ, въз, въл // ad.-orf. kishi, ikki biz, bil kabi.

ъ - turg‘un orqa qator indifferent i unlisi; ammo ы tovushga teng emas. Shahar shevalarida va shahar tipidagi shevalarda chuqur til orqa q, g‘, x tovushlari bilan yondosh kelganda uchraydi, masalan, Toshkent, Marg‘ilon, Andijon va shu kabi shevalarda: qъz, qъrq, qъsh, g‘ъsh (t), тъх; Turkiston shevasida bu tovush Toshkent, Farg‘ona shevalaridagi i kabi.

у – orqa qator, lablangan unli. Turkiy tillarda mustaqil fonema sanaladi. Bu unli o‘zbek xalq shevalarining hammasida ishlataladi. tumshuq, ulug‘, quyruq, murun.

ү – til oldi qator, lablangan unli. U ohangdoshlik qonuni saqlangan o‘zbek xalq shevalarida uchraydi. К ү л, Г ү л, Ү ч ү н, Ү ч, П ү л.

ө – til orqa qator, lablangan unli fonema. Barcha shevalarda mustaqil holatda qo‘llaniladi. oraq, qolynы , quoyp, bir ming yuz on somga qoy өлды.

ө – til old qator, lablangan unli. Bu ham ohangdosh o‘zbek shevalarida ishlataladi. Көл, бөлә, бөлим, көр, көз, гөр, көмър.

UNDOSH TOVUSHLAR

Ilmiy yozuv (transkripsiya)da b, d, z, m, n, p, r, s, t, sh (б, д, з, м, н, п, р, с, т, ш) undoshlari o‘zi holicha ishlataladi. Qolgan belgilar esa quyidagilardir:

w –лаб-лаб ; [в] lab-tish undoshi uchrab qolsa, uni alohida izohlash kerak. Вўх, Ҷвқат.

й - ruscha [y] tovushiga nisbatan torroq talaffuz qilinadigan tovush: йәвҷн, әйә, пәйшҶмъ.

ғ - chuqur til orqa, sirg‘aluvchi tovush: қулғ, ғ‘айнъ, ғәм. Г - sayoz til orqa, portlovchi tovush. гөз, гул.

ж - sirg‘aluvchi undosh: аждар, журнал. Ж yoki дж - qorishiq undosh: жол ёки джол.

қ - chuqur til orqa , portlovchi tovush: қой, қайчы. Қ - sayoz til orqa, portlovchi tovush: көръм, көч.

л - til orqa: алтын, ләлә. Л - тил олди, юмшоқ: к ү л, кел.

ң - til orqa, burun tovushi: ишиң , мәңә қара.

Փ - lab-lab va lab-tish: туф,пуф. Ч - qorishiq tovush: чәй, ъчек.

ҳ - chuqur til orqa, sirg‘aluvchi tovush: хамыр, Ҳәлмат. Ҳ - bo‘g‘iz tovushi: ҳамма , әвҳәл.

Diakritik belgilar va boshqa shartli belgilar

. (nuqta) , : (ikki nuqta) va ... (ko‘p nuqta) belgidan keyin qo‘yilib, unlilarning cho‘ziqligini ifodalaydi.

, - lenis , r ning yoniga qo‘yilib (r‘) talaffuzda portlashni ifodalaydi.

r – asper, r ning yoniga qo‘yilib (r), spirantizatsiyani, ya’ni shu tovushning sirg‘aluvchi ekanligini ifodalaydi.

/ - akut, belgining o‘ng tomoniga qo‘yilib, (l), palatalazatsiya (yumshalishini) ko‘rsatadi.

> belgisi – o‘tish hodisasini ko‘rsatadi. < belgisi – o‘zgarish hodisasini ko‘rsatadi.

|| belgisi – tovushlarning almashinishi va ikki faktning parallel qo‘llanishini ko‘rsatadi.

() qavs – shart bo‘limgan , tushib qoladigan elementni ko‘rsatadi.

[] o‘rta qavs – umumiy matndan transkripsiya qilingan so‘zlarni ajratib ko‘rsatish uchun ishlataladi.¹⁶

O‘ZBEK TILINING DIALEKTAL TIZIMI

Reja:

1.Turkiy tillar tasnifi: akademik V.V.Radlov, A.N.Samoylovich, F.E.Korsh, Bogorodiskiy va boshqalar tomonidan qilingan tasniflar.

2.I.I.Zarubin, Ser Ali Lapin, Y.D.Polivanov, G‘ozi Olim, A.K.Borovkov, K.K.Yudaxin, V.V. Reshetov tasniflari.

3. O‘zbek dialektologiyasining XX asrning 60-yillardan so‘nggi yutuqlari.

Tayanch tushunchalar:

Etnik-lingvistik tasniflar, etno-genetik tasniflar, territorial-lingvistik tasniflar; o-lashish masalalari, o-lovchi va a-lovchi shevalar, y-lovchi va j-lovchi shevalar; eronlashgan va eronlashmagan shevalar; maksimal eronlashish, lokalizatsiya labial, lab garmoniyasi, tanglay garmoniyasi, laqaylar, metisatsiya va gibridizatsiya, umlautli shevalar, o‘zbek-qipchoq lahjasi, qorluq lahjasi, o‘g‘uz lahjasi, qirq shevasi, qozoq-naymanlar, cho‘ziq unlilar, undoshlar assimilyatsiyasi, turkiy komponent, progressiv va refessiv assimilyatsiya.

¹⁶ T.J.Enazarov va boshqalar. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent. “Universitet”. 2012.

Turkiy tillarning genetikasi, til xususiyati jihatidan o‘zaro munosabati masalasiga olimlar juda qadimdan qiziqib kelganlar. Mahmud Koshg‘ariy turkiy tillarni (aniqrog‘i turkiy qabilalarni) birinchi bo‘lib tasnif qilgan olim. Turkiy tillar tasnifi bilan qiziqish XIX asr oxiri va XX asrlarda qaytadan boshlandi va ko‘pdan ko‘p tasniflar vujudga keldi. Bu tasnif metodlari, oldiga qo‘ygan vazifalari, maqsadlari ham turlichadir. Ulardan ba’zilari murakkab puxta o‘rganilgan va ishlangan tasniflar bo‘lsa, ayrimlari u yoki bu jihatdan kamchiliklardan xoli emasdир.¹⁷

Turkiy tillarni asosan V.V. Radlov o‘zining “Shimoliy Turkiston tillarining fonetikasi” (1882-1883) degan asarida, tasnif qiladi. U turkiy tillarni shunday guruhlashtiradi:

1. Sharqiy guruh (oltoy, barabarin, Ob, Yenisey turklarining tillari). Bu guruhga kirgan tillarning xarakterli xususiyatlari quyidagjicha:

1) [o] unlisi o‘zidan so‘nggi tor unliga juda kuchli ta’sir ko‘rsatadi;

2) So‘z o‘zaklarining boshida jarangsiz undoshlarning mavjud bo‘lishi:

bash > pash kabi;

3) Jarangsiz **sh**, **t** undoshlardan keyin unli tovush bilan boshlanadigan qo‘sishchalar qo‘silib kelganda, bu undoshlar jaranglashadi: Masalan, oyrot tilida tish+i- tiji, tut +ar - tudar;

4) So‘z oxirida kelgan jarangsiz portlovchi p, q, k undoshlari unlidan oldin jaranglashadi;

5) [l] tovushi qattiq va yumshoqlikda farqlanadi.

2. G‘arbiy guruh (G‘arbiy Sibir tatarlarining tili, qirg‘iz, qozoq, boshqird, Povolje tatarlarining tillari).

3. O‘rta Osiyo guruhi (Yorkent, Chig‘atoy tili, Shimoliy o‘zbek shevasi, Qo‘qon shevasi, Zarafshon vodiysidagi o‘zbek shevalari, Buxoro va Xiva shevasi).

4. Janubiy guruh (turkman, ozarbayjon, turk (usmonli) va qrim-tatarlari tili, deb, to‘rt guruhga bo‘ladi. Shunday qilib, o‘zbek shevalarini V.V.Radlov birinchi bo‘lib tasnif qilgan olim hisoblanadi. O‘zbek shevalari uning tasnifiga ko‘ra olti guruhga bo‘linadi. Chig‘atoy, Shimoliy o‘zbek, Qo‘qon, Zarafshon vodiysi, Buxoro, Xiva guruhlari. V.V. Radlov o‘zining tasnifida o‘zbek shevalarini guruhlarga bo‘lib ko‘rsatgan bo‘lsa ham, ularning xos xarakterli xususiyatlari, bir-biridan farqi haqida ma’lumot bermaydi.

¹⁷ Murodova N. O‘zbek adabiy tili va shevalar leksikasining qiyosiy tadqiqi.- Toshkent. Fan. 2005

V.A. Bogorodiskiy tasnifi

Hozirgi turkiy tillarni geografik joylashuvi va fonetik xususiyatlarni hisobga olib V.A.Bogorodiskiy 1921-yilda 7 guruhga bo‘lgan. Keyinchalik 1934-yilda u o‘zining ushbu tasnifiga aniqliklar kiritib, uni to‘ldirib quyidagicha taqdim etdi.

1. Shimoliy-sharqiy guruh: yoqut, karagas, tuva tillari.
2. Xakas va abakan guruhi. Xakas tili, abakan lahjasi, sagay, koybal, kachin, qizil shevalari, minusin tatarlari tili.
3. Oltoy guruhi. Bunga oltoy (shor) tili o‘z shevalari bilan kiritilgan.
4. G‘arbiy Sibir guruhi: chulim, ishim, tyumeng‘ tatarlari tili.
5. Volga bo‘yi va Ural guruhi: tatar va boshqird tillari.
6. O‘rta Osiyo guruhi: uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz, o‘zbek, qoraqalpoq tillari.
7. Janubiy-g‘arbiy guruh: turkman, ozarbayjon, qumuq, gagauz, turk tillari va chuvash tili, qorachoy va bolqar tillari.

F.E.Korsh tasnifi

F.E. Korsh o‘zining “Klassifikatsiya tyurkskix plemen po yazikam” asarida turkiy tillarni fonetik xususiyatlaridan tashqari, morfologik xususiyatlarni ham hisobga olib quyidagicha tasnif qilgan.

1. Shimoliy guruh: qirg‘iz, qozoq, qumiq, no‘g‘oy, qorachoy, oltoy, Volga tatarlari, Shimoliy kavkaz tatarlarining tillari.
2. G‘arbiy guruh: ozarbayjon, turkman, turk, gagauz, qirim tatarlari tillari.
3. Sharqiy guruh: O‘rxun-Enisiy yodgorliklari yozushi tili, eski uyg‘ur tili, chig‘otoy, qipchoq (poleves) kabi o‘lik tillar va jonli tillardan karagas va xakas tillari.
4. Aralash guruh: Bu guruhga yoqut va chuvash tillari va O‘rta Osiyodagi ba’zi tillar kiradi. Bu tillarning har biri o‘ziga xos tasnif belgilarga egadir.¹⁸

N.A.Baskakov tasnifi

¹⁸. Murodova N. O‘zbek adabiy tili va shevalar leksikasining qiyosiy tadqiqi.- Toshkent. Fan. 2005

H.A.Baskakov turkiy tillarning tasnifini yaratishda faqat har bir turkiy tilning fonetik, grammatik, leksik xususiyatinigina hisobga olib qolmasdan, har bir turkiy xalqning tarixiy shakllanishi jarayoni, uning etnik genezisiga ham alohida e'tibor beradi.

I.Fonetik xususiyatlar asos qilib olingan tasniflar (V.V.Radlov tasnifi).

2.Fonetik-morfologik xususiyatlar asos qilib olingan tasniflar (F.E.Korsh, A.N.Samoylovich).

3.Til xususiyatlaridan tashqari, genetik aloqalar ham hisobga olingan tasniflar (I.Bentsing, K. Menges).

4.Turkiy tillarda gapiruvchi xalqlarning geografik joylashuvi asos qilib olingan tasniflar (V.A. Bogorodiskiy tasnifi).

Ser Ali Lapin tasnifi

V.V.Radlovdan ancha keyin, o'tgan asrning 90-yillarida Ser Ali Lapin "Sart so'zining kelib chiqishi va ma'nosi haqida" degan ishida o'zbek adabiy tili bilan bir qatorda to'rtta o'zbek dialekti borligi to'fisida ma'lumot bermaydi.

1. Sirdaryo viloyati dialekti.
2. Farg'onona viloyati dialekti.
3. Amudaryo bo'limi va Xiva xonligi dialekti.
4. Samarqand viloyati va Buxoro xonligi dialekti.

Ser Ali Lapin tasnifida ham o'zbek dialektlarining fonetik sistemasi, grammatik qurilishi va leksik boyligi haqida hech qanday ma'lumot keltirilmaydi. Uning bu tasnifi o'z davriga nisbatan ma'lum qimmatga ega bo'lgan.

2. O'zbek shevalarining tasnifi: Y.D.Polivanov, G'ozi Olim, A.K.Borovkov, K.K.Yudaxin va V.V.Reshetov tasniflari.

Ma'lumki, hozirgi o'zbek adabiy tili hozirgi bosqichga qadar uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Ular urug' va qabila bo'lib yashagach, asta-sekin xalqqa aylangan. Shunga ko'ra, ularning tillari ham turli rivojlanish yo'llarini boshidan kechirgan va o'zgargan, takomillashgan, takomillashgan va rivojlangan. Ana shu tilning taraqqiyoti, ularning tarkibi va guruhlarga bo'linishi qadimgi davrlardanoq olimlar diqqat-e'tiborida bo'lgan. Masalan, Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit-turk" nomli asarida keng hududda hayot kechirgan urug'- qabila va ular tillarning

bir-biriga bo‘lgan munosabatini, ularning tillardagi yaqinlik va farqlarni differensatsiya (ajralish) va integratsiya (qo‘silish) kabi masalalarni aniqlagan. Ushbu asarda yigirmaga yaqin turkiy tilning qiyosiy lug‘atini beradi. Ularni fonetik, morfologik, leksik tomondan tasnif qiladi. Keyinchalik Alisher Navoiy “Muhokamatul-lug‘atayin” asarida, Zahiriddin Bobur “Boburnoma”sida, Mirza Maxdixon “Sangloh” asarida, Abulg‘ozzi Bahodirxon “Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” asarlarida o‘zbek tili va dialektologiyasining tarixiga doir boy meros qoldirgan, lekin o‘zbek xalq shevalari, urug‘-qabila tillarini maxsus tasnif qilmaganlar. Mahmud Koshg‘ariydan keyin o‘zbek xalq shevalarini o‘rganishga qiziqish masalalari XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab paydo bo‘la boshladi. Akademik V.V.Radlov, Ser Ali Lapin, V.Nalivkin kabi olimlarning ishlari bunga misol bo‘la oladi.

XX asrning boshlariga kelib ayniqsa, 1917-yildan so‘nggi davrda Professorlar I.I.Zarubin, Y.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, G‘ozzi Olim Yunusov, V.V. Reshetov kabi olimlarning o‘zbek shevalarini o‘rganish va uni guruhlashtirishda juda katta ishlari diqqatga sazavordir.

I.I. Zarubin tasnifi

Professor I.I. Zarubin o‘zbek shevalarini to‘rt guruhga bo‘lib tasnif qiladi: 1) Xiva; 2) Farg‘ona; 3) Toshkent; 4) Samarqand- Buxoro shevalari.

I.I. Zarubinning bu tasnifida o‘zbek shevalari orasida katta o‘rin tutgan hozirgi O‘zbekistonning anchagini hududiga tarqalgan qipchoq- j-lovchi shevalar va shimoliy o‘zbek shevalari hisobga olinmagan.

K.K. Yudaxin tasnifi

K.K.Yudaxin o‘zbek shevalari tasnifining ikki variantini tavsija etadi: U o‘zining dastlabki variantida o‘zbek shevalarining tojik tili bilan bo‘lgan munosabati va singarmonizmni saqlash darajasiga qarab, to‘rt guruhga ajratadi.

- 1) asl turkiy tovush tarkibi va singarmonizmni saqlagan o‘zbek shevalari;
- 2) o‘z tovush tarkibini qisman o‘zgartirgan, singarmonizmni yo‘qotgan shevalar;
- 3) eron tillari oilasiga mansub unlilar tarkibini saqlagan shevalar;
- 4) o‘zbek va tojik tillarida so‘zlashadigan tojik shevalari (Samarqand, Buxoro kabi shaharlarda).

Keyinchalik, K.K.Yudaxin o‘zbek shevalarini o‘ziga xos xususiyatlari bilan mufassal tanishib, avvalgi tasnifiga tegishli aniqliklar kiritdi va o‘zbek shevalarini besh guruhga bo‘ldi: Toshkent, Farg‘ona, Qipchoq, Xiva (Xiva-o‘g‘uz) va shimoliy o‘zbek shevalari.¹⁹

E.D. Polivanov tasnifi

E.D.Polivanov tomonidan bir qator o‘zbek shevalari va dialektlari o‘rganib chiqildi va shu asosda shevalarning mukammal tasnifi berildi. Y.. Polivanov o‘z tasnifida tildagi ikki holatni ko‘zda tutdi:

1)metisatsiya (qardosh tillarning chatishuvi); 2)gibrizatsiya (turli tizimdagi tillarning chatishuvi). U shevalarda uchraydigan barcha fonetik o‘zgarishlarni hisobga olib, o‘zbek shevalarini bir necha guruhga bo‘ldi. Eronlashish nuqtayi nazaridan, ya’ni ba’zi o‘zbek shevalarining tiklanish protsessida tojik tilining ishtirokini hisobga olib shevalarni quyidagicha guruhliashtirdi.

1. Eronlashmagan shevalar.

2. Eronlashgan shevalar.

Eronlashmagan shevalarga o‘zbek-qipchoq (J-lovchi) lahjasida giva Farg‘onaning singarmonizmli qishloq shevalarini (Saroy, Andijon, Yo‘lguzar, Mankent) kiritadi.

Toshkent, Qo‘qon-Marg‘ilon, Andijon-Shahrixon tilidagi shevalarda eronlashish elementlarining mavjudligini qayd qilsa, Buxoro, Samarqand, Xo‘jand, O‘ratepa tipidagi shevalarni maksimal eronlashgan, ya’ni tojik vokalizmini o‘zida to‘la aks ettirgan shevalar deb hisoblaydi.

Eronlashgan va eronlashmagan shevalar o‘rtasida eronlashishning kuchsizlanishi, gibrizatsiya protsessida turkiy elementlarning kuchsizlanishiga ko‘ra eronlashgan shevalarni to‘rt tipga ajratdi.

1-tip. Samarqand-Buxoro shevalari.

2-tip. Toshkent tipidagi shevalar (Toshkent va uning atrofidagi tuman shevalari).

3-tip. Qo‘qon- Marg‘ilon tipidagi shevalar.

4-tip. Andijon-Shahrixon tipidagi shevalar va shu tipga uyg‘urlashgan yoki umlautli shevalar ham kiritilgan. (Namangan va unga yaqin Chortoq, Uychi, Shohand shevalari).

¹⁹. Murodova N. O`zbek adabiy tili va shevalar leksikasining qiyosiy tadqiqi.- Toshkent. Fan. 2005

E.D. Polivanov tasnifiga ko‘ra ikkinchi dialekt “o‘g‘uz lahjasi” bo‘lib, o‘z ichiga ikki tip shevani oladi. 1-tip. Janubiy Xorazm guruh shevalari (Xiva, Yangi Urganch, Shovot, G‘azovot, Xazorasp, Yangi Ariq, Xonqa shevalari); shu guruhga Sho‘raxon shevasi alohida bir tip sifatida kiritilgan.

2-tip. Shimoliy o‘g‘uz guruh shevalari. (Iqon- Qorabuloq shevalari) Shu guruhga Forish tumanidagi Bog‘dot shevasi ham kiritilgan.

“Qipchoq lahjasi” uchinchi dialekt bo‘lib, bu yetti tip shevani o‘z ichiga oladi.

1-tip. O‘rtta Xorazm va Shimoliy Xorazm; (Gurlan, Bog‘ot, Shoabboz, Xo‘jayli, Qipchoq, Qo‘ng‘iroq, Mang‘it tumanlari shevalari).

2-tip. O-lovchi tip; (Qozoq-Nayman, Farg‘ona Qoraqalpoqlari).

3-tip. Qurama shevalari; Ohangaron vodiysidagi qurama shevalari.

4- tip. Shimoliy o‘zbek shevalari; Turkistondagi So‘zoq, Chalaqo‘rg‘on qishloq shevalari.

5-tip. O‘rtta o‘zbek; Qirq shevalari va janubiy o‘zbek-laqay shevalari va Afg‘onistonidagi qipchoq o‘zbeklari ham shu guruhga kiradi.

E.D.Polivanov o‘zining bir qator ishlarida o‘zbek shevalarining tasnifi hali mukammal emasligini qayd qilib, o‘zbek tilshunosligi shevalarning detallashtiruvchi tasnifga zarur deb ko‘rsatadi. Y.D. Polivanovning ayrim nazariy xulosalari to‘g‘ri emas, chunki u o‘z tasnifida va boshqa tadqiqot ishlarida o‘zbek shevalaridagi taraqqiyotni faqat faktorga bog‘lab tekshiradi. O‘zbek tili va uning shevalarida ro‘y bergan o‘zgarishlar tilning asrlar mobaynida o‘z ichki taraqqiyot jarayonining natijasi ekanligini ko‘rmaydi. Lekin uning yozib olgan daliliy materiallari, ayrim til hodisalariga bergan sharhlar juda aniq va hech qanday e’tiroz tug‘dirmaydi. Bu jihatdan Y.D.Polivanovning o‘zbek shevalarini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘p ishlari o‘zining sifati va ilmiylici bilan ajralib turadi. Uning ishlari hozirgi kunda ham o‘zbek shevalarini o‘rganishga katta yordam bermoqda.²⁰

G‘ozi Olim Yunusov tasnifi

Professor G‘ozi Olim Yunusov o‘zi to‘plagan juda boy daliliy materiallarga suyangan holda 1936-yili, Y.D. Polivanov tasnifidan keyin 1936- yilda nashr etilgan “O‘zbek

²⁰. B.To‘ychiboyev, B.Hasanov. “O‘zbek dialektologiyasi”. Toshkent. 2004-yil

lahjalarining tasnifida bir tajriba” nomli asarida o‘zbek shevalarini uch katta guruhga bo‘lib tasnif qildi va shu asosda tasnif holatini ham berdi.

1. O‘zbek-qipchoq lahjasi.2. Turk-Barlos lahjasi. 3. Xiva-Urganch yoki o‘g‘uz lahjasi.
 - 1.O‘zbek-qipchoq lahjasi. Bu lahjaga O‘zbekistonning Ohangaron, Mirzacho‘l, Samarqand, Zarafshon, Buxoro, Farg‘ona vodiysi, Qashqadaryo, Surxondaryo va boshqa hududlarda yashovchi j-lashgan shevalarning hammasi kiradi. O‘zbek-qipchoq lahjasi to‘rt shevaga: Qirq, Jaloyir-laqay, Qipchoq, Gurlan.
 2. Turk-barlos lahjasi. Bunga hamma shahar va shahar tipidagi shevalarni: Toshkent, Qo‘qon, Namangan, Andijon, Marg‘ilon shaharlari va bu shaharlarning atrofida yashovchi o‘zbek shevalari kiritiladi. Bu lahja vakillari Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Zarafshon vodiysining yuqori qismi, Chimkent, Sayram, O‘sh, O‘zgan shaharlari va uning atroflarida yashovchi o‘zbeklar shevalari ham shu lahjaga kiritilgan.
- G‘ozi Olim bu lahjaning asosiy til xususiyatlarini hisobga olib, to‘rt guruhga bo‘ladi.
 1. Sayram-Chimkent shevasi. Bu lahja o‘z ichiga Xiva, Xonqa, G‘azovot, Shohobod, Kat, Toshovuz, Eski Urganch, Yangi Urganch, Hazorasp, To‘rtko‘lda yashovchi o‘zbek shevalarini oladi. Bu shevaning o‘ziga xos xususiyatlari alohida berilmagan.
 2. Toshkent-Xos shevasi. Bu shevaning asosiy xususiyatlari: tushum kelishigi qo‘srimchasi -t bilan tugagan so‘zlardan keyin -ti:tti. Shuningdek, bu qo‘srimcha so‘z oxirida assimilatsiyaga uchrab, oldidagi undoshga moslashadi: biz-bizzi, istak fe’li yasovchi -luk: kelayluk. Hozirgi zamon davom fe’li qo‘srimchasi - votti. Shart fe’lining ko‘pligi (1 shaxs) -vuz, -miz, 2 shaxs -yiz: bilsayiz. 1 shaxs o‘tgan zamon fe’lining ko‘pligi - miza, -miz, -vuza, -vuz. 2 shaxs -i:z orqali yasaladi.
 3. Andijon shevasi. Bu shevaning asosiy xususiyati tushum kelishigi qushimchasi -nъ, -ni dan tashqari -tъ, -ti, -dъ, -di, tarzida keladi. Hozirgi zamon davom fe’li -yap, -yep, orqali yasaladi.
 - 4.Namangan shevasi. Bu shevaning asosiy xususiyati hozirgi zamon davom fe’li qo‘srimchasi -ut: kelutg‘man, bo‘lishmizi: kelmuttg‘man. Bu tasnif ham o‘zbek dialektologiyasi tarixida ancha yaxshi ishlangan. Tasniflardan biri bo‘lib hisoblanadi. Lekin bu tasnifda o‘zbek shevalarining asosiy xususiyatlari to‘la qamrab olinmagan, shevalarning lingistik farqlarini ko‘rsatuvchi

belgilar berilmagan. Shuning uchun ham bu tasnifni olimlar o‘z vaqtida tanqid qilgan (I.A.Batmanov tomonidan).²¹

A.K.Borovkov tasnifi

A.K.Borovkov o‘zbek xalq shevalarini o‘rganishda o‘z hissasini qo‘shib, xizmat qilgan olimlardan biri hisoblanadi. U o‘zbek shevalarini ikki marta tasnif qilgan. Olimning birinchi tasnifi 1940-yil “O‘zbek adabiyoti va san’ati” jurnalida “O noviy uzbekskom alfavite” degan maqolasida e’lon qilingan. A.K. Borovkov bu tasnifida o‘zbek xalq shevalarini fonetik tomonidan ikki guruhgaga bo‘lib ko‘rsatadi.

- 1) o-lashgan shevalar;
- 2) a-lashgan shevalar.

O-lashgan guruh shevasiga shahar shevalari va ular atrofidagi tuman shevalarini kiritdi (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Kattaqo‘rg‘on, Andijon, Qo‘qon, Marg‘ilon, Qarshi, Jizzax).

A-lashgan guruh shevalariga esa singarmonizmni saqlagan shevalar kiritildi. Bu guruh o‘zbek shevalari -y-lash va j-lash xususiyatlariga ko‘ra ikkiga ajratiladi:

- 1) y-lovchi shevalar;
- 2) j-lovchi shevalar.

O‘zbek dialekt va shevalarini guruhlashtirishda A.K. Borovkovning bu tasnifi haligacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Lekin unda ham ba’zi kamchiliklar yo‘q emas.

A.K.Borovkovning ikkinchi tasnifi 1953-yil O‘zFA axborotlarining 5-sonida e’lon qilingan. Bu tasnif birinchi tasnifga nisbatan beqiyos darajada yaxshi tuzilgan. Chunki bunda o‘zbek xalq shevalarining tarixiy taraqqiyotini fonetik, leksik, morfologik xususiyatlari hisobga olingan. Ana shularga ko‘ra o‘zbek xalq shevalarini 4 katta guruhgaga bo‘lib ko‘rsatgan:

1.O‘rta o‘zbek dialekti. Bu dialektga 2 guruh sheva kiritilgan:

a) O‘rta O‘zbekiston shevasi (Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg‘ona tipidagi shevalar); unililar miqdori 6-7 tadan iborat. So‘zlarning birinchi va keyingi bo‘g‘inlarida ochiq o fonemasi ishlatiladi.

²¹. T.J.Enazarov va boshqalar. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent. “Universitet”. 2012.

b) Shimoliy o‘zbek shevasi (Chimkent, Sayram, Jambul, Marki va Janubiy Qozog‘istonning ba’zi bir o‘zbek shevalari). Unlilar 8 ta fonemadan iborat. Bu guruh shevalarda o o‘rnida a qo‘llanadi.

2.Shayboniy-o‘zbek yoki j-lovchi dialekt. Bunga hamma j-lashgan shevalar kiradi. Bu shevalarda unlilar 8-9 ta.

3.Janubiy Xorazm dialekti. Bunga Xonqa, Hazorasp, Shovot, Yangiariq, G‘ azovot, Sho‘raxon va unga yondosh bo‘lgan shevalar kiritilgan. Bu shevalarda unlilar soni 9 ta.

4.Alohida guruh shevalar. Bunga yuqoridan 3 ta guruhga kirmagan shevalar (Qorabuloq, Ikon, Mankent, Bog‘don) va “umlaul” (Namangan) shevalari kiritilgan.

Bu tasnif o‘zbek dialektologiyasi tarixida eng yaxshi tasniflardan biridir.

V.V. Reshetov tasnifi

V.V. Reshetov o‘zbek shevalarining tarixiy lingvistik xususiyatlarini va ayrim dialektlarga qardosh tillar (tojik, qozoq, qoraqalpoq, turkman) munosabatini hisobga olgan holda o‘zbek shevalarining tasnif sistemasini tuzdi. O‘zbek xalqi tarkibida tarixiy-lingvistik jihatdan bir-biridan ajraladigan (farq qiladigan) uch dialekt birligi mavjud (bu birlik o‘zbek, qozoq, uyg‘ur, turkman, qoraqalpoqlar sostavidagi turk qabilalarining aralashuvi tufayli ham paydo bo‘lgan).

Bu dialekt birliklari o‘z navbatida o‘zbek tili tarkibida uch lahjani, ya’ni qipchoq, o‘g‘uz, qorluq-chigil-uyg‘ur lahjalarini vujudga keltirdi. Bular hozirgi kunda ham o‘zbek tilining alohida lahjasи sifatida davom etib kelmoqda. Demak, o‘zbek tili uch turkiy komponentining birikishi natijasida vujudga kelgan:

1.Qorluq-chigil-uyg‘ur lahjasи hozirgi qardosh uyg‘ur tiliga yaqin bo‘lib, tojik tili bilan yaqin etnolingvistik munosabatda bo‘lgan.

2.Qipchoq lahjasи qardosh qozoq va qoraqalpoq tillari bilan yaqin.

3.O‘g‘uz lahjasи qardosh turkman tili bilan yaqin.

V.V. Reshetov o‘zining tasnifida har bir lahjaning o‘ziga xos tor dialektal xususiyatlari borligi ularni o‘rganish o‘zbek dialektologiyasining asosiy vazifalardan ekanini va bu shevalarning paydo bo‘lishi va rivojini o‘rganishga yordam berishini alohida ta’kidlab o‘tadi. Bu uch lahjaning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat.

O‘zbek tilining qorluq-chigil-uyg‘ur lajasi. Bu lajaga Toshkent, Namangan, Andijon, Farg‘ona, Samarqand-Buxoro, Qarshi, Termiz, Jizzax, Kattaqo‘rg‘on kabi shahar va shahar tipidagi boshqa shevalar kiritiladi.

Uning asosiy spetsifik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ch/t ning almashinishi chishla, tushti // chushtъ kabi.
- O‘zak va affikslarda so‘z oxiridagi k-q // g-g‘ undoshlarining saqlanishi: bundoq//bundog‘.
- Turli holatda ham k //x undoshlarining almashinishi, saqlanishi: toqqsan// toxsan.
- l //n undoshlarning almashinishi: koynek//koylek // koyney.
- To‘liq progressiv assimilyatsiya: tuzzi < tuzni, toshshi<toshni.
- Uyg‘ur tilining asosiy fonetik xususiyatlaridan biri “umlaut” bo‘lib, birinchi bo‘g‘inda kelgan quyi ko‘tarilish a /e unlilarining ikkinchi bo‘g‘inda kelgan yuqori ko‘tarilish u unlisi ta’sirida o‘tishidir.
- Qorluq-chigil-uyg‘ur lajhasiga kirgan ko‘pchilik shevalarda qaratqich va tushum kelishigi qo‘sishchasing bitta: -ni, -ti, -di, -li, -shi variantlari bilan kelishidir, otni min < otti min, uning daftari < uni daptari.

V.V. Reshetov tasnidida qorluq-chigil-uyg‘ur lajasi quyidagi guruha bo‘lingan.

- Farg‘ona guruhi: Namangan dialekti; Andijon-Shahrixon dialekti; O‘sh-O‘zgan dialekti; Marg‘ilon-Qo‘qon dialekti.
- Toshkent guruhi: Toshkent dialekti; Jizzax dialekti.
- Qarshi guruhi: Qarshi dialekti; Samarqand-Buxoro dialekti.
- Shimoliy o‘zbek guruhi: Iqon-Qorabuloq dialekti; Turkiston-Chimkent dialekti.

Y.Jumanazarov Hazorasp shevasining morfologik xususiyatlarini Honqa, Qirq, Toshkent shevalari, turkman tili va eski o‘zbek tili bilan qiyosan tahlil etadi. Masalan, mazkur shevada hozirgi zamon fe’li *geryat“rman* tarzida ifodalansa, Toshkent shevasida esa *korvamman* tarzida aytildi. Yoki Hazorasp shevasida kelasi zamon fe’li *aljaqman* turkman tilida *men aljaq* tarzida ifodalanadi.²²

⁴Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. -Т.: Ўқитувчи, 1996. -14 б.

Xorazm shevalarini maxsus tadqiq etgan F.Abdullayev turkiy tillarning tasnifida ham, aniq bir tilning shevalarini tasnif qilishda ham yolg‘iz leksik materialga asoslanish kutilgan natijani bermasligini, faqat tilning boshqa yaruslari(fonetika, morfologiya, sintaksis) bo‘yicha to‘plangan materiallar bilan birligida ilmiy jihatdan ishonarli biror xulosaga kelish mumkin bo‘ladi, degan fikrni ilgari suradi. Olim bu fikrni turkiy tillar bo‘yicha A.N.Baskakov tasnifiga e’tiroz bildirib aytadi. Ma’lumki, A.N.Baskakov turkiy tillarni, asosan, leksik xususiyatlarini hisobga olib tasnif etgan.

F.Abdullayev o‘g‘uz lajhasingin leksikasini ozarbajjon va turkman tili, qipchoq lajhasi va o‘zbek adabiy tili bilan qiyosiy tarzda o‘rganadi. O‘rni bilan eski o‘zbek adabiy tili manbalariga ham murojaat etadi. Xorazm shevalarida *arbyig‘* (pok, toza), *oram* (ko‘cha), *kelk* (ot-ulov), *tuñ* (mis ko‘za) kabi so‘zlar eski o‘zbek adabiy tili yodgorliklari tilida mavjudligini ayтиб o‘tadi. Olim o‘g‘uz lajhasingiga oid qirqdan ortiq baliq turlarining nomini aniqlagan, shulardan faqat besh-oltitasigina o‘zbek adabiy tilida mavjudligini ta’kidlaydi. Tadqiqotda baliq nomlarining yigirma beshtasining nomi va izohi qayd etilgan. Shuningdek, ishda baliq ovi bilan bevosita bog‘liq o‘g‘uz shevasiga oid leksik birliklar ham tahlil etilgan.

F.Abdullayev turkiy tillar leksikasini tarixiy-qiyosiy aspektida o‘rganish, birinchi navbatda, urug‘dosh tillar bo‘yicha, ayniqsa, jonli shevalar bo‘yicha mukammalroq faktik materiallar to‘plash lozim, deb hisoblaydi. Tadqiqotiga qarindosh-urug‘ nomlari (*əkiz* — egizak; *bəvək* — chaqaloq kabi); uzvlar nomi (*ərn* — lab; *bag‘ır* — jigar; *bur’t//mur’t* — mo‘ylov kabi), odam va uning hayoti, tirikchiligi bilan bog‘liq so‘z-terminlar (*alchaq* — chaqqon, qobiliyatli, uddaburo; *ig* — og‘riq; *idə* — jiyda kabi) lug‘atini ilova qiladi.

⁵ Гози Олим Юнусов. Ўзбек лаҳжаларининг таснифида бир тажриба. –Т.: Ўздавнашр, 1935. (лотин алифбосида).

⁶ Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Т.: Ўқитувчи, 1978.

⁷ Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. –Т.: Фан, 1978; Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. –Т.: Фан, 1964.

⁸ Жуманазаров Ю. Хазорасп шевасининг морфологик хусусиятлар. –Т.: Фан, 1961.

⁹ Ишаев А. Қоракалпогистондаги ўзбек шевалари. –Т.: Фан, 1977.

¹⁰ Аҳмедов А. Ўзбек адабий тили тарихида ўғуз унсур ва кўринишларинин қўлланиши: Филол. фан. ном.

... дис. автореф. –Самарқанд: СамДУ, 2006. -26 б.

¹¹ Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. –Т: Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси, 2004. - Б. 99-109; Мирзаев М. Ўзбек тилининг Бухоро шеваси. –Т.: Фан, 1969 –Б. 21-27; Шамсуддинов И. Қорқўл шеваси лексикаси // Ўзбек шевалари лексикаси. –Т.: Фан, 1966. –Б. 430-439 ва бошк.

¹² Гози Олим Юнусов. Ўзбек лаҳжаларининг таснифида бир тажриба. –Т.: Ўздавнашр, 1935. (лотин алифбосида). -Б. 22.

¹³ Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Т.: Ўқитувчи, 1978. – Б. 42.

¹⁴ Жуманазаров Ю. Хазорасп шевасининг морфологик хусусиятлар. –Т.: Фан, 1961. –Б. 28.

A.Ahmedov “O‘zbek adabiy tili tarixida o‘g‘uz unsur va ko‘rinishlarining qo‘llanishi” tadqiqotida *o‘g‘uz unsur (element)lari* va *o‘g‘uz ko‘rinishi* terminlarini qo‘llaydi va bu terminlar ifodalaydigan tushunchalarga izoh beradi. Uning fikricha, *o‘g‘uz unsur (element)lari* turkiy tillarning tipologik xususiyatlariga ko‘ra o‘g‘uz guruhiga xos bo‘lgan, biroq o‘zbek adabiy tilida shu ko‘rinishda me’yorlashgan hodisadir. *O‘g‘uz ko‘rinishi* esa o‘zbek yozma manbalarida me’yoriy qarluqcha shakllar bilan yonma-yon o‘g‘uzcha lisoniy hodisalarning qo‘llanishidir. Unsur va ko‘rinish kat’iy tarixiy tushuncha bo‘lib, ma’lum bir davrda ko‘rinish bo‘lgan hodisa boshqa bir davrda unsur bo‘lishi mumkin yoki ma’lum bir davrda unsur bo‘lgan hodisa boshqa bir davrda ko‘rinish bo‘lishi mumkin. Jumladan, *demoq* o‘g‘uzcha unsuri XIII-XVIII asrlarda o‘g‘uzcha ko‘rinish edi, hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun esa bu o‘g‘uzcha unsur mavqeyini egalladi.¹⁵

Ma’lumki, F.Abdullayevning “XV asr o‘zbek adabiy tilining dialektal asoslari masalalari” asarida o‘zbek adabiy tilida o‘g‘uz ko‘rinishlarining saqlanishiga asosiy sabablardan biri aruzga asoslangan o‘zbek nazmining vazn va qofiya talablari ekanligi qayd etilgan. A.Ahmedov ana shu fikrga asoslanib o‘zbek yozma yodgorliklari tilidagi o‘g‘uz unsur va ko‘rinishlarini tahlil etadi va XV-XIX asr o‘zbek nazmida o‘g‘uz unsur va ko‘rinishlari, asosan, vazn va qofiya talablari asosida qo‘llanilgan, degan xulosani beradi¹⁶.

Tadqiqotlarda o‘g‘uz lahjasi va shevasining eng muhim fonetik xususiyatlari sifatida quyidagilar ifodalangan: 1) juft unlilar mavjud, *i* (til oldi) va *u* (til orqa), *e* (til oldi) va *o* (til orqa), *a* (til orqa) va *ə* (til oldi) mustaqil fonemalardir; 2) qisqa va cho‘ziq unlilar farqlanadi, ularning miqdori o‘n etti- o‘n sakkizta: *at* — *a:t*, *ot* — *o:t* kabi; 3) so‘z boshida *t* va *k* tovushlari jaranglashadi: *dil* (til), *gel* (kel) kabi; 4) singarmonizmning uch qonuniyati ham amal qiladi; 5) “bo‘l” fe’lining boshidagi *b* tovushi tushib qoladi; 6) sonor *m* fonemasi o‘rnida *b* fonemasi bo‘ladi: *men* — *ben*, *ming* — *bing* kabi; 7) ayrim so‘zlarda portlovchi, jarangli *b* tovushi o‘rnida sirg‘aluvchi, jarangli *v* tovushi qo‘llaniladi: *bor* — *var*, *ber* — *ver* kabi; 8) tor unlilardan oldin til o‘rtaloy tovushitushib qoladi: *yil* — *il*, *yilon* — *ilon* kabi va h.k.

O‘g‘uz lahjasi va shevasining eng muhim morfologik xususiyatlari sifatida esa quyidagilar ifodalangan: 1) kelasi zamon shakli *-jak* / *-jək* qo‘shimchasi bilan ifodalanadi; 2) istak fe’li shakli *-li* qo‘shimchasi bilan ifodalanadi; 3) qaratqich kelishigi qo‘shimchasi undosh bilan tugagan so‘zlardan keyin *-ыиҳ* // *-иҳ* shaklida ishlataladi: *qolыиҳ* (qo‘lning), *gөmiriҳ* (ko‘mirning) kabi; 4) jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi *-a* / *-ə*, *-na* / *nə* shakllari bilan qo‘llaniladi: *qolыма* (qo‘limga), *gөmira* (ko‘mirga), *yuzinə* (yuziga) kabi; 5) sanoq sonlarda geminastiya yo‘q: *iki* (ikki), *sakiz* (sakkiz) kabi va boshqalar.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘g‘uz tillari (yoki G‘arbiy turk tillari) va shevalarining o‘zbek adabiy tilining shakllanishi hamda taraqqiyotidagi o‘rnini to‘g‘ri

baholash, ularning muhim til xususiyatlarini tadqiq etish, o‘g‘uz shevalari materiallarini to‘plash, izohlash, yangi o‘zbek adabiy tili davri va hozirgi o‘zbek adabiy tilida mazkur sheva elementlarining qo‘llanish sabablarini tahlil etish o‘zbek tilshunosligi oldidagi muhim vazifalardan biridir.

XALQ SHEVALARI FONETIKASI

Reja:

1.Xalq shevalaridagi unli fonemalar va ularning qisqacha tavsifi.

2.Xalq shevalaridagi undosh fonemalar va ularning qisqacha tavsifi.

Xalq shevalarini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish uchun uning unlilar tuzilishini bilish juda zarurdir. Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasida unli tovush uyg‘unligi yoki ohangdoshlik (singarmonizm) hodisasi juda kam uchraydi. Shuning uchun ham ulardagagi unlilar miqdori ko‘p emas , ular 6 – 8 tadan oshmaydi.

Jumladan Toshkent shevasida 6 ta unli bor : Ҷ, Ҷ , е , ə , у, о.

Namangan shevasida 8 ta : Ҷ , ə , Ҷ , а , о , у , е , .

Marg‘ilon shevasida 7 ta unli bor : Ҷ , ə , Ҷ , а , о , у , е .

Qipchoq shevalarida 10 ta unli fonema qo‘llaniladi: а-ә , о-ө , у-ү, ы-и , Ҷ - е

Bu shevalarda unlilar ohangdoshligi saqlangan.

Unli fonemalar tasnifini quyidagi sxemada ko‘rishimiz mumkin:

Tilning ko‘tarilish o‘rniga ko‘ra		Til oldi		Til orqa	
Lablar ishtirokiga ko‘ra		Lablanmagan	Lablan	lablanmag an	Lablangan
Tilning ko‘tarilish darajasiga ko‘ra	Yuqori ko‘tarilish (tor)	И yoki Ѓ	Y	Ы yoki Ъ	Ү
	O‘rta ko‘tarilish (yarim tor)	E,Ә ,Ը	Ө		О

	Quyi ko‘tarilish (keng)	Ә		A	ң
--	----------------------------	---	--	---	---

Ko‘rinadiki, sxemadagi 12 katakchadan faqat ikkitasi bo‘sh qolgan, bular o‘rtalikko‘tarilish, lablanmagan orqa qator va quyi ko‘tarilish, lablangan old qator unlilar katakchasi. Haqiqatan ham, o‘rtalikko‘tarilish, til orqa lablanmagan va quyi ko‘tarilish, til oldi lablangan unlilar mustaqil fonema sifatida bizga ma’lum bo‘lgan o‘zbek shevalarida yo‘q.

Unli fonemalar tavsifi

ъ fonemasi til oldi, lablanmagan qisqa unli fonema bo‘lib , quyidagi so‘zlarda uchraydi :

1. Til oldi undoshlaridan oldin bir bo‘g‘inli so‘zlarning boshida kelganda: ъч, ъш, ъл.
2. Yopiq bo‘g‘inli so‘zlarda: съз, бъл, съдра, сър, жъзә.
3. Til orqa undosh fonemalar g va k bilan yonma-yon kelganda: кър , кътб , къшкънә.
4. Jarangsiz undoshlardan so‘ng kelganda: чъqtъ , ъshtъ , kettъ , ottъ , yettъ.

и fonemasi til oldi , lablanmagan unli bo‘lib, ohangdosh o‘zbek shevalarida mustaqil holda qo‘llaniladigan yumshoq unli fonemadir: Тиш, кийим, китер v.h.

ы fonemasi til orqa , lablanmagan qattiq unli bo‘lib , barcha turkiy tillarda uchraydi. Uning til oldi va yumshoq varianti И fonemasidir. Bu unli fonema ham ohangdosh o‘zbek shevalarida asosiy fonema sifatida ishlatiladi. Masalan : atasының алдыга bardы, qachan жирып ketti.

U fonemasi tor , til orqa lablangan unli fonema bo‘lib, so‘zning har bir bo‘g‘inida kelishi mumkin:

1. So‘zning birinchi bo‘g‘inida : suvsh , usmən , ulər , shuvq.
2. So‘zning ikkinchi bo‘g‘inida : nɔvut , ulug‘.

e fonemasi lablanmagan tor unli fonema bo‘lib, tilning o‘rtalik qismida hosil qilinadi: ketъrdъ, tepə, hech, keldъ, telpək, tekshъrdъ.

So‘zning boshida kelganda , Ә unlisiga yaqin talaffuz etiladi: yetъg, yeshъk, yerкə.

So‘zning oxirida [e] unli fonemasining qo‘llanilishi juda ham chegaralangan bo‘lib, yuklamalarda keladi. Bu xususiyat Toshkeng guruhidagi shevalar uchun xosdir : keld’- de, бўрўзуз- де, ishlaybiz- де. e fonemasi to‘liqsiz fe’l shakllarida kelganda tushib qoladi: yorgøydi-yo‘rg‘a edi , бўг‘лойди-бог‘лар edi, tureydi-turar edi.

E fonemasi til oldi, lablanmagan unli bo‘lib, so‘zlarning birinchi va ikkinchi bo‘g‘inlarida ko‘proq ishlataladi. Lekin so‘zning oxirgi bo‘g‘inida kelmaydi. Masalan : eger, erkən, mehnat ||meynet, eshik, bedə kabi.

Bu fonema boshqa unlilar bilan almashini keladi: E ||Ә: kema - кемә; Toshkent-Toshkən v.h.

O fonemasi yarim tor lablangan unli fonema bo‘lib, tilning orqa qismida hosil bo‘ladi. U so‘zning boshida ko‘proq keladi, oxirida esa qo‘llanmaydi . O‘zbekiston, o‘tip, o‘tkən.

O fonemasi o‘g‘uz shevasida: qoy baqmaqa getgan.

O fonemasi qipchoq shevasida: oraq жоғ‘алып qavdy.

Ә fonemasi til oldi, lablangan unli fonema bo‘lib, qipchoq va o‘g‘uz guruhlari shevalariga xosdir.

Masalan : көзи көрмөйди , бөлим иккига бөлинip ketti, гөр, мөл kabi

Ә fonemasi til oldi, lablanmagan keng unli fonema bo‘lib, u birinchi va so‘nggi bo‘g‘inlarda qo‘llaniladi: әyt, әстə, түввə, pəxtə, pəbrikə .

Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi ochiq **O** bilan aytildigan ba’zi so‘zlar shevalarda ә bilan talaffuz etiladi: әлмә-олма, әдәт-одат, әynə-oyna .

⇨ Fonemasi keng,lablanmagan til orqa unli fonema bo‘lib shevalarda kam o‘zgarishga uchraydi : q’shlɔg‘ , hɔv , mɔv’n , mɔrt .

Shevalardagi ⇨ unlisi quyidagi hollarda qo‘llaniladi :

1.Yopiq bir bo‘g‘inli so‘zlarda:

⇨t, mɔl, bɔsh, mɔy, ⇨ch .

2. Ikki bo‘g‘inli so‘zlarda: g‘ollə , ⇨gəd, qɔzdɔr, ⇨bɔr.

3.Ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning turli bo‘g‘inlarida: bɔzɔr, qirɔtxɔnə, chɔrvɔddɔr, Səmərqən, hisɔvɔt .

4. Lablangan v va b undosh tovushlari bilan yonma-yon kelganda: yivɔrdi, bɔxtim, vɔx, buzɔv, me:mɔn.

5. Ҷ fonemasi til orqa undosh tovushlar hisoblangan q, k, x, g‘ undoshlari bilan yonma-yon kelganda: qishlɔq , ishtirɔk, shund ɔg‘ .
6. Fe'lning harakat nomi shakli, shuningdek, sifatning qiyosiy daraja shakli uchun ham ə unli fonemasi emas, balki Ҷ unlisi qo'llaniladi: ketirmɔq, kelmɔq, durustrɔq, chollamɔq .
7. Shevada aniq hozirgi zamon fe'lining qo'shimchalarida ham Ҷ fonemasi keladi: kevɔtsiz , oqivɔtti , ɔlɔtti.

O'zbek shevalaridagi undosh fonemalar, asosan, adabiy tildagi holatga mos keladi. Unda hozirgi adabiy tildagi f, j undoshlari qo'llanilmaydi, f - p bilan almashinib keladi. F undoshi fors, arab va rus tili orqadi kirib kelgan ba'zi bir so'zlardagina keladi. Qipchoq guruhini tashkil etuvchi shevalarning ayrimlarida x tovushi o'rnila q, boshqa bir xildagi shevalarda esa q undoshi o'rniغا keladi.

Ayrim undosh fonemalarning tavsifi

B fonemasi jarangli undosh tovush bo'lib, labning bir-biriga jipslashuvidan hosil bo'ladi: bizə , boltək, qirbiləq. Bu undoshning boshqa undosh tovushlarga o'tishi ham ko'zga tashlanib turadi:

- a) b > p ga o'tishi: tabib - təyip ; Buxoro - pixɔrə.
- b) b > v ga o'tishi: qobil – q ɔvul; hisobot – hisɔvɔt.
- v) b>m ga o'tishi: buni – muni ; bunga-mungə.

g) so'zning o'rtasida keladigan **b** undosh tovushi **y** tovushiga o'tadi va tabib so'zi teyip deb qo'llanadi.

V lab fonemasi bo'lib, lablarning bir-biriga yaqinlashuvidan hosil bo'ladi. mɔvin , əlpəvit , Qurvɔn.

Shevada v fonemasining g‘ va g o'tishi uchraydi. Quvib–qug‘’p , dev–dig , yuvib–yug‘ip. (qoruq–chigil–uyg‘ur).

G fonemasi yumshoq tanglay bilan til orqa qismining bir-biriga jipslashuvidan hosil bo'ladi. Kerak-kərəg, tik-tig; ba'zan uning aksi bo'ladi: Astagina-stəyinə, tegirmon-tiyirmɔn , menga-menə.

D fonemasi jarangli til oldi undosh tovushi bo'lib, tilning uchi bilan pastki tishning bir-biriga jipslashuvidan paydo bo'ladi. U so'zning har bir o'rnila kelishi mumkin. O'zbek adabiy tilida

so‘zning oxiridagi **д** jarnglisi shevada jarangsizlashib, **т** tovushiga o‘tadi: Nobud–нўвут, sud–сут, Ahmad–Әhmәt, Ziyod–ziyঢt.

Bu jarangli undosh tovushi so‘zning oxirida kelganda, talaffuz etilmasdan tushirib qoldiriladi: **бaland–бәлән**, Samarqand–Сәмәрқән.

Ж fonemasi jarangli undosh tovushi bo‘lib, tilning oldida hosil bo‘ladi va ko‘proq so‘zning boshida hamda o‘rtasida keladi: жүр, тәжрибә, жәмәхәт.

Ј fonemasi esa sirg‘aluvchi undosh tovush bo‘lib, o‘zlashtirilgan so‘zlarda uchraydi: журнәл, әjdәrho, mujdә.

O‘ZBEK SHEVALARIDAGI FONETIK QONUNIYATLAR

REJA:

1. Singarmonizm va umlaut.
2. Kombinator o‘zgarishlar.
3. Pozitsion o‘zgarishlar.

Singarmonizm. Singarmonizm lotincha unlilarning uyg‘unlashuvi demakdir. Taniqli tilshunos I.A.Bogoroditskiyning fikriga ko‘ra, singarmonizm unlilar uyg‘unligi, lekin qisman undoshlarga ham taalluqlidir. Singarmonizm qonuni ikki sifat ko‘rinishiga ega:

1. Lingval yoki palatal (tanglay) singarmonizmi.

Bu qonuniyatga ko‘ra, so‘zning dastlabki bo‘g‘inida old qator unlilar qatnashgan bo‘lsa, keyingi bo‘g‘inlarda ham old qator unlilar ishtirok etadi, so‘zning dastlabki bo‘g‘inida orqa qator unlilar ishtirok etsa, keyingi bo‘g‘inlarda ham orqa qator unlilar qatnashadi.

Bu qonuniyat faqat shahar va shahar tipidagi shevalarda amal qilmaydi, ya’ni so‘zning dastlabki bo‘g‘inida **а, у, о, ы(ъ)** unlilaridan biri qatnashsa, keyingi bo‘g‘inlarda ham shu unlilar keladi va so‘zda **q, g‘, x** chuqur til orqa undoshlari ishtirok qilishi mumkin, aksincha so‘zning dastlabki bo‘g‘inida **ә, е, и(ъ), ө, ү** unlilaridan biri qatnashsa, keyingi bo‘g‘inlarda ham shu unlilar keladi, bunda **k, g** undoshlari kelishi ham mumkin.²³

²³ S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, 2011-yil

Labial singarmonizm. Bu qonuniyat aksariyat turkiy tillarda amal qiladi, ayniqsa, qirg'iz tilining “temir qonuni” hisoblanadi. U o‘zbek tili va uning shevalarida qisman amal qiladi.

Bunga ko‘ra, so‘zning dastlabki bo‘g‘inida old qator lablangan unli ishtirok etsa, keyingi bo‘g‘inlarda ham old qator lablangan unli qatnashadi, aksincha, so‘zning dastlabki bo‘g‘inida lablangan orqa qator unli ishtirok etsa, keyingi bo‘g‘inlarda ham orqa qator lablangan unli qatnashadi.

O‘zbek shevalarida lab ohangi qonuni so‘zlarning dastlabki ikki bo‘g‘inida qayd qilinishi xarakterlidir, uchinchi va to‘rtinchi bo‘g‘inlarda siyrak uchraydi: *syūynchъ*, *koryndъ*. Namangan shevasida *boluptu*, *korypty* va boshqalar.

Labial singarmonizm. Bu qonuniyat aksariyat turkiy tillarda amal qiladi, ayniqsa, qirg‘iz tilining “temir qonuni” hisoblanadi. U o‘zbek tili va uning shevalarida qisman amal qiladi. Bu qonuniyatga ko‘ra, so‘zning dastlabki bo‘g‘inida old qator lablangan unli ishtirok etsa, keyingi bo‘g‘inlarda ham old qator lablangan unli qatnashadi, aksincha, so‘zning dastlabki bo‘g‘inida lablangan orqa qator unli ishtirok etsa, keyingi bo‘g‘inlarda ham orqa qator lablangan unli qatnashadi. O‘zbek shevalarida lab ohangi qonuni so‘zlarning dastlabki ikki bo‘g‘inida qayd qilinishi xarakterlidir, uchinchi va turtinchi bo‘g‘inlarda siyrak uchraydi: *suyunch’*, *kerund’*. Namangan shevasida *boluptu*, *koruptu* va boshqalar.

Shevalarda ayrim yuklamalar, qo‘sishimchalar singarmonizmga bo‘ysunmasligi mumkin, uning o‘ziga xos qonuniyatlarini bor. Singarmonizm qonuniyati ayni zamonda unlilar assimilyatsiyasi deb ham yuritiladi. Umlaut. Bu qonuniyat fanda unlilarning refessiv assimilyatsiyasi deb ham yuritiladi. Bu qonuniyatga ko‘ra affiksdag‘i old qator unlisi asosdag‘i (u aksariyat hollarda bir bo‘ginli bo‘ladi) orqa qator unlisini o‘z xarakteriga moslashtirib oladi. Bu qonuniyat Namangan, O‘sh shevalarida, qisman o‘zbek adabiy tilida qayd qilinadi.²⁴

Shevalarda ayrim yuklamalar, qo‘sishimchalar singarmonizmga bo‘ysunmasligi mumkin. Masalan: qipchoq shevalarida **barag‘ай** (bora qol), **keləg‘ай** (kela qol) –**г‘ай** affiksining varianti bo‘lmaganligi uchun u singarmonizmga bo‘ysunmaydi va h.k. Buning o‘ziga xos qonuniyatlarini bor. Singarmonizm qonuniyati ayni zamonda unlilar assimilyatsiyasi deb ham yuritiladi.

Umlaut. Bu qonuniyat fanda unlilarning regressiv assimilyatsiyasi deb ham yuritiladi.

²⁴S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, 2011-yil

Bu qonuniyatga ko‘ra, affiksdagı old qator unli asosdagi (u aksariyat hollarda bir bo‘g‘inli bo‘ladi) orqa qator unlini o‘z xarakteriga moslashtirib oladi: **son – sənə, йosh – йəshə**.

Bu qonuniyat Namangan, O‘sh shevalarida, qisman o‘zbek adabiy tilida qayd qilinadi. Namangan shevalaridan misollar; **мўл – мәлъм, сўл – сөлъш, нўк – нәкъ, тўй - тәйън**.

Assimilyatsiya. Odatda assimilyatsiya unli va undoshlar tizimida baravar qayd qilinadi, lekin ko‘proq undoshlar bilan bog‘liq fonetik qonuniyatdir. Assimilyatsiya dastlab progressiv va regressiv assimilyatsiyaga, so‘ng to‘liq va to‘liqsiz assimilyatsiyaga bo‘linadi.

Progressiv assimilyatsiyada oldingi tovush keyingi tovushni o‘ziga singdirsa, regressiv assimilyatsiyada keyingi tovush oldingi tovushni o‘ziga o‘xshatadi.

To‘liq assimilyatsiyada o‘zaro bir-biriga singib ketadigan tovushlar tushuniladi. Misollar: **қаршъ** (*Qarshi, Shahrisabz sh.*, ad. orf. *oldi*), **сувиш** (*Toshk.* Ad. orf. *suvni*), **boddъ** (*bo‘ldi - Shahrisabz*). To‘liqsiz assimilyatsiyada tovushlar aynan bir-biriga singmaydi, balki jarangli-jarangsizlik va boshqa holatlarga ko‘ra qisman o‘xshab ketishi mumkin: **oshgan - ɔshkan, ishga || 仗shka**(*Tosh.*), **буздъ**(*bizni//bizning-Toshk. vil. va boshq.*), **өзъмнəн**(o‘zimdan –Xorazm.) To‘liq regressiv assimilyatsiya: **gərgəmmə(n)** (*Xorazm*). **alləs**(*atlas-Samarqand*)

Dissimilyatsiya. **so‘z** tarkibidaga undoshlarning boshqa tovush ta’sirisiz tovush variantiga ega bo‘lishi dissimilyatsiyadir: **zarar - зələr, devor – devɔl, ənjyl - ənjir,**

Sandhi. Bunda ikki so‘zning talaffuzi jarayonida oldinga so‘z nihoyasidagi undosh keyingi (boshlanuvchi so‘z) tovushga moslashadi: **mag‘an ber || mag‘amber** yoki dastlabki so‘zning oxirgi tovushi (keyingi so‘z unli bilan boshlansa) jaranglashadi: **bələk adam II bələgadam, hayron bo‘ldim - həyрɔm bollъm.**

Spirantizatsiya. Nutq jarayonida portlovchi tovushning sirg‘aluvchi variantiga ega bo‘lishi spirantizatsiyadir: **yubordi//djuvərdъ** (qipchoq), **sabr qildi//savъr qvldъ** (Xorazm).

Spontan o‘zgarishlar (jaranglashish). U biror tovush ta’sirida yuz bermaydi, balki shevaning tarixiy rivojlanishi bilan bog‘liqdir: suyak (ad. til) - **сүйәг** (Namangan), *qarg‘a* (ad. til) - **g‘arg‘a** (qipchoq),

Metateza: qipchoq shevalarida: **пәйрəт//faryod, қонши//qo‘shni, қырмысqa** (qumursqa).

Reduksiya: k(ъ)sh(ъ), ket(ъ)vur, Shər(ъ)p

Eliziya: bo:sah(l), be:səh(r).

Unlilarning orttirilishi: qipchoq shev. *ўлаў* (loy), *lapъ* (lof).

Undoshlarning orttirilishi: *haўvan* (ayvon), *dyvchar* (duchor-qipch.), *neўcha* (necha).

Unlilarning birlamchi, ikkilamchi va emfatik cho‘ziqliklari.

Birlamchi cho‘ziqliq. Turkiy tillarning dastlabki davrlarida so‘zlarning birinchi bo‘g‘inida unlilar cho‘ziq talaffuz etilgan. Bunday cho‘ziqlik boshqa tovush ta’sirida yuz bergen emas, balki qadimgi turkiy tilning tabiatini bilan bog‘liqdir. Unlilarning bunday cho‘ziqligi hozirgi Xorazm, Forish va shimoliy o‘zbek shevalarida saqlanib qolgan: *tu:sh*, *a:d*, *ba:sh*, *dy:z*. *du:rъ* va boshqalar. Aslida bu kabi unlilar cho‘ziqligi urg‘uning dastlabki bo‘g‘iniga tushishi xususiyati bilan bog‘langan. Bunday cho‘ziqlik birlamchi cho‘ziqlik deyiladi.²⁵

Ikkilamchi choziqlik. Yondosh kelgan undosh tovushning nutqda talaffuz qilinmasligi natijasida unli tovush cho‘zilishi mumkin: *səndy:*, *o r t ɔ:* (*Toshk.o ‘rtoq*) *bo:(bo‘l)*, *a:* (ol - shim.o‘z. shev.), Namangan shevalarida; *te:məs(tegmas)*, *lə:lə:(laylak*. Bunday cho‘ziqlik ikkilamchi cho‘ziqlik deyiladi.

Uchlamchi cho‘zoqlik. Emfatik cho‘ziqlik hozirgi-kelasi zamon fe’llarida uchraydi, ya’ni bu fe’l shaklida qatnashadigan ravishdosh ko‘rsatkichi - ə va boshqa shakllarda ishtirok etgan ə unlisi odatdagidan ko‘ra cho‘ziq (ikkilangan cho‘ziqlik) talaffuz qilinadi yoki uning bo‘lishsiz shaklida «y» undoshi tushib qolishi ham mumkin va bo‘lishsizlik affiksidiagi ə unlisi ham ikkilangan cho‘ziqlikka ega bo‘ladi: *bъlmə:::ūma::* (*bilmayman*), *bomə:::dъ* (*bo‘lmaydi*), *mə: ətmə:::mə* (*men aytmayman*), *sə: bilmə:::sə:* (*sen bilmaysan*)

Diftonglar. Singarvonizmli shevalarda(qipchoq, o‘g‘uz lahjalari) diftong hodisasi uchraydi. Adabiyotlarda uning ikki turi to‘g‘risida ma’lumot beriladi, ya’ni so‘z boshida va so‘z ichida(o‘rtasida, oxirida) qollanishi aytildi.

O‘zbek shevalarida diftongning qollanishida shunday jarayon yuz beradi: talaffuzda tovush ekskursiyasida boshqa tovush (hozirgi o‘zbek tilida **i**, **y**, **v** unlilari, transkriptsiyada **Ҷ**, **Ҵ**, **Ҹ**) unsurlari qoshiladi va to‘xtam hamda rekursiyada asosiy tovush (unli tovushlardan biri) talaffuzi saqlanadi.

²⁵. S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, 2011-yil

Qipchoq shevalarida bu fonetik hodisa ko‘proq, o‘g‘uz shevalarida kamroq bo‘lsa-da, qo‘llanishda bor: **“ekunchb”**, **“eshkb”**, : **“ekb”**, **“oñap”**. Diftongning ikkinchi turiga ko‘ra, artikulyatsiyada ekskursiya va to‘xtamda asosiy tovush talaffuz etiladi-da, rekursiyada y(transkripsiyada й) tovushi orttiriladi: **tȳsh** (tush), **sȳt** (sut).

O‘zbek shevalarida quyidagi diftonglar qayd qilinadi:

“e” : **“ekb”** (ikki), **“enə”**(ena), **“elyv”** (ellik).

“o” : **“orta”** (o‘rta), **“oñla”** (o‘yla).

“ø” : **“ordək”**(o‘rdak), **“ot”**(o‘tmoq).

“ø” : **“on”** (o‘n), **“oñ”** (uy).

“y” : **“kȳz”** (kuz), **“ȳt”** (kutmoq)

“ı”/“ı̄”: **“tūt”** (titmoq), **“qyl̄z”** (qiz).

Kontrast (juft) unlilar: singarmonizmni saqlagan o‘zbek shevalarida unlilar old qator va orqa qator mavqelarga (pozitsiyalarga) ega bo‘ladi. Ular quyidagilar: **и - ы, ь - ь, θ - ο, γ - γ, а / ɔ - ə**. Bundan faqat **e(e)** unlisigina mustasno.

Tovush mosligi. O‘zbek shevalaridagi so‘zlarni boshqa sheva va adabiy til bilan qiyoslaganda, shunday fonetik holatlar ko‘zga tashlanadiki, bir so‘z ayni ma’nosini saqlagan holda ulardagи ayrim unli yoki undosh tovushlar farq qiladi, lekin u ma’noning mosligiga putur yetkazmaydi: **toppb’** (Toshkent) - **doppb’** (ad.til), **kel** (ad.til) - **gəl** (Xorazm), **tog‘rb** (Toshkent) - **do:rə** (Xorazm), **yo‘l** (Toshk.) – **djo‘l** (qipchoq), **shu** (ad. til)- **sho** (qipchoq), **choy** (ad. til) - **əðü** (qipchoq) **bedənə** (Turkiston) – **bedana** (ad. til) Bu kabi so‘zlardagi t/d, k/g undoshlari mosligi namoyon bo‘ladi. Bu, ayniqsa, arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarda o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi. Arab tilidagi ayn harfi bilan ifoda etiladigan tovush **g‘** undoshiga mos keladi: **səg‘t**, **shəg‘ur** (soat, she’r. Toshk.).

Takrorlash uchun savollar:

- 1.Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasidagi shevalarda qaysi unlilar qatnashgan?
- 2.Qipchoq lahjasidagi unlilar qanday sifatlarga ega?
- 3.O‘g‘uz lahjasidagi unlilarning xususiyatlarini ko‘rsatib bering.
- 4.O‘zbek shevalaridagi unlilar qanday xususiyatlarga ega?

5. Singarmonizm nima, uning qanday turlari bor?

7. Unli va undoshlar bilan bog‘liq yana qanday qonuniyatlarni bilasiz?

8. Unlilar cho‘ziqligining qanday sifat turlari bor?

9. Diftong va diftongoid nima?

10. Kontrast unlilar deganda nimani tushunasiz?

Tayanch tushunchalar:

Vokalizm [vocalizm]- unlilar tizimi.

Konsonantizm[konsonantizm] - undoshlar tizimi..

Fonetik qonuniyat [phonetic laws]- o‘zbek shevalarida amal qiladigan tovush talaffuzi va u bilan bog‘liq holda yuz beradigan fonetik hodisalar.

Singarmonizm [singarmonizm]- unlilar uyg‘unligi.

Lingval singarmonizm[lingual singarmonizm] - old qator va orqa qator unlilar uyg‘unligi.

Assimilyatsiya[assimilation] - unli va undoshlarning o‘xshab ketishi yoki bir-birlariga singishi.

Dissimilyatsiya [dissimilation]-undosh tovushlardagi noo‘xshashlik

Unlilar cho‘ziqligi [length of vowels]- unlilarning boshqa tovush ta’sirida va uning ta’sirisiz cho‘zilishi.

Diftong va diftongoid [diphthong and diphthongoid]- bir tovushda ikkinchi bir tovush ekskursiyasining bo‘lishi.

Kontrast unli [Contrast vowel]- old qator va orqa qator xususiyatlariga ko‘ra zidlangan unlilar.

O‘ZBEK SHEVALARI LEKSIKASI

Reja:

1. O‘zbek shevalarining lug‘at tarkibi.
2. Shevalarga xos bo‘lgan so‘zlarning semantik xususiyatlari.

O‘zbek shevalari o‘zbek tilining mahalliy ko‘rinishi sifatida undagi mavjud bo‘lgan aksariyat qatlamlarni o‘zida birlashtiradi, binobarin, o‘zbek tili lug‘at qatlamlari quyidagacha bo‘ladi:

Umumturkiy so‘zlar

O‘zlashgan so‘zlar: arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar; fors tilidan o‘zlashgan so‘zlar; rus tili va u orqali o‘zlashgan so‘zlar.

O‘zbek tili sharoitida yaratilgan so‘zlar.

Shevalarga xos bo‘lgan so‘zlar.

Umumturkiy so‘zlar aksariyat turkiy tillarda va shevalarda qo‘llanadi hamda ular o‘zbek shevaparida adabiy tildagi talaffuzini saqlashi ham mumkin yoki kuchli va kuchsiz fonetik o‘zgarishga uchrashi ham mumkin. Bunga **yer, suv, esh, ish** va boshqa turli sohalarga oid so‘zlar taalluqlidir. Shevalar lugat tarkibining salmoqli qismini umumturkiy so‘zlar tashkil etadi.

Arab, fors-tojik, rus tilidan o‘zlashgan so‘zlar shevalarda, asosan, fonetik qo‘laylashtirilgan holda iste’molda bo‘ladi. Ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari shuni ko‘rsatadiki, shevalar lugat tarkibida forscha-tojikcha so‘zlar ko‘proq arabcha so‘zlar unga nisbatan kamroq, ruscha-baynalmilal so‘zlar juda kam uchraydi. Bu esa bunday so‘zlarning o‘zlashish jarayoni ko‘proq vaqt talab qilishi bilan boglik ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbek tili tarixiy taraqqiyoti davomida turkiy va turkiy bo‘lmagan til unsurlari negizida yangi so‘zlar ham yasalgan Ularning asosiy qismi boshqa tillarga, lekin yasovchi unsuri o‘zbek tiliga oid bo‘ladi va u yasama so‘z o‘zbek tilidagina qo‘llanadi, masalan, *ishxona, bizneschi, tasvirchi* va boshqalar. Bular, albatta, shevalarda ham ayrim fanetik o‘zgarishlar bilan qo‘llanadi va sheva mulki bo‘lib qoladi. Shevalarga xos bo‘lgan so‘zlarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

a) o‘zbek adabiy tilida uchramaydigan, faqat shevalarda qayd qilinadigan so‘zlar.

Bunday so‘zlar badiiy adabiyotlarda sheva koloritini berish jarayonidagina qo‘llanadi. Bu toifaga aksariyat hollarda qarindosh-urugchilikka oid so‘zlarni kiritish mumkin: *kelin biyi* - kelin oyi, acha-oyi. Shuningdek, boshqa tildan o‘zlashgan so‘zlarning shevada ko‘chma ma’no kasb etishi ham shevaga xos so‘zlarni tashkil etadi: *vejh-narsa, predmet* (aslida vaj- aytilgan so‘z), *zat-narsa* (aslida kelib chiqishi ma’nosida), *kasa-piyola* (aslida *kosa* ovqat qo‘yiladigan idish) va x. o.

b) kuchli fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar: *dbshan-tashqari, yorpeq* -turpoq, kavli-qo‘ngli va boshqalar.

Shevalarda o‘ziga xos ma’no quyidagacha guruhlashtirish mumkin:

a) ayni bir predmet va tushunchalar shevalarda turli so‘zlar bilan yuritiladi: *chaqale* (Tosh) -*buvak* (Farg‘) -*bela* (Shim).

tuxum (Tosh) - *meyek* («J»l) - *yimirta* (Xor). *chumeli* (Tosh) - *morche* (Sam) - *qarindja* (Xor). *chopchey* (Tosh) - *metel* (Sam) - *yertey* (Xor).

b)ayni bir so‘z shevalarda turlicha ma’noga ega bo‘ladi: shetъ-Toshkentda arava qismi nomi, Fargonada narvon; buvi-Toshkentda ota va onaning onasi, Farg‘onada ona ma’nosida; peshsha-Toshkentda chaqmaydigan hashorat, Farg‘ona va shimoliy o‘zbek shevalarida chaqadigan hashorat.

v) narsa va buyumlar ayni bir vazifani bajarsa-da, ularning nimadan yasalganligi va harakat natijasiga ko‘ra turlicha nomlanishi mumkin:

chekich yog‘och va simdan yasalib, urish, yassilash ma’nosini ifoda qiladi (Tosh). - *duki* duk-duk taqlidiy so‘zidan olingan (shim.o‘zb.shev). shuningdeq ayrim sheva vakili ayni bir predmetni boshqa hodisalarga o‘xhatish asosida ifodalashi mumkin: *tuynek* (shim.o‘zb.shev) // *duynyak* (Xor) -*sapcha//chapcha//* (“J”lovchi), bu endigina palakda paydo bo‘lgan, pishmagan qovunni bildiradi. Birinchi so‘z **tugmoq fe’li** tushunchasidan kelib-chiqqan, 2-si esa **sop**, **ushlash** mumkin bo‘lgan predmet tushunchasi bilan bog‘liq. O‘zbek shevalaridagi barcha leksik o‘ziga xosliklarni o‘rganish lug‘at boyligimizni, til imkoniyatlarimizni kengaytirishimizga yordam beradi.²⁶

Tayanch tushunchalar:

Dialektal so‘z - ma’lum shevagagana xos bo‘lgan so‘z.

Shevalarning lug‘at tarkibi - ma’lum bir shevadagi barcha so‘zlar yig‘indisi. **Jargon** - ijtimoiy guruxdarning o‘ziga xos so‘zlari. Masalan, huquq tartibot, savdo xodimlari uchun tushunarli bo‘lgan so‘zlar.

O‘ZBEK SHEVALARI MORFOLOGIYASI

Reja:

1. O‘zbek shevalarida grammatic son va egalik kategoriyasi.
2. O‘zbek shevalarida kelishik kategoriyasi.
3. Fe’l zamonlari, mayllar va uning funksional shakllari.

²⁶ S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, 2011-yil

O‘zbek shevalarining morfologik va sintaktik xususiyatlari haqida to‘la ma’lumot berish qiyin, lekin bu masalalarning eng umumlashadigan, tadqiqot obyektini o‘rganishga asos bo‘ladigan o‘rinlarini ta’kidlash mumkin. O‘zbek adabiy tilidagi so‘z turkumlari, gap bo‘laklari shevalarda alohida xususiyatga ega emas, balki uning ichki kategoriyalari, yozib olingan matnlarning sintaksisi haqida fikr yuritish mumkin.²⁷

Grammatik son kategoriyasi. Sof ko‘plik ma’nosini ifodalashda shevalarda -ler||-lar||-nar||-nar||-ar||-er||-a||-v||-ler||-dar|(-der)||-tar kabi ko‘plik qo‘sishchalar uchraydi. Bu qo‘sishchalar Toshkent, Fargona va Xorazm shevalarida hurmat ma’nosida ham qo‘llanadi.

Toshkent dialekti shevalarida - lug‘ affaksi *oz*, *choy* so‘zlariga qo‘silib ko‘plik, jamlik ma’nolarini anglatgan: *ozlugi* (*o‘zлari*), *choylugi*(*choylari*).

Egalik ko‘sishchalar. Bu kategoriya ma’nolari ham adabiy tildagi ma’nolariga muvofiq keladi. Farq faqat egalik qo‘sishchalarining ko‘p variantli bo‘lishidadir.

I shaxs birlikda: -m, -im, -ъm, -im, -ъsh, -um, - Um.

I shaxs ko‘plikda: -miz, -ъmz(s), -miz, -ъmz(s), -imiz, -ъmz, -imiz, -ъshъv(s).

II shaxs birlikda: -ъn, -in, -ъshg, -ung -¥N,

II shaxs ko‘plikda: -niz, -ngъz(s), -ikъz, -ъngiz(s), -(i) nle, -ъnla.

III.shaxs birlik va ko‘pligida -i, -ъ, -i, -b1, -si, sъ.

Kelishik kategoriyasi. Ma’lumki, turkiy tilning dastlabki taraqqiyot davrida 7 ta kelishik shakli bo‘lgan, hozirgi o‘zbek adabiy tilida 6 ta kelishik shakli qo‘llanadi. O‘zbek shevalarida esa ba’zan bu raqam 4 tagacha tushishi mumkin. Faqat “j” lovchi hamda shimoliy o‘zbek shevalaridagina 6 ta kelishik shakli iste’molda bor. O‘g‘uz, Toshkent, Fargona shevalarida 5 ta kelishik qo‘llanadi, ya’ni qaratqich va tushum kelishiklari bir ko‘rsatkich bilan ifodalanadi. Qarshi, Buxoro, Surxondaryoning “y” lovchi shevalarida 4 ta kelishik qayd qilinadi, ya’ni qaratqich va tushum kelishiklari bitta ko‘rsatkich bilan, jo‘nalish va o‘rin-payt kelishigi bitta ko‘rsatkich bilan ifoda qilinadi. O‘zbek shevalarida kelishik qo‘sishchalarining quyidagi variantlari qayd qilinadi:

Bosh kelishik: ko‘rsatkichi yo‘q

Qaratqich kelishigi: -ning, -nung, -nun, -din, -dъn, -tin, - ыng,-Un,-un.

²⁷ T.J.Enazarov va boshqalar. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent. “Universitet”. 2012.

Tushum kelishigi: -n, -ni, -tъ, -ti, -dъ, -di.

Jo‘nalish kelishigi: - ge, -ke, -qa, -ga; -a, -na, -ne, -ya, -ye.

O‘rin-payt kelishigi: - da, - de, - ta, -te.

Chiqish kelishigi: -den, -dan, -tan, -ten; -nen, -nan; -din, -dъn, -tъn, -tin; -dun, -dUn, -tun, -tUn; “J”lovchi va Xorazm shevalarida egalik va kelishik affikslari o‘rtasida keladigan “n” tovushining kelishi ham kuzatiladi.²⁸

So‘z yasalishida ham o‘ziga xos xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. O‘zbek adabiy tilidagi so‘z yasovchi affikslarning rang-barang fonetik variantlari bilan birga shevalarning bevosita o‘ziga xos yasovchi affikslari mavjud. Ayrim namunalar: -al (Xorazm) -saral (sargay), azal (ozay), -mek(Andijon, Fargona) - kokmek-ko‘kat va boshqalar.

Shevalarda fe’l so‘z turkumini o‘tishda , ayniqsa , ularning zamoniga e’tibor qaratish kerak.

Fe’l zamonlari bilan bog‘liq shakllar

O‘tgan va kelasi zamon fe’llarining hosil qilinishi bo‘yicha shevalar bir-biridan jiddiy farq qilmaydi. Ma’lumki, bunday fe’llar ravishdosh va sifatdosh shakllari va tuslovchi affikslarning qo‘silishidan hosil bo‘ladi. Hozirgi zamon fe’llarida tuslovchi affiksdan oldin qo‘llanadigan zamon ko‘rsatkichlari shevalarda turlicha bo‘ladi. Masalan, bu shaklda Toshkent shevasida - **vet** (keyingi “t” undoshi regressiv assimilyatsiyaga uchraydi), Buxoro shevalarida “j” lovchi shevalarda **-djatъr**, **-vatъr**, Xorazm shevalarida **-yatъr**, Qorabuloq shevasida **-ayt** / **-eyt** (*baraytma: borayotirman, keleytme - kelayotirman*) va boshqalar.

Fe’l zamonlari uchga bo‘linadi :

1.O‘tgan zamon. 2.Hozirgi zamon. 3.Kelasi zamon.

O‘tgan zamon fe’li besh guruhga bo‘linadi:

1. Aniq o‘tgan zamon : ɔpkeldim, këtti.
2. Uzoq o‘tgan zamon : ɔpkelgəmmən, kətkən yedim.
3. O‘tgan zamon hikoya fe’li: ɔpkelib yedim, kətib yedim.
4. O‘tgan zamon davom fe’li: ɔpkelərdim, kətərdim.

²⁸ S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, 2011-yil

5. O‘tgan zamon eshitilganlik fe’li: ɔpkelipti , kətipti.

Kelasi zamon fe’li kən-kan, -d’gən, -digan, -tigən, -dig‘on, -digon, -əsi, -ər, -ur , -ir kabi qo‘shimchalar bilan hosil qilinadi.

Kelasi zamon fe’li ikki turga bo‘linadi:

1.Aniq kelasi zamon fe’li:

- | | |
|------------------|---------------------|
| I. bɔrədigɔmmən | I. bɔrədigɔmmiz |
| II. bɔrədigɔnsən | II. bɔrədigɔnsiza |
| III. bɔrədigɔn | III. bɔrədigɔnsəllə |

2.Kelasi zamon gumon fe’li:

- | | |
|--------------|--------------|
| I. bɔrарman | I. bɔrarmiz |
| II. bɔrarsan | II. bɔrarsiz |
| III. bɔrar | III. bɔrar |

Yasalish – affiksatsiya va kompozitsiya orqali yangi so‘z yasashdir. O‘zbek dialektlarida har ikki usul bilan ham so‘z yasaladi. Masalan, affiksatsiya orqali so‘z yasalishi: Toshk. Suzɔng‘ich (suzag‘on), Farg‘. Qizilcha (qizil lavlagi), Xorazm. Damylzlyq (tomizg‘i) kabi.

Kompozitsiya orqali so‘z yasalishi: Farg‘. Qɔra yalaq (chug‘urchuq), And. Patma chimchiq (jiblajibon) kabi.

O‘zbek shevalarida so‘z yasashda asosiy o‘rinni adabiy tildagidek affiksatsiya usuli tashkil qiladi. O‘zbek shevalarida ot, sifat, fe’l, ravish va boshqa so‘z turkumlari yasovchi affikslardan namunalar:

–ag‘: Xorazm. uyag‘ (uyg‘oq)

–ək: Xorazm. suzək slyg‘yır, dəpək əshək (suzag‘on sigir, tepag‘on eshak)

–vich: Qo‘qon. kɔvlɔvich (kovlagich)²⁹

–g‘ich: Qo‘qon. qistirg‘ich (qistirg‘ich)

–diyn:Xorazm. җındıyn(jinday)

²⁹ S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, 2016-yil

—gir: And. bazərgir (bozorbop)

—van: And. Oraz əkəm sarəyvanlıq qilyəpi (O'roz akam saroybonlik qilyaptı.)

—l : Xorazm. qaral , saral (qoray , sarg‘ay)

Tayanch tushunchalar:

Egalik affikslari - ot va otlashgan so‘zlarning nutkdagi III shaxsdan biriga taapluqligini ko‘rsatuvchi affikslar.

Turlanish - so‘zlarning kelishik affikslarini qabul qilishi.

Tuslanish- fe'llarning shaxs-affikslarini qabul qilishi. *Yasalish* - yangi so‘z yasash jarayoni.

O‘ZBEK SHEVALARI SINTAKSISI

Reja:

1. Shevalarda so‘z birikmasi va izofali birikmalar.

2. Sheva matnlarida gaplarning aks etishi.

O‘zbek shevalarining sintaktik xususiyatlari o‘zbek tilshunosligida etarlicha o‘rganilmagan. Yu. Jumanazarovning o‘guz shevalari sintaktik xususiyatlarini yoritgan monografik tadqiqotidan boshqa jiddiy ishlar hali matbuot yuzini ko‘rgani yo‘q. Avval takidlaganimizdek, o‘zbek shevalarining o‘ziga xos xususiyatlari, asosan, fonetika, leksika va morfologiyyada namoyon bo‘ladi. Sintaksis esa hozirgi adabiy tilning so‘zlashuv shaklini ko‘proq aks ettiradi. Bu ayniqsa, savol-javoblardan iborat matnlarda ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Xalq shevalaridan yozib olingan ertak, lapar va boshqa janrdagi matnlarda ko‘proq adabiy tilga xos bo‘lgan xususiyatlar aks etgan.³⁰

So‘z birikmali. Shevalarda so‘z brikmalarining barcha turlari qayd qilinadi.

Bitishuv: ...desturxonde yetmish xil evtqet tayyar boliptь (Toshk). **Boshqaruv:** Pes-pes tamdin qar yagar (turk)

Moslashuv: Deseyis o‘n atasi baylardin qoluda navcha bob yetken (Qatagan).

Miymannarga **adras korpe** tashladim. (Qatagan). Lekin forsiy va arabiylizofalar kam uchraydi. Bunday iboralar tojik va o‘zbek xalqlari aralash yashagan joylardagi aholi nutqida uchrashi mumkin.

³⁰ S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, 2011-yil

Sheva matnlarida ko‘proq sodda gaplar qo‘llangan. Shunday bo‘lsa-da, sodda gaplarni har doim ham chegaralab olish qiyin. Sheva matnlarida, ayniqsa, gap bo‘laklari inversiyasi ko‘p qayd qilinadi:

Bir kun **biz kelduq hasan djoyiga**. Songra man oturdum choy ichip (Samarq).

Matnlarda qo‘chirma gaplar faol qo‘llangan: Kal ayttiki: **-nime beresan?**

...yetap eytъki komisarge: - **bizler nima gunax qildiq?**

Matnlarda qo‘llangan qo‘shma gaplar ham murakkab xarakterga ega emas: bir kuni bъr tuzeq qoyip otirgan ekan, tuzeqqe bir kette leylek iliniptъ (Toshk). Gaplarda kirish so‘zlar ko‘p qayd qilinadi: **Endi shuytup**, Xesen Qaykm erteden kechkechey mi:nat qър.. (Qatag‘an). Undalmalar qo‘llangan: E, **texsir**, axir bizni bir tъlagъmiz xudaga yetken (Toshk) va ho.

Takrorlash uchun savollar:

1. Shevalarning sintaktik xususiyati deganda nimani tushunasiz?
2. Yozib olingan matnlardan qanday sintaktik hodisalarni qayd qilishingiz mumkin?

Tayanch tushunchalar:

Gap - fikrni ifoda qiluvchi eng kichik til va nutq birligi. *So‘z birikmasi* - ikki mustaqil so‘zning o‘zaro aloqasi. *Bitishuv* - ikki mustaqil so‘zning grammatic ko‘rsatkichlarsiz birikuvi. *Boshqaruв* - hokim so‘zning talabiga ko‘ra tobe so‘zning tushum va vositali kelishiklarda hamda ko‘makchilar bilan qo‘llanishi asosida aloqaga kirishuvi. *Moslashuv* - qaratqich va qaralmish munosabati. *Inversiya* - gap bo‘laklarining odatdaga tartibining buzilishi va uning gap bo‘laklarining gapdagи mavqeyiga ta’sir etmasligi.

QORLUQ-CHIGIL-UYG‘UR LAHJASINING MUHIM XUSUSIYATLARI

REJA:

1. Qorluq lahjasining fonetik xususiyatlari.
2. Qorluq lahjasining leksikasi.
3. Qorluq lahjasining morfologik xususiyatlari.

Qorluq lahjasini bir qancha guruhlarga ajratib ko‘rsatish mumkin.

1. Farg‘ona guruhi - Namangan dialekti (Namangan, Uychi, Chortoq shevalari kirib, ular uyg‘ur tiliga yaqin), Andijon-Shahrixon dialekti (Andijon shahar shevasi, Shahrixon shevasi kiradi), O‘sh- O‘zgan dialekti, Marg‘ilon-Qo‘qon dialekltlarini o‘z ichiga oladi.

2.Toshkent guruhi - Toshkent (Pskent, Parkent, Qoraxitoy shevalari kiradi), Jizzax dialektlarini o‘z ichiga oladi.

3. Qarshi guruhi - Qarshi dialekti (Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘ shevalari) Samarqand-Buxoro dialekti (Samarqand, Buxoro, Xo‘jand, Chust, Koson shevalari)ni o‘z ichiga oladi.

Qorluq lahjasining unlilar tizimi qipchoq va o‘g‘uz lahjalarining unlilar tizimidan birmuncha farqi ko‘zga tashlanadi

Bu unlilarni hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi unlilar bilan qiyoslaydigan bo‘lsak, mazkur shevalarda unlilar adabiy tildagidan kamroq. Chunki hozirgi o‘zbek adabiy tilida xuddi eski o‘zbek tilidagidek 9 unli tovush mavjud. Ammo ular 6 ta harf bilan ifodalanadi.

O‘zbek shevalari undosh tovushlar tizimi jihatidan ham o‘zaro farkutnadi. Chunonchi, Toshkent va Farg‘ona guruh lahjalarda lab- tish f va v, til oldi sirg‘aluvchi j, bo‘g‘iz h undoshlari yo‘q. Bu undoshlar tabiatan o‘ziga yaqin bo‘lgan boshqa tovushlar bilan almashadi: foyda > pəydə, vagon > wagən, sirk > serk, hozir > xazir.

Lab-lab, jarangsiz {p} undoshi so‘zning barcha holatida kela oladi:

paxta / ipak, qap /qop. Farg‘ona lahjasida so‘z o‘rtasida ba’zan jarangiz p undosh jarangli v undoshiga o‘tishi mumkin: Tepa> teve.

Lab-lab, portlovchi, jarangli {b} undoshi adabiy tilda so‘zning barcha holatda kela olgani holda, lahjada so‘z oxirida uchramaydi. So‘z oxirida va so‘z boshida ko‘pincha b > v fonetik jarayoni yuz beradi:

təshbaqa > təshvəqə, ləb > ləv, xəbər > xəvər.

Toshkent, Farg‘ona, Andijon shevalarida b > m fonetik jarayoni mavjud: buni > muni, burun > murun.

Samarqand - Buxoro guruh shevalarda lab-tish [F] tovushi mavjud: aft, hafta, safel.

Toshkent -Farg‘ona guruh shevalarda [F] tovushi[p] tovushiga o‘tadi: kift > kipt, kasofat > kesepet.

Shahar guruh shevalarda lab-lab, sirg‘aluvchi, jarangli [v] undoshi adabiy tildagi ushbu tovushdan deyarli farq qilmaydi: vadж //vadj, savug‘ // savuq, ikov // ikkav.

Lab-lab, burun, sonor M undoshi Toshkent lahjasida ba'zan "v"ga o'tadi: ko'rdimiz > koirdivuz >ko'rduvza.

Andijon shevasida m>n jarayonini ham uchratish mumkin:

Momaguldirek> namaguldirak.

Farg'ona, Andijon, Qo'qon shevalarida m>p fonetik jarayoni mavjud: boryapman >boryeppen, ketyepmen> ketyappan.

Lahjada jarangli [d] undoshi so'z oxirida unlidan so'ng ko'pincha tushadi yoki jarangsiz [t]ga o'tadi: xursand > xursem, baland >belen, abad > evat.

Til oldi, jarangsiz, affrikat [ch] undoshi so'zning barcha holatida qo'llaniladi. Chel || chol, keche, uch. Lahjadagi [ch] o'zbek adabiy tilida [s] undoshi bilan almashinadi: chech, chechug' (Toshkent)// chech , chachiq (Farg'ona)//soch, sochiq (o'zbek adabiy tilida).

Til, oldi, jarangli, affrikat [J] undoshi so'zning barcha o'rnida kela oladi: jeg' // jaq, penje.

Til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz [S] so'zning uch holatida ham ishtirok etadi: seman (Toshkent), seman (Farg'ona), semen (Buxoro).

Til oldi, sirg'aluvchi, jarangli [z] undoshi shahar guruh shevalarda so'z oxirida yarim jarangsizlashadi: yuzs (yuz), bizs (biz).

Til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz [sh] undoshi so'zning barcha o'rinlarida qatnashadi: shemol (Toshkent) shemal (Farg'ona) shamol (Buxoro) besh.

Til oldi, sonor, burun (n) undoshi so'zning har uch holatida kela oladi: nen, ener (Toshkent), nen, yenar (Farg'). Toshkent shevasida qo'shimchaning boshidagi [n] o'zak oxiridagi tovush bilan moslashadi: tuzni > tuzzi, etni> etti.

Til oldi, yon, jarangli [l] undoshi so'z boshi, o'rtasida, oxirida qo'llaniladi: legen, bele // bala, qol.

Toshkent shevasida bir bo'g'inli so'zlarning oxirida (xususan fe'llarda) [l] undoshi qat'iy emas: masalan : o'l>o, bo'l>bo'.

Sonor, titroq, til oldi [r] undoshi so'z ichida ba'zan [n] ga o'tadi:

kerney > kenney, turne > tunne.

Toshkent shevasida ko‘plik qo‘sishimchasidagi [r] ning tushish holati uchraydi: beleler > belele
|| belle.

Til o‘rta, sirg‘aluvchi, jarangli [y] undoshi so‘zning hamma holatida kela oladi: yesh // yesh,
suyug‘ // suyu, soy.

Jarangsiz, portlovchi, til orqa [k] undoshi so‘z boshi, o‘rtasi, oxirida qo‘llaniladi: kek, ikki //
yekki.

Til orqa, jarangli, portlovchi [g] undoshi so‘z boshi, so‘z o‘rtasida kelgani holda, so‘z
oxirida qo‘llanilmaydi: gesh (go‘sht), eger (egar).

O‘zlashgan so‘zlarda so‘z oxiridagi [g] tovushi [k] yoki [y]ga almashadi:
barg (fors) bek > bey.

So‘z o‘rtasida [g>y] fonetik jarayoni uchraydi: sigir > siyir.

Chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz [q] undoshi so‘zning uch holatida ham kela oladi: qor
// qar, teqe // taqa, oq.

Toshkent shevasida ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda [q] tovushi so‘z oxirida kelmaydi.

So‘z o‘rtasida jarangsiz undoshdan oldin ba’zan [q>x] jarayoni yuz berishi mumkin: toqsan >
toxsan // tohsan, chiqsin > chixsin. Ba’zan [q] [g‘] undoshlarning almashinib qo‘llanilishi,
ba’zan [q>g‘] fonetik jarayoni ko‘zga tashlanadi: buloq// bulog‘ (Farg‘ona, Andijon). buleg‘ //
bule (Toshkent); buleq >bulag‘, ortaq > ortag‘.

Chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz [x] undoshi ham so‘zning har uch holatida kela oladi:
xet // xat, zexche, mix (Samarqand, Buxoro).

Bo‘g‘iz, sirg‘aluvchi, jarangsiz [h] undoshi Toshkent shevasida ko‘proq [x] ga moyilroq
talaffuz etiladi.

2.Qorluq lahjasiga kiruvchi shevalarning leksikasi xilma-xil. Ayni paytda ularning leksik
qatlamlari ham turli-tuman. Ular turli davrlarga xos bo‘lganidek, barcha sohalarga tegishli.
Chunonchi, lahjada qavm-qarindoshlik atamalari o‘zbek adabiy tili bilan ba’zan umumiylilik
kasb etganidek, ayrim o‘ziga xosligi bilan ham ajralib turadi. Masalan, ata // o‘zbek adabiy
tilida ota, enə // adabiy tilda ona, og‘il // o‘zbek adabiy tilida o‘g‘il, qiz //o‘zbek adabiy
tilida qiz va boshqalar.

Shuningdek, ayrim shevalarda ba'zi atamalar o'ziga xos tarzida qo'llaniladi. Ketete > kette: (<kette ete) (and.)-buve (Toshkent), kettene (<kette ene), (And)-buvi va boshqalar.

Turmush tarzi bilan bog'liq holda kishilarning hududlarda qaysi soha bilan shug'ullanishiga qarab, o'sha sohani aks ettiruvchi atamalar ko'p qo'llaniladi. Masalan, qulun (yilqining bir yoshgacha bo'lgan bolasi), keltetay (bir yoshdan ikki yoshgacha), g'unan (ikkidan uch yoshgacha), denan (uchdan to'rt yoshgacha), bota (tuyaning bir yoshgacha bolasi), taylaq (bir yoshdan ikki yoshgacha), nar (to'rt yoshgacha erkak tuya), toqlu (ikki yoshgacha bo'lgan qo'y), h'shshek (uch yoshgacha) va boshqalar.

Farg'ona vodiysida paxtachilik rivojlanganligi sababli shu sohaga oid atamalar mo'l. Masalan, pexta, heppuk// leppek (lo'ppak), g'oza, sheneberg (shonabarg), beshemek (beshamak), kesek, kerek, əlaqaraq (olaqaroq), irdjaq(irjoq), chuvime (chuvima) va boshqalar.

O'lchov birliklari: peyse (paysa), qadaq (qadoq), betmen (botmon), tesh (tosh), chaqirim (chaqirim). Bu atamalar hozir asosan keksalar nutqida ishlatiladi, xolos.

Lahja leksikasi turkiy so'zlar (o'z qatlam) va o'zlashgan qatlamdan tashkil to'gan.

Turkiy qatlam: Bash, yo'rek, bir, bor (Toshkent Andijon), men (Toshkent), men (Andijon). O'che (Toshkent), ochaq (Farg'ona), o'pke (Toshkent), yepke (Farg'ona) o'ra (Toshkent), oraq (Farg'ona), o'rdey (Toshkent), yerdak (Farg'ona), chech (Toshkent), chach // chech (Farg'ona, Andijon), qudu (Toshkent), qudug' (Farg'ona), qarish (Toshkent), piche (Toshkent), pichaq (Farg'ona), kepeley (Toshkent), kepelek (Farg'ona).

Tabiiyki, lahjadagi o'zaro yoki yodgorliklar bilan yuz bergen tafovutlar so'zlarda fonetik o'zgarishlar, fonetik jarayonlar bilan ko'proq bog'liq. Ba'zan so'zlardagi semantik ma'no munosabati ham o'zaro tafovutni yuzaga keltirgan.

O'zlashgan qatlam: O'zlashgan qatlam nafaqat adabiy tilda, balki lahjalarda ham anchagina bo'lib, ba'zan ularni aniq qaysi qatlamga tegishlilagini aniq'ash ham qiyin. Hozirgi o'zbek adabiy tili va shahar guruh shevalarda shunday o'zlashgan so'zlar mavjudki, ular xuddi o'z qatlamiday bo'lib ketgan. Masalan, mel (Toshkent, Farg'ona), adabiy imloda mol (arabcha), mixnet (Toshkent) adabiy imloda mehnat (arabcha), g'em (Toshkent), g'am (Farg'ona) (arabcha), zeril (Toshkent) adabiy imloda zarur (arabcha), eziz (Toshkent, Farg'ona), adabiy imloda aziz (arabcha), in'am (Toshkent), adabiy imloda in'om (arabcha), juvop (Toshkent, Farg'ona) adabiy imloda javob (arabcha), qiymat (Toshkent), adabiy imloda qimmat (arabcha), next (Toshkent), adabiy imloda naqd (arabcha), umir (Toshkent) adabiy imloda

umr (arabcha), me:lum (Toshkent), adabiy imloda ma'lum (arabcha), xever (Toshkent), adabiy imloda xabar (arabcha), heyven (Toshkent), adabiy imloda hayvon (arabcha), derex (Toshkent), daraq//darax (Andijon, Farg'ona), adabiy imloda daraxt (tojikcha), leden-neden (Toshkent, Farg'ona), adabiy imloda nodon (tojikcha), tez (Toshkent, Andijon, Farg'ona). Adabiy imloda tez (tojikcha), bechere (Tosh kent), adabiy imloda bechora (tojikcha), darye (Toshkent), deyre (Andijon). Adabiy imloda daryo (tojikcha), sheher // shaar// she:r (Toshkent), adabiy imloda shahar (tojikcha), dos (Toshkent), adabiy imloda do'st (tojikcha), nerx (Toshkent), nex (Andijon). Adabiy imloda narx (tojikcha), gosh (Toshkent), adabiy imloda go'igg (tojikcha), meydon (Toshkent) adabiy imloda maydon (tojikcha), bezer (Toshkent), bezar (Andijon). Adabiy imloda bazor (tojikcha), doken (Toshkent), deken (Andijon). Adabiy imloda do'kon (tojikcha), chire (Toshkent), chiraq (Andijon), adabiy imloda chiroq (tojikcha), shegut (Toshkent), adabiy imloda shogard(tojikcha).

SHevalar bir-biri bilan nafaqat fonetik, morfologik, balki leksik jihatidan ham ba'zan farqlanadi. Qiyoslang:

Toshkent shevasida:	Samarqand shevasida:	Farg'ona shevasida:
cheqele:	chaqaloq	buvek
much(i)che	musicha	misieche
gerimderi	qalampur	qalampir
qelemche	qalamcha	chikeldek
devuchche	dovuchcha	g'ore
chepchey	matal	ertek
chekey	jeq	jag'

3. Lahjaning morfologik xususiyatlari.

Qorluq lahjasi kelishiklar kategoriyasi jihatidan o'zbek adabiy tilidan farqlanadi. Agar o'zbek adabiy tilida 6 ta kelishik mavjud bo'lsa, mazkur lahjada to'rt yoki beshta.

Shahar shevalarida qaratqich kelishigi qo'shimchasi adabiy tildan farqli ravishda o'zakning tabiatiga qarab -ni // -di /-ti shaklida qo'llaniladi. Masalan: qeresini kursetmey ketti (Toshkent).

Toshkent shevasida o'zakning qanday undosh bilan tugashiga qarab tushum kelishigi qo'shimchasi o'zgaradi: tokki, tuti, kezz', qolli kabi.

Shahar shevalarida jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi ham turli shaklda qo‘llaniladi. Masalan Toshkent, Farg‘ona shevalarida - gə (o‘yge-uyge), -ke (etke), -qe (boqqe).

Samarqand-Buxoro, Qashqadaryo viloyat shevalarida jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi o‘rin-’ayt kelishigi qo‘shimchasiga mos keladi:

ezngge yoq- elemge yo‘q (o‘zingda yo‘q, olamda yo‘q).

Shahar shevalarida o‘rin-’ayt kelishigi ko‘rsatkichi ham ko‘p variantlidir. Masalan: Toshkent, Farg‘ona shevasida - de (balede), - te (otte).

Samarqand - Buxoro shevalarida o‘rin-’ayt kelishigi jo‘nalish kelishigi bilan almashadi. Masalan, bu edamlar sani eldingga nma qiladi? (bu odamlar sening oldingda nima qiladi). Man uyge edim (men uyda edim).

Chiqish kelishigi ko‘rsatkichi shahar shevalarida o‘zakning qaysi tovush bilan tugashiga bog‘liq. Masalan.-den // -ten (Toshkent. yerden, derexten), -dan // -den // -tan // -te n (Farg‘ona. qoldan, ko‘priken), -dan // -tan // -nan. (Qarshi.baladan, qalamnan).

Egalik ko‘rsatkichlari ham shahar shevalarida o‘zaro farqlanadi.

Lahjada egalik ko‘rsatkichi nafaqat otga, balki sifatdosha ham qo‘shiladi: yiyerini yep, icherini ichip - yeyarini yeb, icharini ichib.

I shaxs ko‘plik -(u) vuz qo‘shimchasi -miz, -imiz qo‘shimchasidan lablashish natijasida kelib chiqqan: delemiz >delevuz, o‘yimiz >o‘yuvuz >o‘yo‘:z qiyoslang: keldimiz >kelduvuz > keldu:z > kelduz.

Xuddi shunday holat ng tovushining y undoshiga o‘tishi natijasida II shaxs ko‘pligida - (i) ngiz ning -iyiz ko‘rinishiga o‘tishida ham ko‘zga tashlanadi: kezingiz > kezi:z > keziz.

Lahjada ko‘plik morfologik va sintaktik usul bilan hosil qilinadi.

O‘zbek adabiy tilidagi - lar ko‘plik ko‘rsatkichining lahjada turli shakli mavjud: -lar (Andijon qizlar), -ler (Andijon. guller), -le (Toshkent edemle), -er (park, bizer), -e (Toshkent. bize).

Ko‘plik affaksi fe’lga ham qo‘shiladi: deryage tash atmengler bater keter (Parkent). Toshkent shevasida mazkur qo‘shimcha qo‘shma fe’lning -ib ravishdoshli asosiy qismiga qo‘shiladi: qurible kesen <quribler kitsin. Toshkent shevasida I shaxs ko‘plikda - miz > - vuz, II shaxs ko‘plikda -z qo‘shiladi: kerdimiz > kerdo‘vo‘z > kerdo‘:z; berdiz.

Toshkent shevasida -lug qo'shimchasi egalik ko'rsatkichi bilan birligida kelib ko'plik va hurmat ma'nosini ifodalaydi: o'zlo'gi (Farg'ona)- o'zleri, qoylugini beqishvett (Toshkent)- qo'ylarini boqishyapti.

QIPCHOQ LAHJASIUNING MUHIM XUSUSIYATLARI

REJA:

1. Qipchoq lahjasi, undagi unlilar va undoshlar tizimi.
2. Qipchoq lahjasining morfologik xususiyatlari.
3. Qipchoq lahjasining leksik xususiyatlari.

Dunyodagi ko'p tillar va ularning lahjalari munosabatini daraxt va butoqlarga mengzash mumkin bo'lsa, o'zbek tili va uning lahjalari o'rtasidagi munosabatni tizma tog'larga o'xshatish mumkin. O'zbek tili turli mustaqil lahjalarning tadrijiy birikuvi natijasida paydo bo'lgandir. Dunyo tillari orasida ko'p lahjaliligi bilan ajralib turuvchi o'zbek tili hamda uning shevalari o'rtasidagi munosabatlar haqida turkiy tillar grammatikasining bilimdoni professor Y.D.Polivanov o'z vaqtida shunday yozgan edi: "O'zbek tili yagona sistemaning, hech qachon amalda bo'limgan o'zbek tilining dialektologik parchalanishi yo'li bilan emas, balki til sistemalarining birlashuvi yo'li bilan paydo bo'lgan".³¹ Darhaqiqat, shevashunoslarimizning ko'p yillik tadqiqotlari o'zbek umumxalq tili uch yirik mustaqil lahjaning birikuvidan tash kil topganini tasdiqiaydi:

1. Qorluq-chigil yoki o'rta o'zbek lahjasi.
2. Qipchoq yoki sof o'zbek (E.D.Polivanov atamasi) lahjasi.
3. O'g'uz lahjasi.

Ko'pgina tarixiy manbalarda, Turon zaminining kechmishini tasvirlovchi qadimiy qo'lyozmalarda Dashti Qipchoq fuqarolari o'zbeklar deb atalganligi bugungi tarixchilarimiz tomonidan ham ta'kidlanmoqda. Ayni paytda, bir qator olimlar tasavvufning turondagi asoschilaridan bo'l mish Xo'ja Ahmad Yassaviy asarlarini va badiiy so'z jozibasining go'zal namunasi bo'l mish „Muhabbatnoma“ dostonini qipchoq lahjasiga nisbat berib izohlaydilarki, bunday ma'lumotlar, bir jihatdan, qipchoq lahjasining juda qadimiy va keng hududga tarqaganligini ko'rsatsa, ikkinchidan, uning o'zbek umumxalq tilini shakllantirishdagi haqiqiy o'rnini belgilashga ham yordam beradi.

³¹ T.Enazarov va boshqalar. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent."Universitet". 2012-yil.

X III—XIV asarlarda o‘zbek tili taraqqiyotiga qipchoq lahjasining katta ta’siri borligi maxsus lug‘atlarda ham o‘z aksini topgan. Ma’nosi o‘sha qadimiy lug‘atlarda ham izohlangan shak-chakak, tamaqsov - ochko‘z, satsrov - kar (Attuhfa- tuz) singari juda ko‘plab so‘zlarning hozirgacha qipchoq lahjasida keng qo‘llanilishi ham bu lahjaning juda qadimiy, yashovchan va ifoda imkoniyati keng ekanligini ko‘rsatadi. Mavlono Lutfiy, hazrat Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va ular zamondoshi Muhammad Solih singari daho adiblar asarlari tilida qipchoq tili unsurlarining bot-bot uchrab turishini ham qo‘shadigan bo‘lsak, umuman bu guruh lahjalarining eski o‘zbek adabiy tili taraqqiyotida benihoya katta o‘rin tutganligining guvohi bo‘lamiz.

Aslida, amaldagi o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida ham qipchoq lahjasining ta’siri biz tasavvur qilganimizdan bir necha bor kuchliroqdir. Zero, har qanday mahalliy lahja tilning quyi shakli bo‘lib, u adabiy tilning boyishi uchun asos, tunganmas manbadir. Afsuski, bizning tilshunosligimizda tilning taraqqiyotini sun’iy tarzda tezlashtirishga intilish, xuddi mulkni umumlashtirishga shoshilganimiz singari umumiyligini tilga ega bo‘lishga shoshilish tendensiyasining uzoq vaqt hukmron bo‘lib kelishi natijasida adabiy til mahalliy shevalardan lahjalardan ajralib qoldi. Aksar hollarda, adabiy til lahjalarga, ayrim mahalliy lahjalar bir-birlariga qarshi qo‘yildi. Bu hol, o‘z navbatida, adabiy tilni har jihatdan kambalg‘allash tiradi, lahjalarni esa, o‘z qiyofasidan mahrum bo‘lish, kishilik xotirasidan unut bo‘lishga sabab bo‘ldi. XX asrning 20-90-yillarida o‘zbek tili, asosan, tashqi omillarga tayanib rivojlandi. Tilimizga rus tili va u orqali Yevropa tillaridan juda ko‘plab so‘zlar kirib keldi. Shevadagi minglab ifodalar, o‘zimizning asrlar mobaynida yaratgan milliy boyligimizni chetga surib qo‘yildi. Mana shu nosog‘lom vaziyatni bartaraf qilish kerak bo‘lgan fursat yetib keldi. Chunki qipchoq lahjalari xususiyatlari ta’kidlanganidek, avvalo eski o‘zbek tilida, o‘sha davrda yaratilgan manbalarda berilgan. Ikkinchidan, boshqa lahjalar kabi qipchoq lahjasini hozirgi o‘zbek adabiy tilini boyitib turibdi.

2.Qipchoq lahjasining barchasida to‘qqiz unlilik tizimi amal qiladi. Bu jihatdan qipchoq lahjasini qipchoq guruhidagi (qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz kabi)boshqa turkiy tillar bilan umumiylilik kasb etadi. Qipchoq lahjasidagi to‘qqiz unlilik tizimi uning eski turkiy va eski o‘zbek tilining tadrijiy davomi ekanligidan ham dalolat beradi. Chunki eski turkiy va eski o‘zbek tilida ham to‘qqiz unlilik tizimi bo‘lgan.

Bular: i, ı, ə, a, ə , e, o, u, o‘.

ə unlisi til oldi, keng, lablanmagan tovush:

0 zgə, kəm, əkə, kəttə, kəl, ənə, əmmə kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida keng qo'llanilmoxda.

a unli til orqa, keng, lablanmagan unli : al, bar, qal, baba, tag'a, taq, chaq, ayt. Eski turkiy (adag'// ayag' („Devon“), qag'an (Devon)), eski o'zbek (shaftolu, qashu, jan, almag'a (Lutfiy)) tillarida ham faol bo'lgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ham so'zning barcha o'rnida qatnashadi.

e unlisi mustaqil tovush sifatida eski turkiy til davridan boshlab shakllangan bo'lib, uning yuzaga kelishida keng, til oldi, lablanmagan e tovushning nisbatan torayishi, hamda tor, lablanmagan i unlisining kengayishi muhim ahamiyat kasb etgan. e tovushi asosida e ning shakllanganini hozirgi turkiy tilning barchasi, xususan o'zbek tilininig o'g'uz lahjası to'liq isbotlaydi. Agar hozirgi o'zbek tilidagi m e n, s e n kishilik olmoshlaridagi so'z o'rtasida keluvchi o'rta keng e unlisining tarixan tor i tovushi bo'lganligiga e'tibor bersak, ayrim holatda e ning shakllanishida i tovushining ham asos bo'lganligini sezamiz.

Eski o'zbek tili davrida e unlisi mustaqil fonema sifatida ishlatilib, aksariyat asl turkiy so'zlarning birinchi bo'g'inida qo'llanadi.

Meni men istagan kishi o'z suhbatig'a arjumand etmas,

Meni istar kishining so'hbetin ko'nglum pisend etmas. (Navoiy).

Hozirgi o'zbek adabiy tilida va o'zbek xalq shevalarining aksariyatida bu tovush ishlatiladi. Biroq bu tovushning talaffuzida hozir shevalararo ma'lum darajada farqbor. Chunonchi, shahar va shahar tipidagi shevalarda biroz yo'iqliq, qipchoqlahjasida esa ochiqroqdir. Masalan, Toshkent, Marg'ilon, Namangan shevalarida yer, yendi, erkey, yerkek, qipchoq lahjalarida endi, erkek, chepken, ene, adabiy imloda ber, endi, erkak, chekman, ona.

Til oldi, tor, lablanmagan i va til orqa ы unlilari eski turkiy (sipd ы — chizdi, с ы zlad ы - zirqiratdi, с ы n- qomat, с ы r-sir, bo'yoq, siz- hurmat ma'nosи, sirka-boshdagи bit sirkasi-, Devon“) va eski o'zbek tilida mustaqil fonema bo'lgan. O'zida ohangdoshlikning tanglay uyg'unligini to'liqsaqlab qolgan ba'zi turkiy (masalan, qozoq, qoraqalpoq) tillarda shuningdek qipchoq lahjalarida til oldi i va til orqa ы unlilari eski o'zbek tilidagidek alohida mustaqil ikki tovushdir. Qipchoq sheva vakillari т ы sh (tashqari)- tish (kishining tishi); ы s (qurum) -is (hid); с ы z (chiz)-siz (siz) so'zlaridagi ы va i tovushlarini farqli talaffuz etadilar.

Eski turkiy til davrida to'rtta lablangan unli tovush mavjud bo'lgan. Buni Mahmud Qoshg'ariy o'zining „Devonu lug'atit turk“ asarida maxsus ta'kidlab ko'rsatadi qiyoslang:

o‘lo‘s -hissa (til oldi qilib talaffuz etiladi), ulush (til orqa qilib talaffuz etiladi, hurish, baqirish, faryod); yech- intiqom, o‘ch (til oldi qilib talaffuz etiladi), ot-o‘t, olov-ot degan bilan og‘iz quymas (til orqa qilib talaffuz etiladi).

Eski o‘zbek tilida ham bu to‘rt lablangan unli aohida fonema bo‘lganligi Alisher Navoiyning „Muhokamat ul-lug‘atayn“ida chiroqli izohlangan. O‘zida ohangdoshlikning tanglay uyg‘unligini saqlab qolgan qipchoq lahjasida ko‘pgina turkiy (qozoq, qoraqalpoq, no‘g‘ay va b.) tillaridagidek, bu to‘rt lablangan unli mustaqil fonema sanaladi. Bu sheva vakillari ham xuddi tilimiz tarixidagidek ularni bir-birdan juda oson ajratadilar. Qiyoslang: 0t- o‘tishga buyruq, organizmning bir qismi (unli til oldi), Ot-olov, o‘simlik (unli til orqa); 0r-sochni o‘rish, qiyolik (unli til oldi); Or-bedani o‘rmoq, chuqurlik (til orqa); t0r -uyning to‘ri (til oldi), tor - baliq tutadigan uskuna (til orqa); 0z-o‘zlik olmoshi (til oldi), Oz-o‘zishga buyruq (til orqa); b 0 z — material (til oldi), boz-maysa, rang (til orqa) ych-3 (til oldi) uch-uchmoq (til orqa); tytynm-o‘rining tutuni (til oldi), tutun-aka-uka tutunmoq (til orqa); byr - hayo, uyat, bedaning guli, bargi (til oldi), bur - mashinani burmoq (til orqa).

O‘zbek adabiy tilida ham bu unlilar yaxshi farqlanadi. Ular mustaqil to‘rtta tovush. Biroq ikki harf bilan ifodalanganligi sababli ko‘pda mazkur tovushlar harf bilan chalkashtiriladi.

Unli tovushlarning tadrijiy taraqqiyotini shunday ko‘rsatish mumkin.

O‘zbek xalq shevalarining undoshlar tizimi asosan bir-biriga to‘g‘ri keladi. Biroqular ma’lum darajada o‘zaro farqlanadilar ham. Qipchoq lahjasi ham y-lovchi, j-lovchi guruhlarga ajralganligi sababli ba’zan ularning o‘zida qisman tafovut ko‘zga tashlanib qoladi. Lekin ularda baribir umumiylit kuchli. Chuqur til orqa „X“ undoshi bu guruh shevalarda yo‘q darajada, uning o‘rnida aksariyat q qo‘llanadi: tuqum (tuxum), qala (xola), qatyn (xotin). X tovushining turkiy so‘zlarda qo‘llanishi eski turkiy til davriga to‘g‘ri keladi xan (Dlt)- xon, xayu (Dlt)-qaysi. Bu tovushning iste’mol doirasi eski o‘zbek tili davriga kelib yanada kengayadi: Xatun (rabg‘). Xotin, xonliq (XSH)-xonlik. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham X undoshi faol ishlataladi. Ammo ba’zi turkiy tillarda, jumladan, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz tillarida bu tovushning o‘rnida q undoshi qo‘llaniladi. Bo‘g‘iz, sirg‘aluvchi, jarangsiz h undoshi qipchoq shevalarida mustaqil fonema: Hemme, hem, hikmet, himmet kabi. Eski o‘zbek tilida ham faol ishlatalgan bu tovush Toshkent shevasida mustaqil fonema sanalmaydi. O‘zbek adabiy tilida X va H undoshlari bir-biridan farqlanadi.

Lab-tish sirg‘aluvchi, jarangsiz f undoshi qipchoq lahjasida fonema sifatida mavjud emas. Uning o‘rnida hamisha p tovushi qo‘llaniladi: ad til. foyda - payda, ad.til. farzand

//perzent. Bu tovush qadimgi turkiy tilda uchramaydi. U eski turkiy va eski o'zbek tillarida o'zlashgan so'zlar hisobiga paydo bo'ldi. Shuning uchun ayrim boshqa turkiy tillarda va barcha o'zbek lahjalarida f fonema sifatida mavjud emas.

O'zbek adabiy tiliga o'zlashgan so'zlardan kirib kelgan sirg'aluvchi **j** undoshi barcha o'zbek shevalaridagidek qipchoq lahjasida ham mustaqil fonema sifatida uchramaydi. Ajdar, jurnal tarzidagi so'zlarda keladigan sirg'aluvchi **j** affrikat **j** tovushiga almashadi. Chunki qipchoq lahjasida affrikat **ж** tovushining xuddi qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq tillaridagidek iste'mol doirasi keng. джол (yo'l), джар (jar), джақшы (yaxshi), джақын (yaqin), Jora (jo'ra), jog'ari (yuqari).

Titroq, sonor R undoshi qipchoq lahjasida til oldi, til orqa shaklda bo'lib, xuddi qadimgi turkiy tildagidek so'z boshida kelmaydi.

ырайлан, ирайс, ораза, орамал каби. Bu holat hozirgi ayrim turkiy (qozoq, qoraqalzoq, qirg'iz каби) tillarda ham saqlanib qolgan.

N burun tovushi qipchoq lahjasida qipchoq guruhiga taalluqli turkiy tillardagi каби ikki variantlidir.

Qipchoq lahjasida k, g, g‘, q, undoshlari mustaqil fonema.

Qo'llanilish jahatidan o'zbek adabiy tili va boshqa shevalardan farq qilmaydi.

Ammo, bir tomondan, ular mazkur lahjada ohangdoshlik qonuniyat bilan bog'liq ravishda bir-biriga til oldi va til orqalikda variant bo'lib kelish bilan, ikkinchi tomondan, ba'zan so'z oxirida ikkilamchi v undoshiga aylanish bilan o'ziga xosliklarga ham ega. Qiyoslang:

adabiy tilde	qipchoq lahjasida
--------------	-------------------

t o g‘	tav
--------------	-----

bo'yog‘	boyov
---------------	-------

ellik	elluv
-------------	-------

Ohangdoshlik hodisasi turkiy tillarda qadimdan mavjud bo'lib, u tovushlardagi uyg'unlikni, o'zaro ohangdoshlikni ta'minlaydi. Odatda, ohangdoshlik haqida gap ketganda, ko'pincha, unlilardagi til oldilik va til orqalik, hamda lablanganlik va lablanmaganlik to'g'risida gapiriladi. Vaholanki, ohangdoshlik hodisasi bu bilan tugamaydi. Lablanganlik, ya'ni lab

uyg‘unligi faqat unli tovushlarga xos hodisa. Ammo tanglay uyg‘unligi qonuniyatiga binoan, tovushlardagi til oldilik va til orqalik xususiyati hisobga olinadi.

Bunday ajralish nafaqat unlilarda, balki tilimiz tarixiga nazar tashlasak, balki undosh tovushlarda ham mavjud bo‘lgan. Qiyoslang:

qag‘anqa-hoqonga, algish - olim, qarz, og‘uzg‘aru-o‘g‘uzga, soqum-so‘qim, kuchug-kuchni, kozum-ko‘zim kabi.

Ohangdoshlikdagi uchinchi jarayon — bu undosh tovushlardagi jaranglilik va jarangsizlik hodisasi sanaladi. Bu jarayon ham turkiy tillar tarixining qadimgi davridan boshlab amal qilingan. Ohangdoshlik eski turkiy til davrida ham mavjud bo‘lib, turkiy tillar tarixida bu jarayon haqida dastlab Mahmud Koshg‘ariy fikr bildirgan. Olim turkiy tillarning o‘zak xarakteriga qarab qo‘sishchalarining qattiq, yumshoqlikda farqlanganligini ta’kidlaydi. A.M.Shcherbak eski o‘zbek tili davrida birinchi tip, ya’ni tanglay uyg‘unligining saqlangan va buzilgan hollari bor, ikkinchi tip, ya’ni lab uyg‘unligida esa buzilish holati mavjud deb ko‘rsatadi. Filologiya fanlari doktori, akademik A.Rustamov esa XV asr o‘zbek adabiy tilida singarmonizmning har uchala qonuni, ya’ni unlilardagi tanglay uyg‘unligi hamda undoshlardagi jaranglilik va jarangsizlik uyg‘unligi bor degan xulosani bildiradi.

Qipchoq lahjasida ham til tarixidagi ohangdoshlikning har uch holati amal qiladi. Xususan tanglay uyg‘unligiga binoan o‘zak va qushimchadagi til oldilik va til orqalik holati nutqdagagi qulaylik bois saqlanib qolgan: tish+tin-tishning; ekesi, tag‘asi, keldi, kerdi, beldi, qolum, sozo‘m (so‘zim) tozo‘m kabi.

Qipchoq lahjasida ayrim holatda lab ohangdoshligi buzilishi mumkin. Biroq tanglay uyg‘unligi, ya’ni til oldilik va til orqalik nutqda to‘liq saqlanadi.

Undosh tovushlardagi jaranglilik, jarangsizlik hodisasiga ham qipchoq lahjasida amal qilinadi: ish+ten (ishdan), qыш + tan(qish dan), kepti (kepdi), ketti (ketdi), o‘sh +te (uchta).

Odatda, ohangdoshlik hodisasi nutqda qulaylikni ta’minalash, talaffuzda bir me’yorni yuzaga keltirishda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga talaffuzdagi o‘sha me’yor nutqda ma’lum bir musiqa, ohangni shakllantirishni yuzaga keltirishga yordam beradi. O‘zbek adabiy tilida ham ohangdoshlik qonuniyat aksariyat amal qiladi: Labial uyg‘unlik buzilgani bilan undoshlardagi jaranglilik, jarangsizlik va tanglay uyg‘unlini nutq ravonligi, uning musiqaviyligini ta’minalashga xizmat qiladi.

Qipchoq lahjasida otlarda ko‘plik shakli -ler /-lar, -ner /-nar qo‘shimchalari bilan hosil qilinadi: kishiler, qoylar, adamnar, kiyimner. O‘zbek adabiy tilida -lar. Qipchoq lahjasida sen ikkinchi shaxs birlik, siz ikkinchi shaxs birlik hurmat, silar ko‘plik, oddiy munosabat, sizlar ko‘plik hurmat ma’nolarida qo‘llaniladi. O‘zbek adabiy tilidan farqli ravishda qipchoq lahjasida 1-shaxs ko‘pliklar qo‘shimchasini olmaydi va bizlar shaklida ishlatilmaydi. -ler ko‘plik qo‘shimchasi qipchoqlahjasida adabiy tildan va shahar guruh shevalardan farqli ravishda hurmat ma’nosida kelmaydi (atamnar emas, atam) va fe’llarga qo‘shilmaydi (bardilar emas bardi). Fe’lning ko‘plik shakli qipchoq lahjasida adabiy tildan farqli ravishda ba’zan shaxs-son qo‘shimchalaridan oldin kelishi mumkin. Qipchoq lahjasidagi egalik ko‘rsatkichi adabiy til bilan o‘zining ko‘p shakldaligi bilan farqianadi.

Qipchoq lahjasida kelishik ko‘rsatkichlari adabiy til bilan o‘zining ko‘p shakldaligi jihatdan qisman farqlanadi.

Qipchoq lahjasidagi fe’lning shaxsli shakli umumiy holda hozirgi o‘zbek adabiy tili bilan mos keladi. Ammo ularning ba’zi o‘ziga xos jihatlari ham mavjud. Chunonchi, o‘zbek adabiy tilida fe’lning hozirgi kelasi zamon III shaxs ko‘plik shakli bordilar//bordi, keldilar//keldi tarzida qo‘llansa, qipchoq lahjasida faqat bordi, keldi ko‘rinishda ishlatiladi. Chunki qipchoq lahjasida fe’lga ko‘plik “-lar” qo‘shilmaydi. Ko‘plik ko‘rsatkichi faqat otga qo‘shiladi.

O‘zbek adabiy tilidagi “qol” ko‘makchi fe’li ma’nosи qipchoq lahjasida qo‘shimcha shakldagi “g‘ay” ko‘makchi fe’li bilan ifodalanadi: boraqol -barag‘ay, kelaqol-keleg‘ay, yozaqol-jozag‘ay.

Fe’lning bo‘lishsiz shakli qipchoq lahjasida ikki fonetik variantda ifodalanadi: tavmaydi //tappaydъ..

Harakat nomi qipchoq lahjasida -sh, -ish/-ыш qo‘shimchasi bilan hosil qilinadi: aytish kerek-aytish kerak, barish qachmas-borish bo‘lsa qochmas.

-v, -uv/-o‘v qushimchasi ham lajhada harakat nomi yashashda qatnashadi: Baruv-boruv, kelo‘v-keluv, aytuv-aytuv.

-Maq/-mek qo‘shimchasi ham qipchoq lahjasida ba’zan harakat nomi yashashda ishtirok etadi: Tavmaq-to‘moq, kermek-ko‘rmoq, ichmek- ichmoq, aytmaq-aytmoq.

3.So‘zlar tilning oynasi. Shu sababli bir guruhdagi shevalarning o‘zaro tafovuti va umumiyligi bu sohada ko‘zga aniqroq tashlanadi. Bunday xususiyat qipchoq lahjasiga ham xos bo‘lganligidan shevashunoslikda ular hududiy jihatdan guruhlashtirib o‘rganiladi.

1.Qipchoq shevalarining Sharqiy guruhi (Sharqiy qipchoq dialekti). Samarqand shahrining sharq tomoni. Bekobod shahri va Bekobod tumaniga qadar tarqalgan qipchoq lahjalari. Jizzax viloyatining asosiy qismi (Baxmal, G'allaorol, Zomin va b.). Sirdaryo viloyatining bir qismini o‘z ichiga oladi.³²

2.G‘arbiy guruh qipchoq shevalari (G‘arbiy qipchoq dialekti). G‘arbiy guruh qipchoq shevalari asosan Samarqand shahridan g‘arbgan tomon qismini va Navoiy viloyatining asosiy qismini o‘z ichiga oladi³³ (N. Rajabov va b.). Sharqiy va G‘arbiy guruh qipchoq shevalari o‘rtasida ma’lum darajada tafovut mavjud.

3.Farg‘ona guruh qipchoq shevalari (Farg‘ona vodiysi qipchoq dialekti). Bu guruhga kiruvchi qipchoq shevalari deyarli butun Farg‘ona vodisiga tarqalgan. Qipchoq shevalari Andijon (S.Ibrohimov), Shahrixon va Asaka atroflarida, Toshloq, Baliqchi, shuningdek, Yangiqo‘rg‘on (F.Abdullayev), Uychi (A.Y.Aliyev) va boshqa tumanlarda hamda Qo‘qon (Sh.Nosirov) shahri atroflarida uchraydi. Bu shevalar qorluq-chigil tipidagi shevalardan ham qisman farqlanadi. Shubhasiz shevalardagi integratsiya aholining zinch joylanishi bilan ham bog‘liq.

4. Janubiy guruh qipchoq shevalari (Janubiy-qipchoq dialekti). Bu guruh shevalari Qashqadaryo (B.Jo‘rayev, A.Shermatov) va Surxondaryo viloyatining katta hududiga, shuningdek, Tojikistonning janubiy tumanlariga tarqalgan. Bu guruh qipchoq lahjalari ham xuddi Samarqand va Jizzax viloyatidagi qipchoq lahjalari kabi o‘zining xususiyatini saqlab kelmoqda.

5. Qipchoq shevalarining Shimoliy Xorazm guruhi (Shimoliy Xorazm qipchoq dialekti). Bu guruh qipchoq shevalari professor Y.D.Polivanov, F.A.Abdullayev tomonidan, Qoraqalpog‘istondagi qipchoq shevalari A.Ishayev tomonidan o‘rganilgan.

Qipchoq lahjasidagi so‘zlarni semantik jihatdan ko‘p ma’nolilik, ma’nodoshlik, shakldoshlik, zid ma’nolilik, so‘z ma’nolarining o‘zgarish, ko‘chma ma’noligi va boshqa jihatlari nuqtai nazardan tahlil qilish mumkin. Qipchoq lahjasida so‘zlarda ko‘p ma’nolilik kishilarning tana a’zolariga, nisbat berish natijasida yuzaga keladi. Chunonchi, bash-odamning boshi, tavding bashi (tog‘ning boshi), buvdayding bashi (bug‘doyning boshog‘i), bashtan (avvaldan, ilgaridan), soqa bash (bir o‘zi) birikmalaridagi ko‘chma ma’no “bosh”so‘ziga nisbat

³² X.Doniyorov. Qipchoq dialektlarining leksikasi. Toshkent. 1997.

³³ N. Rajabov.O‘zbek shevashunosligi. Toshkent.1996

berish natijasida yuzaga kelgan “bosh” so‘zining ko‘chma ma’nosи qipchoq lahjasida adabiy tilga nisbatan ko‘proq.

Aq, oq so‘zi asosan ezgulik timsoli sifatida qo‘llaniladi. Bu so‘z oq rangni bildirish bilan bir qancha qo‘shimcha ma’nolarda ham keladi: aq kengil (oq ko‘ngil) odam, aq (oq)-gunohsiz odam, aqlap gepirdi-yon bosib ga’irdi, aqlandi - kechirildi, aqjo‘zli boldi - obro‘li bo‘ldi, kengni aq adam - to‘g‘ri dilkash odam, ag‘artrmaq - oqartirmoq, yuvib- taramoq, parvarish qilmoq, kegini kekledi - oqini oqladi, ko‘kini ko‘kladi, tarbiyaladi, xizmatini me’yoriga yetkazdi, parvarish qildi. Aqqa toydi - sut-qatiqqa to‘ydi, avzi (erini) ag‘arish qaldi - labi oqarib qoldi (to‘yindi, turmushi yaxshilandi).

Qipchoq lahjasi ma’nodosh so‘zlarga ham boy: jilik//so‘bek. Teng qo‘llanadi. Ma’nodoshligi asosan siylov, ziyofat ma’nosida uchraydi:

jilik qoymaq yoki ashqa so‘bek samaq, chirag‘im // aynam. Bu so‘zlar keksa kishilarning yoshlarga suyub murojaat qilishida ma’nodoshlik kasb etadi. Avvalroq **aynam** so‘zi ko‘proq ishlatilgan bo‘lsa, keyinchalik **chirag‘im** so‘zining iste’mol doirasi kengaydi.

Boy, gevde, sumbat, kelbet, pichim ma’nodoshlarida yetakchi boy so‘zidir. Xuddi adabiy tildagidek, lajhada ham ularning qo‘llanish o‘rniga e’tibor qaratmoq kerak bo‘ladi. Qiyoslang: chыrayы achыq- yuzi ochiq, tabiatи ochiq, kayfiyatи yaxshi. Hech chыrayы achыlmадыда - hech tabiatи(qovog‘i) ochilmади-da. Chыrayы achмq iborasi o‘rnida juzi achыq yoki beti achiq iboralarini qo‘llab bo‘lmaydi.

Qipchoq lahjasida xuddi adabiy tildagi va boshqa lahjalardagi kabi shakldosh so‘zlar ham juda mo‘l. Chunonchi, ot (o‘t) so‘zi ikkita shakldoshlikni yuzaga keltiradi. Ot - 1. ko‘kat - 2. olov. Ot so‘zi ham xuddi shunday: 1) yet-o‘t qopchasi; 2) yet-fe’l (o‘tmoqning buyruq shakli). Or: 1) or-o‘rishga buyruq; 2) or-chuqurlik. Or: 1) ochni o‘rish; 2) balandlik.

Qipchoq lahjasida ayrim mustaqil ma’noli so‘zlar ba’zan juftlashib yangi ma’no kasb etgan. Chunonchi, qipchoq lahjasida “arqav”, “erish” so‘zлari o‘rmakning uzuniga va ko‘ndalangiga to‘qiladigan iplarining nomlari. Bu iplar bir-biri bilan chirmashib chatishmasa, to‘qima hosil bo‘lmaydi. So‘zning xuddi shu chirmashish, ma’nosи “arqov erish” juft so‘ziga ko‘chirilib unga “jora-joldash” ma’nosи yuklatilgan: Arqov-erish bop juripti.

Qipchoq shevasida adabiy tilga va shahar shevalariga nisbatan arabcha, forscha va tojikcha so‘zlar kamroq. Yana ulardan bir farqi bu o‘zlashgan so‘zlar aksar fonetik o‘zgarishga uchragan holda ishlatiladi.

Shevada: Adabiy tilda:

Ebiyir	obro‘
neyeti	nihoyat
oraza	ro‘za
shayi	shohi
Aptikerim	Abdukarim
Abdo‘reyim	Abdurahim
Abdo‘veyit	Abduvohid

Qipchoq lahjasi vakillari nutqida o‘zlashgan so‘zarning ayrimlari qayta ishlanib bu shevalarning leksik-stilistik tomondan rivojlanishini, rang-barangligini orttirishda imkoniyat beradi. Masalan, malchi (molchi), mazali (mazali), mazasiz (mazasiz), shadmanliq (shodmonlik), va boshqalar.

Albatta qipchoq lahjalari so‘zligining asosini asl turkiy, asl o‘zbekcha so‘zlar tashkil etadi. Lahjadagi so‘zlar sohalar bo‘yicha adabiy til va boshqa lahjalar bilan umumiylilik kasb etsa-da, ba’zan ularning o‘ziga xos jihatlari ham ko‘zga tashlanib qoladi. Qipchoq lahjasining tarmoq leksikasidagi eng boy va o‘ziga xos atamalaridan biri chorvachilik atamalaridir. Chunki qipchoq lahja vakillari qadim zamonlardan boshlab chorvachilik kasbi bilan juda jiddiy shug‘ullangan. Shuning uchun bu lahjala chorvachilik mol turlari bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z va atamalar juda ko‘p. Ulardan ko‘pchiligi, asosan, shu shevalar orqali adabiy tilga kirgan va ular maxsus atama sifatida ishlatilmoqda. Ammo ayrimlari adabiy tilga kirib ulgurmagan. Adabiy tilga ular olib kirilsa uning imkoniyati yanada kengayadi.

Qipchoq laqjasи o‘ziga xos dialektal iboralarga ham boy: berige beylegen ulaqqay, erini ag‘arish qamaq, jolli bomaq, toyg‘an qoziday, ashiq oynag‘an azar, tob oynag‘an tozar, jilagini jegen ozar, at jigitti qanati, ming qoylini, bir qoylig‘a ishi to‘sipti, jaqshi kese hut qazan-qazan so‘t, qarada kersem qarnim toq, bozlag‘an botaday, iyerlegen atday, jutag‘an tuvadaqtay va boshqalar.

O‘G‘UZ LAHJASI

Reja:

1. O‘g‘uz lahjasining fonetik xususiyatlari.
2. O‘g‘uz lahjasining leksikasi.
3. O‘g‘uz lahjasining morfologik xususiyatlari.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Janubiy Xorazm, Urganch - Xiva guruh shevalari, Xazorasp - Yangiariq guruh shevalari, unlilardagi cho‘ziqlik, birlamchi cho‘ziqlik, ikkilamchi cho‘ziqlik, O‘g‘uz shevalarida qisqa cho‘ziq unli, O‘g‘uz shevalarining fonetik xususiyati, morfologik belgilari, shevada sifat va miqdor jihatdan farqlanuvchi fonemalar. O‘g‘uz lahjasining leksik xususiyatlari, O‘g‘uz lahjasidagi so‘zlarning o‘z shevangizga munosabati, adabiy tilga munosabati.

1. O‘g‘uz lahjasini juda ko‘p olimlar o‘rgangan. Chunonchi, G‘ozi Olim Yunusov, (“O‘zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba” 1936), Y.D. Polivanov (“Shovot rayon, Qiyot- Qo‘ng‘iroq qishlog‘i shevasi”), A.K. Borovkov, keyinchalik Ahmad Ishayev (“O‘zbek tili mang‘it shevasining fonetik xususiyatlari”), Yusuf Jumanazarov (“Hazorasp shevasining morfologik xususiyatlari”), Erka O‘rozov (“Janubiy Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari”), Fattoh Abdullayev (“O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi”) va boshqalar mazkur lahjani maxsus tadqiq etdilar.

Janubiy Xorazmning Urganch, Hazorasp, Xonqa, Xiva, Bog‘ot, Shovot, Qo‘shko‘pir, Yangiariq tumanlarida, Turkmanistonning Toshovuz viloyatining bir qismida, Turkistonning Qarnoq, Iqon, Sayram, Qorabuloq, Ibota qishloq aholisi o‘g‘uz lahjasida so‘zlashadilar. Albatta hududiy jihatdan bo‘lgan farq ma’lum darajada o‘z ta’sirini ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun garchi ular O‘g‘uz guruh lahjasini tashkil etsada, ba’zan bu shevalarda qisman tafovutlarning ham bo‘lishi tabiiy bir holat. Ammo mazkur guruh lahjalarda shubhasiz umumiylig mavjud.

Urganch - Xiva guruh shevalarda unli tovushlar o‘nta:

u, ў, ы , ყ, y, θ, o, e, ә, (€), a.

Bu lahjada xuddi eski o‘zbek tili va qipchoq lahjasidagi kabi “ў”(til oldi) va “ы” (til orqa), “y” (til oldi) va “y” (til orqa), “θ” (til oldi) va “O” (til orqa) unlilari mustaqil fonema.

Biroq Turkiston hududidagi o‘g‘uz lahjasida, ya’ni shimoliy o‘zbek shevalarida unlilar soni 9 ta. Bu shevalarda qisqa ў fonema sifatida mavjud emas.

O‘g‘uz lahjasida birlamchi cho‘ziq unlilar mavjud. Bu xususiyat ularni qipchoq va qorluq guruh lahjalaridan farqlaydi. Ayni paytda o‘zbek adabiy tilidan ham shu jihatdan farqlanadi.

Chimkent viloyatiga tarqalgan o‘g‘uz shevalarida ham birlamchi cho‘ziq unlilar mavjud. Bu hudud lahjasida 9 ta qisqa unlilarga yana shuncha cho‘ziq unlilar qo‘shilib, unli fonemalarning mikdorini 18 taga yetkazadi: a:, e:, u:, ye:, m, o‘:, u:, ye:, o:

A: a:g‘a, ba:la, ba:zar, a:dash, a:ya (oyi).

E: ye:sh’ (dugona), ye:rg‘inchek (erinchoq), te:rek.

U: ti:ze, ti:sh, i:s, ti:rg‘k

G‘1: (‘) q’yz, q’yn (qin), yaq’yn.

O‘: to‘:b, to‘:n, to‘:sh.

U: tu:z, tu:t, u:ch

0: ye :t , t ye :r , b ye :b e k .

O: o:t (olov), to:g‘ay, qo:y

Xorazm o‘g‘uz shevalarida qisqa va cho‘ziq unlilar miqdori o‘n yettita. Bu guruh o‘g‘uz shevalarda cho‘ziq‘ik asosan ot kategoriyasidagi so‘zlarda (keng ma’noda) uchraydi, fe‘l turkumidagi so‘zlarda uning tarqalishi juda cheklangan. Hatto cho‘ziqgsikka ega bo‘lgan otdan fe‘l yasalganda ham unlilarning cho‘ziqligi zaiflashadi va oddiy cho‘ziqlikdagi unliga teng bo‘lib qoladi: at - a:t kabi.

Ikkilamchi cho‘ziqlik o‘z xarakteri va qo‘llanish chegarasiga ko‘ra, boshqa o‘zbek shevalaridan keskin farqlanmaydi. Bunday cho‘ziqlik odatda turli tovush jarayonlari ba’zi tovush yoki biror bo‘g‘inning tushishi natijasida shakllanadi:

[R] tushadi: ba:dim, be:di, te:t

[J] tushadi: a:di, bo:di, qa:di

[Y] tushadi: ye:t (eyt), to‘:me

[G] tushadi: bi:z, ti:di, i:n (egin)

[K] [k] tushadi: ayu:, azu: yellu:

O‘rta kenglikdagi unlilar oldidan protetik tor unlining orttirilishi hodisasi o‘g‘uz guruh shevalarida qayd etilmaydi. Bu hodisa (diftonglashish hodisasi) faqat qipchoq lahjasida turli darajada namoyon bo‘ladi. O‘g‘uz lahjasida **q, g‘, x** undoshlari **chuqur til orqasida emas, tilning**

orqa qismida talaffuz etiladi. K, G undoshlari odatdagidan yumshoqroq tovushlar bo‘lib, tilning o‘rtalarda qismida paydo bo‘ladi. G undoshi nutqda ba’zan Y undoshi bilan ham almashinib turadi. So‘z boshida kelgan jarangsiz K undoshi o‘g‘uz lahjasida jarangli G undoshi bilan almashinib qo‘llaniladi: kel -gel, kez - gez kabi. So‘z boshida kelgan jarangsiz T undoshi o‘g‘uz lahjasida jarangli D undoshi bilan almashinadi: temir - demyr, tert - dert kabi.

2. Lahjada o‘zbek adabiyy tildan farq qiluvchi so‘zlar anchagina uchraydi. Chunonchi, Xorazm shevalarida zenggi (narvon) so‘zi Chimkent viloyatidagi o‘g‘uz shevalarida o‘zenggi shaklida ishlataladi. Qorluq guruh shevalardagi o‘xshamoq - o‘xshash - o‘xshamoq so‘zi o‘rnida o‘g‘uz lahjasining har ikki tarmog‘ida mengzesh (mengzemek) so‘zi ishlataladi. “Devorning tagidan suv o‘tadigan joyni, teshikni” Xorazm o‘g‘uz shevalarida toqitqa deb ataydi. poylamoq, yashirin quloq solmoq, tikilib qarab turmoq ma’nosida mazkur shevalarda angdimoq so‘zi qo‘llaniladi: angdab yo‘rgen doston, achiq, kegen, yav, yaxshi, kanal, anhor ma’nosida Xorazm o‘g‘uz lahjasida arna so‘zi ishlataladi.

Чымчиқ қарыса, сақақлари кэлтэ болур. Тэнгьин тапсан, тэкъ бэр.

Отыннъ чапқанға йақтър, Маллнъ тапқанға бақтър.

Ананнъ ха:р етсэн, е:зин за:р боласа

Су: былэн ойнама - батарса, о:т былэн ойнама — йанарса.

Ел а:ғасъс, тон йа:қасъс болмайдъ.

Аврув батманлап кэлэдъ, мъсқаллап кетэдъ.

Йамғър былэн йер кекэрэр, Ме:нэт былэн ел кекэрэр.

Қайтып кэлэр ешығыннъ қаттық йапма.

3.Ko‘plik shaklidagi otning kelishiklar bilan turlanishi

Ko‘plik va egalik qo‘sishimchalarini olgan otlarning kelishik

qushimchalarini olishi lahjada shunday tartibda bo‘ladi:

T .k . - n i / -nъ

J .k . - g e / - g‘ a , - k e / - q a,- e / -a, - n e / - n a,- g e / - g‘ a / - k e / - q a, -e,- a

U - p .k . - d e , - d a - d e , - d a , - t e , - t a - d a

CH .k . - d e n , - d a n - d i n / -дён, -тын/-тын - д а н

Kishilik olmoshlarini qo'llashda ikki guruh o'g'uz shevalarida asosan fonetik tafovut mavjud: men, sen, ul/u, biz/ bizer - bizler, siz- siler- siller - ular - ulalar. O'g'uz lahjasida sanoq sonlar bir, yeki/e:ki, ikki, o'sh, tert - tet, besh, alti, yeti/ yetti, sekkis, yelig/ yelli shaklida qullaniladi.

O'g'uz guruh shevalarda buyruq-istak fe'lining bo'lishsizlik shaklida qisman o'zaro tafovut ko'zga tashlanadi:

O'g'uz laqjalarining har ikki guruhida tarixiy o'tgan zamon shakli fe'l negiziga -g'an, -gen, -qan, -ken shaxs-son qo'shimchasini qo'shish yo'li (men barg'amman, men barg'amma, bizle barg'ammms, biz yer barg'ammms shaklida) bilan hosil qilinadi. Uzoq o'tgan zamon, o'tgan zamon hikoya fe'llarining yasalishida boshqa lahjalardan va o'zbek adabiy tilidan deyarli farq yo'q deyish mumkin. Shuningdek hozirgi zamon fe'l shakllarida ham umumiylilik mavjud.

Kelasi zamon fe'l shakllarining yasalishida Xorazm o'guz shevalari Chimkent viloyatidagi o'g'uz shevalaridan farq'anadi. Chunonchi, Xorazm o'g'uz shevalarida kelasi zamon fe'li "fe'l negizi"+"jaq+shaxs-son" tarzida hosil qilinadi: gel+ejek+men, bar+ajaq+san kabi.

AREAL TILSHUNOSLIK VA LINGVISTIK GEOGRAFIYA

Reja:

1. Lingvistik geofafiya va uning o'rganish ob'ekti.
2. Lingvistik geofafiyaning jahon tilshunosligida paydo bo'lishi va asoschilar.
3. O'zbek xalq shevalarini lingvo-geofafiya usulida o'rganish, o'zbek shevalari atlasini yaratish masalalari.

Tayanch tushunchalar

Lingvistik geografiya usuli: izoglossa, izofonema, izomorfema; monografik usul; tovush tushunchasi, fammatik shakl, leksik belgi, grammatik belgi; dialekt, lahja, sheva tushunchalari, lingvistik xarita, lingvistik atlas, mos hodisalar, areallar, til lanshafti, aralash zonalar, innovatsiya markazi, irradiatsiya, kartalashtirish, regional atlas, zonal atlas, areal lingvistik prinsip, dialektologik prinsip.

1.Lingvistik geografiya (lingo-geografiya) - tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, u ma’lum hududda tarqalgan til hodisalari (tovushlar, grammatik formalar, so‘zlar)ni aniqlaydi, ularning o‘sha joyga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatadi³⁴. Hududiy til xususiyatlarini xalq tarixi, til tarixi bilan aloqador holda taqqoslab, tushuntirib, kartalar orqali ifodalaydi. Lingvistik geografiya ham hududiy dialektlarni o‘rganadi. Uning eng muhim xususiyatlaridan biri ko‘rgazmaliligi bo‘lib, unda ma’lum til hodisalarining o‘rni va tarqalish chegarasi karta va atlas vositasida aniq belgilab berildi.

Karta ham atlas ham lingvistik geografiyaning ifoda vositasi bo‘lib, uning asosiy maqsadi tilning taraqqiyot qonuniyatları va yo‘llarini, aniq dialektlarning paydo bo‘lishi va ularning milliy tilga bo‘lgan munosabati, o‘zaro aloqasini tushuntirib berishdan iboratdir.³⁵

Lingvistik geografiya bir qator umumlingvistik muammolarni, ya’ni tilda lahja, dialekt, shevalar mavjud bo‘lsa, ularning xususiyatlari nimalar bilan chegaralanishlari, dialektlarning umummilliy tilga bo‘lgan munosabati va shu kabi masalalarni hal qilmog‘i kerak.

O‘zbek tilshunoslida XX asrning 60-yillariga qadar shevalar monografik usulda o‘rganilib kelingan, bu jarayon hozirga qadar davom etib kelmoqta. Biroq o‘zbek shevalarini o‘rganish 60-yillardan so‘ng ikki xil yo‘nalishda: 1) monografik usul; 2) lingvografik asosida o‘rganila boshlandi.

Monografik usul bilan o‘rganishda shevalar tavsifiy usulda yozib olinib, boshqa o‘zbek shevalari va adabiy tilda qabul qilingan so‘zlar tovush va qo‘sishchalar bilan qiyoslanar edi. Bu usulda og‘zaki nutqni transkripsiaga yozib olish, yozib olingen matnlarni izohlash, dialektal xususiyatlarni o‘rganish, dialektal lug‘atlar tuzish monografiyalar yaratish va shu kabilardan iborat.

O‘zbek dialektologiyasida yirik monografik asarlarning paydo bo‘lganligi monografik tadqiqot mevasi bo‘lib, endilikda shevalarimizni qiyosiy-tarixiy, tipologik tadqiqotining hozirgi zamон aniq va izchil usuli (metodi) til hodisalarining tarqalish chegaralarini aniqlab beruvchi lingvistik geografiya va areologiya asosida ilmiy tekshirishni taqozo qiladi hamda o‘zbek xalq shevalari atlasini yaratish masalasini navbatdagi vazifa qilib kun tartibiga qo‘yadi.

Monografik usul asosida shevalarni o‘rganishda ko‘proq dala sharoitida - qishloqlarda yurib ish olib boriladi. Lingvogeografiya unga qaraganda aniq xususiyatga ega. Chunki lingvogeografiya materiallari bilan laboratoriylar va kabinetda shug‘ullaniladi. Shu nuqtayi

³⁴ Murodova N. O‘zbek adabiy tili va shevalar leksikasining qiyosiy tadqiqi.- Toshkent. Fan. 2005

³⁵ Yuqoridagi asar

nazardan qaraganda morfologik usul bilan shevalar o‘rganilib bo‘lingach, langvogeografik tadqiqot uning materiallarini ilmiy laboratoriyalarda tadqiq etishdan, uning davomchisidek, undan o‘sib chiqqan deb faraz qilinadi.

Lingvistik geografiyaning asosiy o‘rganish obyekti - til hodisalari: 1.Izoglossalar, izofonema va izomorfema. 2.Lingvistik atlaslar. 3.Mos hodisalar. 4.Areallar. 5.Lingvografik kartalar va kartalashtirish. 6. Til lanshafti. 7. Aralash zonalar. 8. Innovatsiya markazi. 9. Iradaitsiya va boshqalar³⁶.

1.Izoglosa - mos hodisalarning u yoki bu a’zosi, bo‘lagi tarqalgan eng chet nuqtalarni tutashtiruvchi atlas kartasidagi chiziq. Boshqacha aytganda u yoki bu til hodisasining hududiy tarqalishini ko‘rsatuvchi lingvistik kartaga tushirilgan belgi “Izoglossa” - (izofonema - fonetik belgi, izomorfema - morfologik belgi, izoglossa - leksik belgi) tushunchasidan iborat.

2.Lingvistik atlaslar - maxsus dastur (programma) asosida tayyorlangan, ma’lum til yoki shevalarga xos xarakterli xususiyatlarning tarqalish chegarasini aks ettiruvchi lingvistik kartalarning albom shaklidagi izchil to‘plamidir. Lingvistik atlas 2 xil bo‘ladi: 1) regional atlas; 2) zonal atlas.

3. Mos hodisalar - umummilliy til tizimining zveno (a’zo)lari bo‘lib, har xil dialektlarda o‘zining turli bo‘laklari (a’zolari) bilan ishtirok etgani holda shevachilik farqlarini vujudga keltiradi. Shunga ko‘ra mos hodisalar har vaqt ikki a’zoli va ko‘p a’zoli bo‘ladi. Masalan, ona, oyy, ope, eye, biyi, buvi kabilar shevalararo farqlanib, o‘zbek adabiy tilidagi ona (tuqqan ona) tushunchasini bildiradi.

4.Areallar - lotincha arealis so‘zidan bo‘lib, maydon, bo‘shliq ma’nolarini bildiradi. Mos hodisalar ayrim bo‘laklarining lingvistik kartada tarqalish zonasini, ya’ni tilning dialektal farqlanishini anglatadi.

5.Lingvogeografik xaritalar va xaritalashtirish — lingvogeografik tadqiqotning asosiy nuqtasi. Sinxronik tadqiqot natijasi hisoblangan lingvistik xaritada til tarixining hamma davri o‘z aksini to‘ishi mumkin. Xaritalashtirish - til hodisalarining hududga tarqalishini tasvirga (kartaga tushirish). Jonli tildagi har bir lingvistik hodisa o‘zining tarqalish chegarasiga, o‘z hududiga ega. Shu hudud, chegaradagi so‘z - izoglossa, izofonema va izomorfemalarni grafik shaklda qog‘ozga tushirishdan iborat.

³⁶ S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi.Toshkent.2016.

6. Til landshafti - bu til uchun ma'lum bo'lgan izoglosslar to'plami va ularning ushbu til mintaqasida joylashishi tabiatli sifatida tushuniladi.

7. Alohidcha zona - bu bir til yoki dialekt ichida boshqa til yoki dialekt elementlarining mavjudligi. O'zbek shevalarida tojik tilining elementlari aralashib ketgan zonalar O'zbekiston va Tojikiston hududida barqaror aralash zonalar hisoblanadi.

8. Innovatsion markaz muayyan til yoki dialekt hodisalarining markazidir. Masalan, (-vot, vuz (bovotti, kelovuze) markaz Toshkent shahri shevasi bo'lib, u o'sha innovatsiya markazidan boshqa atrofdagi shevalarga tarqaldi.

Irradiatsiya - hodisaning tarqalish tushunchasi bo'lib, arealning xarakterli belgilaridan biri. Masalan, o'rinni -payt kelishigi qo'shimchasi -da Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo shahar tip shevalariga adabiy til ta'sirida to'siqlarga uchramasdan kirib borish yo'li bilan tarqalgan. Lekin qaratqich kelishigi qo'shimchasi (-ning) ning kirib borishi aytarli natija bermayotir. Chunki adabiy tilga asos bo'lgan shahar shevalari talaffuzida -ning qo'shimchasi mavjud emas³⁷.

Til hodisalari, dialektal hodisalarni tadqiq qilishda ko'pincha yondosh tillar va ularning shevalari materiallari bilan solishtiramiz. Bu to'g'ri usul bo'lib, qo'shni tillar va shevalardagi lingvistik hodisalar bir-biriga doimo o'tib turadi. O'tish hodisasi taraqqiyotning keyingi davri va masofaning yaqinligi bilan xarakterlanadi. Biroq, tillar va shevalar rivojlanishining qadimgi davriga xos bo'lgan ayrim hodisalarni tushuntirishda qo'shni tillar va shevalar har doim ham yonmaydon ketavermaydi. Masalan, Namangan guruhi shevalariga xos bo'lgan [r] undoshining o'zidan keyin kelgan barcha til oldi undoshlariga singishi Farg'ona vodiysining boshqa shevalarida uchraydi: pussun - tursun, bodd' - bordi, ottoq-ortog' kabi. ', choshshem'- chorshemmi.

Shuningdek, turk-barlos shevalaridagi ovo (amaki) ham yondosh shevalarning birortasida uchramaydi. Aynan shu kabi hodisa Qashqadaryo viloyatidagi shahar va shahar tip shevada mavjud. Bu hodisaning innovatsiya markazi qaysi ekanligi va uning irradiatsiyasi ildizi qaytomondan qay tomonga yo'nalganligi noma'lum. O'zbek shevalari atlasi yaratilganda mana shunga o'xshash ko'pgina muammolari yechilgan bo'lar edi.

2.Tilshunoslikdagi bu yangi yo'nalishga, dialektologik fikrning keyingi taraqqiyotiga Yevropa lingo - geograflarining belgili xizmatlari bor.

Lingvistik geografiyaning asoschilari: Fransiyada Jan Jilperon, Germaniyada Georg Venker, F.Vrede, I.Meyer, Rossiyada esa I.I.Sreznevskiy kabilardir. Mazkur olimlarning asarlari tufayli

³⁷ S.Ashirboyev. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent.2016.

lingvistik geografiyaning fan sifatida asosiy o‘rni, predmeti va vazifalari belgilanadi. Lingvistik geofafiya metodi bilan shevalarni o‘rganish Ukraina va Belorussiyada ham yaxshi rivojlangan bo‘lib, bu respublikalarda shevalar atlasini tuzish tugallandi va nashr etildi. Biror til yoki dialektga xos xarakterli lingvistik xususiyatlarning tarqalish chegarasini aks etirgan albom yoki kitob shaklida nashr qilingan kartalar yig‘indisi dialeklogik atlas deyiladi. Dialektologik atlaslar biror xalq tili va xalq tarixini, uning millat bo‘lib shaklanishini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Dialektologik atlaslarning dastlabki namunalari XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yaratilgan. 1821-yilda K.de Monbre tomonidan tuzilgan frantsuz shevalari chegaralarini belgilovchi karta Fransiya qirollik jamiyatiga taqdim qilinadi. 1823-yilda D.Minge o‘zining lingvistik karta tuzish g‘oyasini oldinga suradi. Yevro‘ada tuzilgan eng muhim dialektologik atlaslar quyidagilar: Venker va Vredelarning “Nemis tili atlasi” (1876-1926 yillar mobaynida yaratilgan); Marburgdagi nemis dialektologiyasi markaziy instituti nashr etgan “Nemis leksikologik atlasi”, J.Jileron va E. Edmonning 12 jildli “Fransuz tili atlasi” (1902-1912 yillarmobaynida yaratilgan), Yaberg va Yudning 8 jildli “Ital’yan-shveysar atlasi” (1928-1940-yillar mobaynida yaratilgan).

Rossiyada lingvistik geografiyaning paydo bo‘lishi va rivojlanishi I.I.Sereznevskiyning nomi bilan bog‘liq. I.I.Sereznevskiy o‘tgan asrning 50-yillaridayoq bu sohani o‘rganishni asosiy vazifa qilib quydi. Rus lingvistik geografiyasining keyingi XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi taraqqiyotida akad. A.I.Sobolevskiy va akad. A.A.Shaxmatovlarning katta hissalari bor.

A.Shaxmatov o‘z tekshiruvlari bilan lingvistik geografiya taraqqiyotiga ulkan hissa qushibgina qolmay, bu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini ham tashkil etdi. Keyinch alik rus shevalarini lingo - geografik metod bilan o‘rganishda akad. Korsh boshchiligidagi Moskva dialektologik komissiyasi katta ishlar qildi. 1935- yilda Fanlar Akademiyasi “Rus tili atlasi”ni tuzishga kirishdi. Bu davrda tilshunoslardan B.A.Larin, F.P.Filin bosh bo‘lgan dialektologlar guruhi mazkur atlasni yaratish rejasi, so‘roq’igini tuzdilar va atlas uchun material to‘plash ishlariga rahbarlik qildilar.

1944-yilda R.I.Avanesov va B.P.Filin boshchiligidagi “Rus dialektologik atlasi tuzish bo‘yicha materiallar to‘plash proggammasi»ni yaratdilar. 1951- yilda “Moskva sharqidagi markaziy oblastlar rus xalqi shevalari atlasi” ni 1952- yilda “Shimoli-g‘arbiy viloyatlar rus xalqi shevalari atlasi” tuzib tugatdilar va bu 1957- yilda nashr etiladi. Bularning har qaysisi o‘z hajmi bilan chet ellardagi eng katta milliy atlaslarga teng bo‘lib, rus tili va xalqi tarixi, millatning shakllanishini o‘rganish uchun qimmatli material bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda barcha rus tili shevalari bo‘yicha material to‘plash, to‘plangan materiallarni kartalashtirish tugallandi.

Lingvistik geografiya metodi bilan shevalarni o‘rganish Ukraina va Belorussiyada, Gruziya va Ozarbayjon, Turkmaniston va Qozog‘istonda ham yaxshi rivojlangan bo‘lib bu mamlakatlarda shevalar atlasini tuzish tugallandi va nashr etildi. MDH da tuzilgan eng muhim dialektologik atlaslar - “Moskva sharqidagi markaziy oblastlar rus xalqi shevalari atlasi” (1957-yili nashr etilgan), ‘Shimoli - g‘arbiy oblastlar rus xalq shevalari atlasi’ (nashrga tayyorlangan) va respublikalarda nashr etilgan “Ukrain tili xalq shevalari atlasi”, ‘Belorus tili xalq shevalari atlasi” va boshqalar mavjud.

3.O‘zbek xalq shevalarini lingvogeografik usulda o‘rganish, uning atlasini yaratish masalalari.

O‘zbek shevalari tadqiqotida asosan, tasviriy, qisman eksperimental va qiyosiy-tarixiy usullar qo‘llanilib kelingan. Ayrim guruh shevalar atlasi ustida tekshirish ishlari olib boriladi.

Tilshunos olimlar Y.D.Polivanov, G‘.Olim, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, A.G‘ulomov, S.Ibrohimov, R.Abdullayev, M.Mirzayev, A.Aliyev, A.Shermatov, X.Doniyorov, N. Rajabov va ularning shogirdlari o‘zbek shevalari bo‘yicha olib borgan bir qator ilmiy izlanishlarda shevalarni lingvogeografik va areal tadqiqoti uchun manba yaratadi.

O‘zbek dialektologiyasida bu soha hali yosh sohalardan biri bo‘lib, tugallangan boy materiallar asosida dialektologiyaga doir nazariy masalalarni ishlash, so‘ng lingvistik geografiya masalalarni rejalashtirish bosqichiga o‘tdi.

Respublikamizda dialektolgik ishlarni boshqarib boruvchi yagona ilmiy markaz - O‘z FAning Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti dialektologiya bo‘limi mavjud. Bu bo‘lim hozirgi vaqtda uch yo‘nalish bo‘yicha ish olib bormoqda:

1. O‘rganilmagan o‘zbek shevalarini monografik tadqiq qilish.
2. O‘zbek shevalari lug‘atini tuzish.
3. O‘zbek tilining dialektal atlasini tuzish.

1930- yillarda O‘zbek shevalarida umumturkiy izoglossalar mavjudligini dastlab professor Y.D. Polivanov ta’kidlab o‘tgan edi. 1944-yilda professor A.K. Borovkov o‘zbek tili shevalari xaritasini yaratish maqsadida “O‘zbek sheva-lahjalarini tekshirishga doir savol- javoblar” anketasini yaratdi. Shu anketa asosida 1945-1950 yillar mobaynida Farg‘ona vodiysi shevalaridan materiallar to‘plandi. Oradan 20 yil o‘tgandan keyin 1965-yildan boshlab, o‘zbek

shevalari xususiyatlarini kartalashtirish ishi yana kun tartibiga qo‘yildi, programma va so‘roqnomalar tuzildi, dialektologik materiallar to‘plana boshlandi.

O‘zbek shevalarini kartalashtirish ishini V.V.Reshetov boshlab berdi. U Toshkent viloyatining bir qismini, Ohangaron hududi shevalarida uchraydigan fonetik, leksik va grammatik farqlarni ko‘chirdi. O‘zbek dialektologiyasida birinchi bo‘lib o‘zbek qurama shevalarining 49 ta lingvistik kartasini tuzdi. Taxminan 150 kartadan iborat “Toshkent viloyat shevalari atlasi”ni tuzish ishlari 1980-yilda yakunlandi. V.V.Reshetov tuzgan lingvistik kartalarda quyidagi fonetik, grammatik va leksik belgilar olingan. Fonetika bo‘yicha “dj”lash, “j”lash va “y” lashning tarqalishi, ya’ni so‘z boshida [dj] j hodisasi [karta № 1, izoglossa: djok - jok-yok], “o”lash va “a”lashning tarqalishi, ya’ni tipik orqa qator [a] ning saqlanishi yoki uning o‘rnida [o] uchrashi [izoglossa: bar, bor], tanglay garmoniyasi va lab garmoniyasining xarakteri, yuqori-o‘rta ko‘tarilish unlilarining diftonglashuvi ; izoglossa.

Uorduk-Uordek- ordek; von-Uon-on; yechki -y eshki -iechki -echki -ichki , [V//o // u // o], [a / / e, ag‘g‘ e. ye // e] unlilarining hamda [k// x], [ch//sh] undoshlarning almashinishi [karta №6, 7, 8, 11; izoglossa:

Uy//oy, uy//oy; atlar// yitlar//iytler, etlar // itler, yetler //itler; chay-chej//shay-shey], so‘z boshida [x] va [dj]ning s”ontan paydobo‘lishi [karta №9, 22, izoglossa: ayvon-hayvon; arra-xarra].

V.V. Reshetov o‘zi o‘rgangan hududdagi izoglossalarning tarqalishini o‘rganib, ayrim sheva vakillarining etnogenезини aniqdashga va shuningdek, real til vaqtłari asosida qo‘shma shevalarining aniq tasnifini berishga muvaffiq bo‘ldi.

M. Mirzayev 1955-yilda “Buxoro viloyatidagi o‘zbek shevalarini o‘rganish uchun anketa” professor A.Aliyev 1964- yilda “Namangan dialekti bo‘yicha material to‘plovchilar uchun anketa” 1976-yilda professor A.G‘ulomov, A.Aliyev, K.Nazarovlar tomonidan “O‘zbek tilining mahalliy shevalari bo‘yicha material to‘plovchilar uchun metodik qo‘llanma” yaratdilar.

O‘zbek xalq shevalari atlasi hozirgi o‘zbek tili shevalarining rang-barang xususiyatlarini xaritalarda ifodalaydi. Lingvistik kartalarda ko‘rsatilgan dialektal xususiyatlar va ularning tarqalishi, tilshunoslar va ayrim til hodisalarining tarixiy taraqqiyoti va o‘zbek milliy tilining kelib chiqishi kabi masalalarni yanada chuqurroq o‘rganish imkonini beradi. Shuningdek, atlas materiallari tarixchilar, etnograflar uchun ham foydalidir.

O‘zbek tili dialektologik atlasi quyidagi vazifa-maqsadlarni ko‘zda tutadi:

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tili muayyan shevalarga tayanadi. Uning imlo va talaffuz me’yorlarini, shuningdek, fonetik tizimi, grammatik tuzilishi, lug‘aviy tarkibini me’yorashtirishda asosan Toshkent-Farg‘ona tipidagi shevalarga asoslanadi, lekin ayrim hollarda bu shevalarning materiali adabiy til me’yorlariga mos kelmaydi. Dialektologik atlasning ob’ektiv natijalari (xulosalari) bu masalaga to’liq oydinlik kiritadi. Haqiqatan ham, shevalarga xos dialektal xususiyatlarning butun o‘zbek tili territoriyasida tarqalishi va uning chegaralarini faqat dialektologik atlas zaminidagina muvaffaqiyatli hal qilish mumkin.

2. Dialektologik atlas materiallari o‘zbek shevalarining mavjud tasniflarini to‘ldirish, mukammallashtirishga, ularga aniqlik kiritishga yordam beradi. Shuningdek, o‘zbek shevalarining paydo bo‘lishida ishtirok etgan turkiy va turkiy bo‘lmagan etnik guruhlarning o‘zaro ta’siri natijasida sodir bo‘lgan etnolingvistik taraqqiyotning o‘ta murakkab jarayonini belgilab berdi.

3. Adabiy til va tayanch shahar shevalarining kundalik ta’siri o‘zbek xalq shevalarida til asoslarining aralashuvi va tekislanib borish jarayonini tezlashtiradi. Chunki o‘zbek xalqining iqtisodiyoti va madaniyati misli ko‘rilmagan darajaga ko‘tarildi, o‘zbek adabiy tilining qamrovi kengaydi. Adabiy tilning barcha o‘zbek shevalararo normallasha borishi asta-sekin dialektal nutqni qisib, og‘zaki- so‘zlashuv nutq doirasiga ham kirib bordi.

A.Shermatov o‘zbek shevalarini lingo-geografik usul asosida ilmiy tadqiq etishga samarali hissa qo‘sghan. U “Qashqadaryo guruh shevalari kartasi” ni tuzib chiqdi. Bu tadqiqot 167 karta bilan o‘z yakunini topdi. Keyingi yillarda Orol bo‘yi o‘zbek shevalari, janubiy va shimoliy Tojikistonda yashovchi o‘zbek shevalari, janubiy Qozog‘iston dagi O‘zbek shevalarining lingvistik kartasi ustida qizg‘in ish olib borilmoqda. O‘zbek adabiy tilining imlo va talaffuz me’yorlarining fonetik tuzilishi tizimini, grammatik tarkibining lug‘aviy tarkibini me’yorashtirishda aniqlik kiritish maqsadida o‘zbek tili dialektologik atlasini tuzish; o‘zbek shevalarining mavjud tasniflarini to‘ldirish va takomillashtirish; adabiy til va tayanch shahar shevalarining kundalik ta’siri natijasida o‘zbek shevalari orasidagi adabiy tilning me’yorlashuvini tezlashtiradi.

O‘zbek dialektologlari o‘z milliy tillarining atlasi yaratish bilan bir qatorda, dialektolog safdoshlari bilan birgalikda “Turkiy tillar atlasi”ni ham yaratmoqda. Bunday atlasni tuzish tashabbuskori akademik V. M. Jirmuniskiy edi. Uning savoli va dasturi 1960-70-yillarda bir necha bor muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Turkiy tillar atlasini yaratish uchun har 3-4 yilda bir marta xalqaro anjumanlar, yig‘ilishlar o‘tkaziladi. Umumturkiy tilshunoslik atlasining yaratilishi turkiy xalqlar tili haqida yangi ma’lumotlar beradi, qardosh tillar taraqqiyotiga qarashlarimizni kengaytiradi, unga ilmiy nuqtai nazardan tushuntirishlar kiritadi.

O‘ZBEK ADABIY TILI VA DIALEKTLAR

Reja:

1. Adabiy til va uning shakllari.
4. Dialektal xatolar va ular ustida ishlash.

Tayanch tushunchalar:

Adabiy til – me’yorlashgan til.


Adabiy tilning shakllari - adabiy tilning yozma va og‘zaki shakllari.

Tayanch dialekt- adabiy tilga biror jihatdan, ya’ni fonetik yoki morfologik jihatdan asos bo‘ladigan dialekt, sheva.

1. *Adabiy til*. Ma’lumki, har bir adabiy til milliy (xalq yoki elat) tilning yuqori bosqichi bo‘lib, u me’yorlashgan yoki me’yorlashtirilgan til hisoblanadi. Unga yana quyidagi ta’rifni berish mumkin:

Adabiy til leksik jihatdan nisbatan barqaror, fonetik, fonetik va grammatik jihatdan ma’lum bir qolipga aylanib, bir xil orfografik va orfoepik me’yorlarga amal qilgan holda, so‘z ustalari tomonidan sayqallangan milliy tilning yuksak bosqichidir.³⁸

³⁸ S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi.Toshkent.2016.



Adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari.

O'zbek adabiy tili ikki shaklga ega: og'zaki va yozma. Og'zaki adabiy til orfoepik me'yorlarga bo'yusunadi. Og'zaki adabiy til davlat ahamiyatiga molik barcha darajadagi rasmiy yig'ilishlarda, o'qish va o'qitish ishlarida, xalq yig'ilishlarida qo'llaniladi. Yozma adabiy til imlo qoidalari, imlo qoidalari esa hozirgi o'zbek alifbosi asosida shakllangan. Unda bir nechta printsiplar qo'llaniladi: fonetik, fonemik, morfologik, grafik, tarixiy-an'anaviy, ramziy va boshqalar.

2. Adabiy tilning tayanch dialekti.

Har bir adabiy tilning o'ziga xos shevasi bor. To'g'ri, barcha shevalar o'zbek adabiy tilining shakllanishida u yoki bu darajada ishtirok etadi, lekin ayrim shevalar adabiy til uchun asos, tayanch (tayanch) bo'lib xizmat qiladi, ya'ni o'zbek adabiy tili ma'lum dialektlardan tashkil topgan. dialekt va lahjalar. leksik, fonetik, grammatik xususiyatlarni adabiy tilning fakti sifatida qabul qiladi va shu dialekt va shevalar guruhining rivojlanishi bilan birga rivojlanadi, chunki sheva jonli til bo'lib, u doimo rivojlanib, o'zgarib turadi, demak, bu dialekt adabiy til hisoblanadi. yoki bir guruh shevalar taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanadi, aksincha, adabiy tilda o'zining asosiy shevasi bo'lmasa, u asta-sekin muomaladan chiqib ketadi. Foydalanishdan chiqqan til fanda "o'lik til" deb ataladi.

Tillar tarixida "o'lik tillar"ning mavjudligi haqida juda ko'p ma'lumotlar mavjud.O'zbek adabiy tili shartli ravishda **fonetik jihatdan Toshkent shahar dialektiga, morfologik jihatdan esa Farg'ona dialektiga tayanadi**. Ma'lumki, Toshkent shevalari 6 ta unlili (u, o, ə, e, Ҷ, ҵ) dialektdir. Farg'ona dialektidagi so'z shakllari, xususan, fe'l shakllari asosan o'zbek adabiy tiliga norma sifatida

qabul qilingan. Aslida adabiy tilni bir yoki ikki sheva yoki dialekt bilan bog‘lab qo‘yish juda ham to‘g‘ri emas, balki o‘zbek adabiy tili shevalar hisobiga boyib, mukammallahib boradi. Shu ma’noda shevalar adabiy tilning boyish manbai bo‘lib qoladi.³⁹ Garchand, adabiy tilda qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasining unsurlari ko‘p uchrasa-da, unda qipchoq va o‘g‘uz lahjalarining xususiyatlari ham norma sifatida ishtirok etgan o‘rinlar mavjud. Masalan, adabiy tildagi *jun*, *jo‘natmoq*, *jo‘ni*, *jo‘nalish* so‘zлari qipchoq lahjasiga xosdir. Bu so‘zlarning ayrim qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasiga oid shevalarida **йун**, **йо‘нат**, **йо‘ни** (ишмиънг йо‘пъпъ въл), **йўналиш** variantlari bor.

3. Badiiy adabiyot va dialektizm.

Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarning aks etishi dilektizm deyiladi. Bunda shevadagi qaysi yarusning aks ettirilishiga qarab dialektizmlar ham *fonetik dialektizm*, *morfologik dialektizm* va *leksik dialektizm* turlariga ega.

Fonetik dialektizm badiiy asarda muayyan shevaga oid fonetik xususiyatlarning aks etishidir. Masalan, *on əkkъ/ikki* (Marg‘ilon), *gəldъ/keldi* (Xorazm).

Morfologik dialektizm badiiy asarda shevaga xos morfologik ko‘rsatgichlarning qo‘llanishidir. Masalan, **Шаттә** - shu yerda”Qora ko‘zlar”, **Дъм(juda)** *gech gəldъngъз* (“Xorazm”).

Leksik dialektizm shevaga xos so‘zlarning badiiy asarlarda qo‘llanishidir. Masalan, dərpənməhlə(“Xorazm”) - bezovtalanmanglar, *pъsək*(paxsa, Turkiston)⁴⁰

Badiiy adabiyot tili xalq (millat) tili boyliklarining qayta ishlangan ko‘rinishidir. Shu jarayonda badiiy so‘z ustalarining voqeа yoki qahramon sarguzashtlari o‘tadigan shevaga murojaat qilishlari e’tirof etilgan. Adabiyotda mahalliy kolorit degan tushuncha bor. Bu esa adiblarga mahalliy kechinmalarni ifodalashda sheva xususiyatlaridan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi.

Badiiy adabiyotda adib dialektizmlardan ikki o‘rinda foydalanadi, ya’ni dialogik nutqda qahramonning muayyan sheva vakili ekanligini ko‘rsatish, mahalliy koloritni berish maqsadida hamda adabiy tilda sinonimi bo‘lmagan so‘zlarni majburan qo‘llaydi. To‘liq metrajli badiiy asarda ham u sheva xususiyatlaridan foydalangan holda mahalliy sharoit, mahalliy mentalitet, ruhni tasvirlaydi. J.Sharipovning “Xorazm”, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar”i shular jumlasidandir.

4. Dialektal xatolar va ular ustida ishlash

⁴⁰ S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi.Toshkent.2016.

Ma'lumki, shevaga xos so'zlar adabiy tilni boyitishning tabiiy manbalaridan biri bo'lib qolaveradi. Dialektizmlarning adabiy tilga singib ketish jarayoni dastlab qiyin kechsa-da, badiiy adabiyotning ta'sirchan kuchi orqali bir asarda qo'llangan dialektizm keyingi asarlarga o'tadi va shu bilan umumiy mulkka aylanadi va adabiy tilga singib ketishi mumkin.

O'quvchilar nutqidagi shevaga xos kamchiliklarni tugatishda ehtiyojkorlik lozim. Avvalo, o'quvchilarga xalq shevalariga xos so'zlar tilimizning boyligi, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizning uzviy qismi ekanini uqtirish kerak. Ammo ularni o'rinni-o'rinsiz qo'llayverish, ayniqsa yozma nutqda shevalarga xos so'zlarni ishlatib yuborishdan saqlanish lozimligini tushuntirish zarur.

Nutqda uchraydigan **shu verda** so'zi o'rniga **shetta, qayerda** so`zining o'rniga **qaytta, aka** so'zi o'rniga **oka** deb aytish adabiy til me'yorlaridan chekinish hisoblanadi.

So'z va jumlalarni adabiy tilda aytish va yozishga o'rgatish uchun ona tili o'qituvchisi quyidagilarni amalga oshirish lozim:

1. Adabiy talaffuzni o'quvchilarga har bir darsda grammatik, imloviy va ishoraviy qoidalarga bog'lab izchil o'rgata borish;
2. O'qituvchining o'zi adabiy tilda aniq va ravon so'zlashi.
3. Ona tili va adabiyot fanidan boshqa fanlarda ham o'quvchilarning adabiy tilda gapirishiga e'tibor qaratish.
4. O'quvchi nutqidagi shevaga xos bo'lgan so'zlarni aniqlab, bularning adabiy til me'yorlariga to'g'ri kelmasligini, hamma uchun tushunarli emasligini aniq misollar bilan tushuntirib berish. Masalan, adabiy tildagi men, sen, qaerda, cho'mildik o'rniga mahalliy sheva ta'sirida man, san, qatta, hopittik tarzida ishlatalishning noo'rin ekanligini o'quvchilar anglab olsinlar.
5. O'quvchilar nutqidagi shevaga xos kamchiliklarni tugatish uchun ularni ko'proq badiiy asarlar o'qishga jalb etish. Chunki o'quvchi qancha ko'p badiiy asar o'qisa, shuncha adabiy til me'yorlarini yaxshi o'zlashtiradi.

TURKIY TILLAR VA LAHJALARINI O'RGANISHDA MAHMUD KOSHG'ARIYNING “DEVONU LUG'OTIT TURK” ASARINING AHAMIYATI

Reja

1. Mahmud Koshg'ariy va uning “Devoni lug'otit turk” asari xususida;

2. Mahmud Koshg‘ariyning turkiy dialektlar haqidagi qarashlari;
3. “Devonu lug‘otit turk” asari va turkiy tillarni qiyosiy o‘rganish metodi;
4. “Devonu lug‘otit turk” asarining tuzilishi;
5. “Devonu lug‘otit turk” asaridagi etnonimlar;
6. “Devonu lug‘otit turk” asarining ilmiy-tarixiy ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: “Devonu lug‘otit turk”, tovush, harf, lug‘at, qadimgi turkiy so‘zlar.

Turkshunoslik ilmining asoschisi Mahmud Koshg‘ariy ibn Husayn ibn Muhammad ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan qoraxoniylar sulolasiga mansub bo‘lib, otasi Xusayn ibn Muhammad o‘sha davrdagi Barsg‘an eliga amirlik qilgan. Koshg‘ariy boshlang‘ich ma’lumotni o‘z qishlog‘ida, yuqori ma’lumotni Koshg‘ar madrasalarida oлган, arab, fors va turkiy tilni puxta egallagan. So‘ng u Buxoro, Samarcand, Marv va Nishopur shaharlarida bilimini oshirgan. Mahmud Koshg‘ariy 1056-1057-yillarda mamlakatdagi ichki nizolar sabab o‘z vatanini o‘n besh yil davomida tark etishga majbur bo‘ladi. Ana shu yillarda u turkiy xalqlar yashaydigan o‘lkalarni kezib, bu yerlardagi turkiy qabila va urug‘lar, ularning kelib chiqishi va nomlanishi, joylashish o‘rinlari, urf-odatlari, ayniqsa, til xususiyatlarini sinchiklab o‘rganadi. So‘ng Bag‘dodga borib, ancha vaqt shu shaharda ijod qiladi. Mahmud Koshg‘ariy taxminan 1080-yillarda vataniga qaytib kelib, O‘paldagi Aziq qishlog‘ida, Hazrati Mullom tog‘i etagidagi tepalikda joylashgan madrasada dars bergen va ilmiy ijod bilan mashg‘ul bo‘lgan. (Hozir mazkur madrasaning faqat poydevorlari saqlanib qolgan). Olim 1105-yilda (yoki 1126-yilda) 97 yoshida vafot etib, O‘paldagi uning ajdodlari maqbarasiga dafn etilgan. Tog‘ etagida balandligi qirq metrli tepalikda joylashgan maqbara mahalliy xalq orasida Mahmud Koshg‘ariy mozori nomi bilan mashhur. Olim dafn etilgan joyga o‘sha davr an’anasiga mos ravishda peshtoqlik qabr qurilib, usti uy shaklida yopilgan. Shundan beri bu yer ziyoratgohga aylanib, mahalliy xalq tomonidan ta’mirlanib turilgan. Qabr joylashgan tepalikning etaklari go‘zal, manzarali boqqa aylantirilgan. Maqbaraga chiqishda to‘qson ikkita zinani bosib o‘tish lozim. Aytishlaricha, ushbu zinalar soni olimning yoshi soniga tenglashtirilgan. Tepalikda olimning kitob ushlab turgan haykali o‘rnatalgan. Mahmud Koshg‘ariy dunyoga mashhur asari “Devonu lug‘otit turk” (“Turkiy so‘zlar devoni”)ni abbosiylardan bo‘lgan Abulqosim Abdulloh binni Muhammadil Muqtadoga bag‘ishlaydi. Ushbu asar turkiy xalqlar tarixidagi dialektologik, izohli, etnografik, tarixiy-etimologik lug‘atlarning barcha unsurlarini qamrab oluvchi dastlabki universal lug‘at bo‘lib, o‘z muallifini dunyoga ulug‘ adabiyotchi, tarixchi geograf va b. ko‘p fanlarlan yaxshi xabardor bo‘lgan yirik fan arbobi, qomusiy olim sifatida tanitdi. Bu

asarida olim turkiy qabila va urug‘lar (xalqlar) tillaridagi so‘zlar ma’nosini arab tilida izohlab beradi. Misol sifatida esa maqollardan va badiiy adabiyotdan parchalar keltirali. Mahmud Koshg‘ariy asariga o‘zi tuzgan dunyo xaritasini ilova qiladi. Xaritada mamlakat, shahar, qishloq, tog‘, cho‘l, dengiz, ko‘l, daryo qabilarning nomlari yozilgan. Xarita, asosan, Sharqiy yarim sharga to‘g‘ri keladi. Ayrim kamchiliklariga qaramay, xarita o‘z davri uchun mukammal, hozirgi davr uchun geografik ma’lumotlar beruvchi muhim manba hisoblanadi. Mahmud Koshg‘ariyning turkiy til grammatikasiga bag‘ishlangan boshqa bir asari ham bo‘lgan. Chunonchi, olim “Devonu lug‘atit turk”ning kirish bo‘limida kitobda zikr etilmagan grammatik qoidalar to‘g‘risida so‘z yuritib: “Birlik, ko‘plik, oshirish, chog‘ishtirish, kichraytish, kelishiklar masalasi va boshqalar ham zikr qilinmadi. Chunki biz bularni “Kitob javohir an-nahv filug‘at at-turk” (“Turkiy tillarning nahviga oid gavharlar kitobi”) ismli asarimizda berdik. Nahvga oid qoidalar u asardan qaralishi kerak”, – deb yozadi (MK.I.62). Biroq uning bu kitobi saqlangan emas. “Devonu lug‘otit turk”ning qo‘lyozmasi 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakr shahridan topilgan. 319 sahifali bu qo‘lyozma hozir Istanbulda saqlanadi. Bu nusxa asar yozilganidan salkam 200 yildan keyin, ya’ni Mahmud Koshg‘ariyning o‘z qo‘li bilan yozilgan nusxdadan 1266-yilda kotib Muhammad ibn Abu Bakr ibn Fotihal-Soviy al Damashqiy tomonidan ko‘chirilgan. Asar arablar, arab tilini biladigan sharq xalqlari va Yevropa ilmiy jamoatchilagini turkiy til bilan tanitish maqsadida yaratilgan. Asar bir qancha tilga tarjima qilingan. Hozirda uning turkcha, o‘zbekcha, uyg‘urcha, inglizcha, ruschaga o‘girilgan nashrlari bor. “Devonu lug‘otit turk”da, avvalo, otlar, so‘ng fe’llar izohlanadi. So‘zlar tartibi ularning tarkibidagi harflarning orta borishiga (2 harfdan 7 harfgacha) qarab amalga oshirilgan. Asarda qabila va urug‘ tillariga oid lingvistik ma’lumotlar ancha bat afsil berilgan. Bunda har so‘zning ma’nolari (polisemiya, omonim, sinonim, antonim va arxaik so‘zlar) chuqur tahlil qilinadi, ayrim so‘zlarning etimologiyasiga to‘xtalib o‘tadi. Tovushlar (fonemalar)ning tahlili ancha mukammal: unli va undosh fonemalar, cho‘ziq va qisqa unlilar, ularning urug‘ tillaridagi talaffuzi va orfografiyasi, tildagi fonetik hodisa va qonuniyatlar bat afsil izohlangan. Morfologiya sohasida so‘z turkumlarini, davr an’anasiga ko‘ra, uch so‘z turkumiga: fe’l, ism, bog‘lovchiga bo‘lib, ularning yasalish va turlanish yo‘llarini ko‘rsatib o‘tadi. Asarda uch yuzga yaqin maqol va matallar, o‘nlab she’riy parchalar keltirilgan. Tilshunos olim V.I.Belyayev asar haqida shunday yozadi: “Biz bu asarga nihoyatda yuksak baho berishimiz kerak, chunki u kitoblardan olib yozilmagan, balki jonli materialni shaxsan kuzatishga asoslangan. Muallif bergan ma’lumotlarni arxeologik kashfiyotlar isbot etmoqda”. Nemis sharqshunosi Karl Brokkelman asarni 1928-yilda nemis tiliga tarjima qildi. Asar qo‘lyozmasining fotonusxasi Istanbulda Kilisli Rifat (3 jildli; 1915-1917),

keyinchalik Bosim Atalay tomonidan (3 jildli; 1939-1941) turk tiliga tarjima qilinib, chop etilgan. Uning turk tilidagi keyingi qayta nashri 1957 yil amalga oshirildi. “Devonu lug‘otit turk” asari ikkinchi bo‘lib o‘zbek tiliga tarjima qilinib, muhim izoh va tafsirlari bilan 1960-1963-yillari Toshkentda “Fan” nashriyotida 3 jilda chop etilgan. Bu tilshunos olim Solih Mutallibovning 35 yillik mehnati natijasi edi. Ushbu nashr faqat tarjima bo‘lmay, turkcha tarjimaga munosabat, baho, atamalar, shaxs nomlari, shahar va joy nomlariga izoh va tafsir hamdir. O‘zbekcha nashrining muqaddima qismida Mahmud Koshg‘ariyning lingvistik qarashlari, turkiy qabilalar, ularning shakllanishi, bu urug‘ va qabilalar, tillarning hozirgi turkiy xalqlar va ularning tiliga munosabati, tarjima transkripsiysi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. “Devonu lug‘otit turk” o‘zbekcha nashrining oxirida turkiy urug‘, qabila, shaharlar va boshqalar to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar bor, asarning har bir jildida havolalar berilib, unda uchragan so‘z va iboralar keng ta’riflanadi, izohlanadi. O‘zbekcha nashrining muhim tomonlaridan biri, uning har bir jildi asosida tuzilgan ko‘rsatkichdir. Unda asarda uchragan so‘zlar alifbo tarzida keltirilib, so‘zning o‘zbek va rus tilida tarjimasini beriladi. “Devonu lug‘atit turk”ning bitta qo‘lyozmasi saqlangan. U hijriy 664-(melodiy 1266-) yilda kotib Muhammad ibn Abubakr ibn Abdulfath as-Saviy ad-Damashqiy ko‘chirgan. Uning yozishicha, mazkur qo‘lyozma Mahmud Koshg‘ariyning o‘z qo‘li bilan bitilgan nusxasidan ko‘chirilgan. U hozir Istanbuldagi Millat kutubxonasining Ali Amiri fondida 4189 raqami ostida saqlanmoqda. Qo‘lyozma 319 varaqli katta bir jilddan iborat bo‘lib, varaqlari tarqoq, yirtiq, boshi-oxiri noma’lum, sahifalari qo‘yilmagan. “Devonu lug‘otit turk” qo‘lyozmasi uchga bo‘linib, birinchi va ikkinchi jildlari 1915-yilda, uchinchi jildi 1917-yilda Istanbulda Kilisli Rifat muharrirligida nashr etildi. Tilshunos Bosim Atalay asarni turk tiliga birinchi bo‘lib mukammal tarjima qildi. Abdulahad Nuriy “Devonu lug‘otit turk”dagi aforizm va maqollarning 251 tasini to‘plab, “Otalar so‘zi” nomida nashr ettirdi. Shokir Ulkutoshirning “Kashg‘arli Mahmud” nomli kichik bir asarida Mahmud Koshg‘ariynint hayoti, ijodi va “Devonu lug‘otit turk”ning mazmuni bayon etilgan. G‘arbiy Yevropada sharqshunos Karl Brokkelman 1920-yilda “Devonu lug‘otit turk” to‘g‘risida birinchi maqolasini e’lon qildi, keyinchalik asardagi so‘z, ism va joy nomlarining ro‘yxatini tuzib, qaysi tom va sahifasini belgilab, alohida kitob (ko‘rsatkich) tarzida nemischa so‘z boshisi bilan 1928-yilda nashr etdi. U “Devonu lug‘otit turk”ning til va adabiyot uchun ahamiyati, uning tarjimasini to‘g‘risida ham bir necha maqolalar yozdi. Atoqli turkolog S.E.Malov Toshkentda ishlagan davrida ham, keyinchalik ham “Devonu lug‘otit turk”ga katta ahamiyat berdi. Uning “Qadimgi turkiy yozuv yodgorliklari” nomli monografiyasida asarga oid qimmatli fikrlar ifodalangan va kattagina bibliografiya berilgan. Sharqshunos P.K.Juze 1926-1928-yillarda “Devonu lug‘otit turk”ga bag‘ishlab ikkita maqola yozdi.

P.K.Juze asli falastinlik arab bo‘lib, u 1871- yilda tug‘ilgan. Qozon universitetida ta’lim olgan, Qozonda va Bokuda professorlik qilgan, 1942-yilda Bokuda vafot etgan. U maqolalarida “Devonu lug‘otit turk” asariga juda yuksak baho berdi, uning katta ahamiyatini uqtirib o‘tdi. U yozadi: “Mahmudning “Devonu lug‘otit turk” asarida o‘sha vaqtida Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan Shimoliy-Sharqiylar qabilalarning deyarli hammasi to‘plangan. Dadil aytish mumkinki, yaqindagina (XIX asr oxirlarida) Rossiyada va Sharqda o‘rganilgan turkiy tillar fonetikasi va etimologiyasining asosiy qonunlari XI asrdayoq Mahmud tomonidan aniqlangan va o‘rganilgan edi. Mahmudning bu tekshirishlari shu qadar keng va chuqrski, hatto, bunday asar XIX asrda yozilganda ham unga shonsharaf bo‘lardi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”i singari asar fan olamida keyingi asrlarda ham yaratilgan emas. Uning asari bamisoli “Turkiy qomus”dir”. O‘zbek olimlari orasida “Devonu lug‘otit turk” asarini ilmiy asosda o‘rganishni Turkiston jadidchilik harakatining g‘oyaviy rahnamosi Abdurauf Fitrat boshlab berdi. Uning “Devonu lug‘otit turk” asariga oid tadqiqotlaridan biri “Eng eski turk adabiyoti namunalari” deb nomlanadi. Mazkur tadqiqot majmua 1927-yilda isloh qilingan arab yozuvida chop etilgan bo‘lib, unda Fitrat turkshunoslik ilmining asoschisi Mahmud Koshg‘ariyning mashhur “Devonu lug‘otit turk” asaridagi she’riy parchalarni yig‘ib, ularni adabiy tur va janrlarga ko‘ra tasniflagan. “Bir-ikki so‘z” deb nomlangan so‘z boshisida o‘zbek tili va adabiyoti tarixi, turkiy tilshunoslik va o‘zbek adabiyotshunosligi uchun muhim, ahamiyatli fikrlar ifodalangan. Ular jumlasiga quyidagilarni aytish mumkin: a) Mahmud Koshg‘ariy, V.V.Radlov va A.N.Samoylovichlarning turkiy tillar tasnifiga oid ilmiy qarashlari mufassal tahlil etilgan; b) yangi o‘zbek adabiy tilining asosiy manbalari to‘g‘ri belgilangan; v) “Devonu lug‘otit turk” asaridagi she’riy parchalar adabiy tur va janrlarga ko‘ra aniq tasniflangan; g) “Devonu lug‘otit turk” asarining ilmiy-tarixiy ahamiyatiga to‘g‘ri baho berilgan. Yuqorida aytib o‘tilganidek, “Devonu lug‘otit turk” asarining qo‘lyozmasi 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakir shahrida topiladi, 319 sahifali bu qo‘lyozmaning fotonusxasini Kilisli Rifat 1915-1917-yillarda uch tomdan iborat qilib, Istanbulda nashr ettiradi. Fitrat ushbu nashrdan foydalanib, uni tadqiq etishga harakat qilgan. Dastlab u turkshunoslar Mahmud Koshg‘ariy, V.V.Radlov va A.N.Samoylovichning turkiy tillar tasniflariga o‘z munosabatini bildirib o‘tdi. Ma’lumki, V.V.Radlov tasnifida, asosan, hududiy-geografik nuqtayi nazar asos qilib olingan va shunga ko‘ra turkiy tillar to‘rt guruhga bo‘lingan. Ular quyidagilardir: 1.Sharqiy guruh. (Bu guruhga oltoy, chulim, xakas, shor, tuva va enasoy turklarining tili kiradi); 2.G‘arbiy guruh. (Bu guruhga qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq, tatar, boshqird tillari kiradi); 3.O‘rta Osiyo guruh. (Bu guruhga uyg‘ur va o‘zbek tillari kiradi); 4.Janubiy guruh. (Bu guruhga turkman, ozarbayjon va turk tillari

kiradi). A.N.Samoylovichning tasnifida esa turkiy tillar oltita guruhga bo‘lingan. Uning tasnifida fonetik tamoyil asos qilib olingan. Tasnifda turkiy tillar guruhi quyidagilardan iborat: 1. Bulg‘or guruhi. Bu R guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga eski bulg‘or va hozirgi chuvash tillari kiradi); 2. Shimoliy-Sharqiy yoki uyg‘ur guruhi. Bu D guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga uyg‘ur, tuva, salar tillari kiradi); 3. Shimoliy-G‘arbiy yoki qipchoq guruhi. Bu Tau guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga oltoy, qirg‘iz, qumiq, tatar, boshqird, qozoq tillari kiradi); 4.Janubi-Sharqiy yoki chig‘atoy guruhi. Bu Tag‘liq guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga o‘zbek va uyg‘ur tillari kiradi); 5. O‘rtalik yoki qipchoq-turkman guruhi. Bu Tag‘liq guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga qipchoq-turkman tillari kiradi); 6. Janubiy-G‘arbiy guruhi. Bu Ol guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga ozarbayjon, turk, gagauz tillari kiradi). Fitrat mazkur tasniflarni tahlil etib bo‘lgach, ular bo‘yicha o‘z xulosalarini quyidagicha ifodalaydi: “Har holda bu tasniflarning ko‘pda asosiy narsalar bo‘lmag‘ani ma’lum. Bularidan boshqa birda tarixiy tasnif Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘at”ida bordir”. Olimning mazkur fikridan quyidagilarni anglash mumkin: 1) rus turkshunoslarining tasnifida juda ko‘p kamchiliklar mavjud, ularda turkiy tillar bir tomonlama tasnif etilgan. V.V.Radlovnning ilmiy ishlarida turkiy tillar hududiy-geografik nuqtayi nazardan, A.N.Samoylovichning ilmiy asarlarida esa turkiy tillar bir xil lingvistik belgisiga asoslanib tasnif etilgan. Bunday yo‘l tutish xatolik va chalkashliklarni keltirib chiqarishi aniq. Shu uchun ularning tasniflari mukammallikdan yiroq; 2) mazkur tasniflardan bir necha asr ilgari, ya’ni XI asrda yaratilgan tasnif ham mavjud bo‘lib, u Mahmud Koshg‘ariyga tegishlidir. Ayonki, olim turkiy xalqlarning hududiy-geografik jihatdan yashash manzillari va turkiy tillarning lingvistik xususiyatlarini alohida e’tiborga olib, turkiy tillarni ikkita guruhga bo‘ladi: 1) turk yoki xoqoniy turkchasi tillari; 2) o‘g‘uz tillari. Ma’lumki, “Devonu lug‘otit turk” asarida mazkur guruhdagi tillarning fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari mufassal tahlil etilgan, shularga asoslanib ular tasnif etilgan. Bu tarixiy tasnif ancha sodda, aniq va qisman mukammal ekanligini Fitrat alohida ta’kidlab, undan keng foydalanish, yaratilajak yangi tasniflarga, albatta, asos qilib olinishi lozimligini aytadi. Asarga tarixiy fonetika, morfologiya va leksikologiya uchun qimmatli materiallar beruvchi manba sifatida yuqori baho beradi. Chindan ham unda yuqoridagi yo‘nalishlar bo‘yicha ancha keng va to‘liq ma’lumotlar mavjud. Fitrat “Devonu lug‘otit turk” asarida mingdan ortiq so‘zning izohi berilganligini qayd etadi. Ayrim adabiyotlarda asardagi so‘zlar miqdori olti mingdan ziyodroq deb ko‘rsatilgan. “O‘zbekiston Milliiy enstiklopediyasi”da esa sakkiz mingdan ortiq so‘zning izohi berilganligi ko‘rsatib o‘tilgan (O‘ME,III,230). Hozircha bu masalada aniq to‘xtamga kelngani yo‘q. Fitrat tadqiqotida “Devonu lug‘otit turk” asarining yozilish sanasi ham

